Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунида давлат харидларининг субъектлари – давлат буюртмачиси, харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиси, давлат харидларининг ижрочиси, харид комиссияси, давлат харидлари электрон тизимининг оператори, ихтисослашган ташкилот ва эксперт, эксперт ташкилоти белгиланган.

Умуман олганда, давлат харидларига оид шартномаларни тузиш, ўзгартириш, бекор қилиш ва бажариш пайтида юзага келадиган низолар иштирокчилари давлат харидлари бўйича низо тарафлари бўлиши мумкин.

Давлат ҳар доим давлат харидлари шартномасининг тарафи эканлигини исботлашнинг ҳожати йўқ. Давлат иқтисодий судда иш бўйича тараф сифатида ҳар қандай юридик шахс ёки жисмоний шахс билан бир хил мақомга эга бўлади.

Мазкур вазиятда давлат ўз ваколатларини “*e jure imperii*” эмас, балки “*jure gestionis*” орқали амалга оширади. Содда қилиб айтганда, давлат шартноманинг тарафи сифатида бошқа ҳар қандай иқтисодий субъект ёки ташкилот каби кўриб чиқилиши керак.

С.В.Белых таъкидлаганидек, давлат органи низода тенг ҳуқуқли тараф сифатида иштирок этадиган ҳолатлар ва у оммавий-ҳуқуқий функцияларни амалга оширадиган ҳолатлар ўртасидаги фарқни аниқ ажратиш керак [1].

Гарчи давлат ва хусусий манфаатлар ўртасида мувозанатни топиш жуда қийин бўлса-да, давлат харидлари билан боғлиқ ҳар қандай низо очик ва шаффоф бўлиши керак.

Бу мувозанат маълумотларнинг мавжудлиги (ошкор қилиниши) асосланиши нуқтаи назаридан кўриб чиқилиши керак. Давлат давлат харидларига оид шартномаларнинг тарафи сифатида, икки томонлама ҳуқуқий режимга бўйсунди. Тендер жараёнида бу оммавий ҳуқуқ режими (“*e jure imperii*”) ҳисобланади, шартнома имзолангандан сўнг эса давлат хусусий ҳуқуқ муносабатларининг иштирокчисига айланади (“*jure gestionis*”), яъни давлат харидлари шартномасининг ҳуқуқий оқибатлари хусусий ҳуқуқ характерида эга бўлади.

В.И.Баловнев тарафлар ўртасида расмий эмас, балки ҳақиқий процессуал ваколатлар тенглигини таъминлаш зарурлигини таъкидлайди [2].

Давлат харидлари билан боғлиқ иқтисодий ишларда тарафларнинг ҳуқуқларини процессуал кафолатлари масаласи айниқса долзарбдир.

И.В.Низовцев ва К.С.Данилов таъкидлаганидек, тарафлар ишнинг натижасидан нафақат моддий, балки процессуал манфаатдорликка ҳам эга [3].

Давлат харидлари бўйича иқтисодий низолар асосан тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланадиган юридик шахсларни ўз ичига олади, бу эса уларнинг процессуал ҳуқуқ ва мажбуриятларини амалга оширишга маълум талабларни қўяди.



Давлат харидлари бўйича иқтисодий низоларда тарафларнинг қонуний ҳуқуқларини амалга оширишни таъминлашда мувозанатни сақлаш муҳимдир.

Давлат харидлари бўйича иқтисодий низоларда даъвогар ва жавобгар куйидаги ҳуқуқларга эга:

-иш материаллари билан танишиш, улардан кўчирмалар олиш ва кўчирма нусхаларни олиш;

-далилларни тақдим этиш ва уларни текширишда иштирок этиш;

-илтимослар бериш (гувоҳларни чақириш, экспертиза ўтказиш ва далилларни олиш тўғрисида);

-судда тушунтиришлар бериш (ёзма ва оғзаки);

-бошқа шахслар, гувоҳлар ва мутахассисларга савол бериш;

-қарши тарафнинг далиллари ва важларига эътироз билдириш;

-вакил олиш;

-суд қарорларига нисбатан шикоят қилиш.

Т.Алиев, тарафнинг процессуал мақоми иш юритиш бошланган пайдан бошланади. Бироқ, амалда шахс даъво аризасини бериш босқичида даъвогар ёки жавобгар деган мақом олган ҳолатлар юзага келади [4] деб таъкидлайди.

Давлат харидлари билан боғлиқ иқтисодий ишларнинг асосий иштирокчилари бевосита иштирок этувчи тарафлар: даъвогар ва жавобгардир. Ҳар бир тарафга низода ўз позициясини ҳимоя қилиш учун кенг имкониятлар берилади. Даъвогар ва жавобгар текширилиши керак бўлган фактларни баён қилишлари ва ушбу фактларни тасдиқловчи далилларни тақдим этишлари шарт. Улар ишда мавжуд бўлган далилларни текширишда фаол иштирок этиш, турли илтимосномалар бериш, қарши тарафларининг вакилларига саволлар бериши, давлат харидлари билан боғлиқ иқтисодий ишларда юзага келадиган барча масалалар бўйича ўз фикрлари ва мулоҳазаларини билдириши мумкин.

Шу билан биргаликда, қарши тарафнинг далиллари ва фикрига эътироз билдириш ҳуқуқига эга. Шунингдек, тарафларга суд қарорлари устидан апелляция, кассация ва тафтиш тартибида қайта кўриб чиқиш тўғрисида шикоят қилиш ҳуқуқи мавжуд.

Давлат харидлари билан боғлиқ низоларда тарафларининг махсус ҳуқуқлари мавжуд бўлиб, махсус ҳуқуқдан фақат даъвогар ва жавобгар фойдаланиши мумкин.

Даъвони тўлиқ ёки қисман тан олиш – бу жавобгарнинг даъво аризасида баён этилган даъвогарнинг талабларига розилигини англатади.

Даъво талабидан воз кечиш – бу даъвогарнинг жавобгарга қарши асосли даъволардан ва бунинг натижада иш бўйича суднинг кейинги жараёнларидан воз кечишидир. Мазкур ҳолларда, суд томонидан даъводан воз кечиш қабул қилинган бўлса, иш юритиш тугатилиши мумкин.

Шунингдек, даъвогарнинг даъво асосини ёки предметини ўзгартириш, даъво миқдорини ошириш ёки камайтириш ҳам мумкин. Бинобарин, даъвогар бу ҳуқуқлардан фақат биринчи инстанцияда фойдаланиши мумкин. Даъвони тан олиш ва келишув битими исталган босқичда амалга оширилиши мумкин.



Тарафларнинг процессуал ҳуқуқлари уларнинг мажбуриятлари билан чамбарчас боғлиқ. Процессуал қонунчилик тарафларга етарлича кенг процессуал ҳуқуқлар бериш билан биргаликда қонунда назарда тутилган мажбуриятларни ўз зиммаларига олишлари ва ўзларига тегишли барча процессуал ҳуқуқлардан виждонан фойдаланишлари кераклигини кўрсатади. Тарафлар ҳеч кимнинг ҳуқуқ ва манфаатларига зид келадиган ёки уларни бузадиган ҳаракатларни содир эта олмайдилар.

Давлат харидлари билан боғлиқ иқтисодий ишларда тарафларнинг баъзи ҳуқуқлари бир вақтнинг ўзида уларнинг мажбуриятларини ташкил этади. Шундай қилиб, тараф ўз даъволари бўйича тушунтиришлар бериш ҳуқуқига эга, аммо бу ҳуқуқ, шунингдек, иқтисодий суд судьясининг кўрсатмасига биноан бундай тушунтиришларни бериш мажбуриятдир. Давлат харидлари билан боғлиқ иқтисодий ишда далилларни тақдим этиш, бир томондан, тарафнинг ҳуқуқи ва шу билан бирга, унинг мажбурияти ҳамдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Белых С.В. О соблюдении баланса частных и публичных интересов в некоторых решениях Конституционного Суда РФ // Известия высших учебных заведений. Уральский регион. 2017. № 3. – С. 32-37.

2. Бутаев М.М. Анализ принципа равноправия сторон в арбитражном процессе // Экономика и право: современные интеграционные процессы: Сб. тр. Международной студенческой научно-практической конференции, приуроченной к 20-летию Ставропольского филиала МПГУ. Ставрополь: ООО "Секвойя", 2018. – С. 29-32.

3. Низовцев И.В. Ускорение рассмотрения дела. Когда это поможет быстрее решить спор // Арбитражная практика для юристов. 2023. № 7 (95). – С. 34-36.

4. Алиев Т. Пересмотр по вновь открывшимся обстоятельствам судебных актов, порядок возбуждения производства // Арбитражный и гражданский процесс. 2007. № 4. – С. 17-19.



RAQAMLI TA'LIM MUHITI: O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Yakubov Axtam Nusratilloevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellektual mulk huquqi sho'basini
professori vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy global raqamli transformatsiya jarayonlarining O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga ta'siri, raqamli ta'lim muhitining mazmun-mohiyati va uning tarkibiy elementlari atroflicha tahlil qilingan. Muallif raqamli ta'lim platformalari, virtual auditoriyalar, MOOC xizmatlari va multimedia vositalari orqali ta'lim jarayonidagi samaradorlikning oshishiga oid xalqaro tajribalarni solishtirma o'rganadi. Shu bilan birga, raqamli ta'limning afzalliklari bilan bir qatorda, raqamli tengsizlik, kiberxavfsizlik va pedagoglarning raqamli kompetensiyasiga oid muammolar ham yoritilgan. OTMLar uchun "Raqamli kampus" modelini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim muhiti; raqamli transformatsiya; oliy ta'lim; raqamli platformalar; LMS; MOOC; elektron ta'lim; sifat ta'minlash; sun'iy intellekt; virtual auditoriya; OER; raqamli kompetensiya; O'zbekiston ta'limi; raqamli kampus.

XXI asr axborot va raqamli texnologiyalar asri sifatida tarix sahifalariga kiritilmoqda. Bugungi kunda dunyoning har bir burchagida raqamli transformatsiya jarayonlari kuzatilmoqda va bu o'zgarishlar, albatta, ta'lim sohasidan chetda qolmasligi tabiiy hol. Globallashuv sharoitida raqatsional fikrlaydigan, yangi texnologiyalarni erkin qo'lladigan, zamon talablariga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash davlatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar negizida ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, jumladan raqamli ta'lim muhitini yaratish va joriy etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Globallashuv sharoitida xalqaro maydonda raqobatbardosh, innovatsion tafakkurga ega, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan buyuk g'oyasi asosida oliy ta'lim muassasalarida sifat ta'minlash tizimini rivojlantirish, pedagogik kadrlarning malakasini doimiy oshirib borish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish yo'nalishida izchil ishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi mustahkam huquqiy va strategik asoslarga ega. Shuningdek, oliy ta'lim sohasini raqamlashtirish bo'yicha qabul qilingan bir qator normativ hujjatlar va milliy dasturlar ushbu jarayonga



mustahkam huquqiy vosita yaratgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kechib o'tishini tushunish uchun, avvalo, "raqamli ta'lim muhiti" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish zarur. Raqamli ta'lim muhiti deganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan integralashgan tizim tushuniladi, u elektron ta'lim resurslari, interaktiv platformalar, virtual vositalar va raqamli kontentni qamrab, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu tushuncha ta'limning barcha qatnashchilari – o'qituvchilar, talabalar, ma'muriyat va ota-onalar uchun yaxlit informatsion ekotizimni taqdim etadi.

Raqamli ta'lim muhitining asosiy elementlari bir nechta kategoriyalarga bo'linadi. Birinchi darajadagi elementlar – ta'lim boshqaruvi tizimlari (Learning Management System – LMS) bo'lib, ular orqali o'quv jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va baholash amalga oshiriladi. Moodle, Canvas, Blackboard kabi platformalar dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Ikkinchi darajadagi elementlar – MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari bo'lib, Coursera, edX, Udemy kabi xizmatlar millionlab o'quvchilarga imkon beradi. Uchinchi darajadagi elementlar – virtual auditoriyalar (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet) va interaktiv vositalar (virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, 3D-modellar) xisoblanadi. To'rtinchi darajada – raqamli kontent va multimedia vositalar (interaktiv darsliklar, video-leksiya, podkastlar, veb-keystlar) joylashgan.

Jahon tajribasini tahlil qilganda, AQSHning raqamli ta'limdagi peshqadamligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Garvard, MIT, Stenford kabi universitetlar edX platformasini yaratib, bepul onlayn-kurslarni taqdim etmoqda. AQSHda K-12 ta'lim tizimida Google for Education va Microsoft Education platformalari keng qo'llanilmoqda. Yevropa tajribasida Finlyandiya va Estoniyaning yuqori natijalari diqqatga sazovor.

Raqamli ta'limning afzalliklari ko'p jihatlidir. Birinchidan, geografik cheklolarning yo'qolishi – talabalar dunyoning istalgan nuqtasidan sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, individuallashtirilgan o'qitish – har bir talabaning o'ziga xos o'rganish uslubi, tempi va qiziqishlariga moslashish. Uchinchidan, interaktivlik – multimedia vositalar orqali ma'lumotni yanada yaxshi o'zlashtirish. To'rtinchidan, raqamli portfolio orqali talabalar o'z yutuqlarini namoyish etish imkoniyatiga ega. Beshinchidan, 24/7 rejimida ta'lim resurslariga kirish imkoni.

Biroq, raqamli ta'lim xavf-xatarlari ham mavjud. Raqamli tengsizlik – barcha o'quvchilar zamonaviy texnologiyalarga teng kirish imkoniyatiga ega emas. Ikkinchi xavf – kiberxavfsizlik muammolari: shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, kiberxujumlar, onlayn-tajovuz xolatlari. Uchinchidan, ijtimoiy izolyatsiya – to'g'ridan-to'g'ri insoniy muloqotning yo'qolishi psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. To'rtinchidan, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi yetishmasligi – pedagoglarning texnologik ko'nikmalari va usuliy tayyorgarligi muammosi. Beshinchidan, ta'lim sifatini nazorat qilish murakkablashishi – onlayn-muhitda o'zlashtirish darajasini obyektiv baholash qiyinligi.



O‘zbekistonda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirishda ushbu xalqaro tajribalarni hisobga olish, bir vaqtning o‘zida milliy xususiyatlar va ehtiyojlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi jarayoni 2017-yildan boshlab tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasasi raqamli transformatsiya jarayonining turli bosqichlarida faoliyat yuritmoqda. COVID-19 pandemiyasi O‘zbekiston oliy ta’limi uchun haqiqiy test bo‘ldi. 2020-yil mart oyidan boshlab, barcha oliy ta’lim muassasalari masofaviy ta’lim rejimiga o‘tdi.

Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan “Elektron universitet platformasi orqali yuridik ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishning innovatsion shakllarini joriy etish” loyihasidagi ishtirokimdan shuni ta’kidlashim mumkinki, xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish jarayonida eng muhimi – universitetlarning o‘z xususiy raqamli ekotizimlarini yaratish bo‘ldi. Toshkent davlat yuridik universitetida amalga oshirilgan tajriba shuni ko‘rsatdiki, instrumental yechimlarni joriy etishdan ko‘ra, pedagogik yondashuvni o‘zgartirish va sifat ta’minlash tizimlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish samarali natijalarga olib keladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston oliy ta’limida raqamli muhitning shakllanishi tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari, xalqaro hamkorlik va oliy ta’lim muassasalarining ichki salohiyatlari birgalikda bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn-seminarlar va vebinarlar zamonaviy oliy ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu formatning asosiy afzalliklari quyidagilarda: geografik cheklovlar yo‘qolishi – dunyoning turli burchaklaridagi ekspert va mutaxassislar bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkoni; interaktiv muloqot – chat, ovoz berish, ekrandagi taqdimot funksiyalari orqali faol ishtirok etish; qayta ko‘rish imkoni – yozilgan materiallarni keyinchalik tahlil qilish; iqtisodiy samaradorlik – safar xarajatlarining qisqarishi.

Raqamli ta’limda sifat baholash mezonlari alohida ahamiyat kasb yetadi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, Quality Matters (QM), AACSB, ABET kabi xalqaro akkreditatsiya standartlari raqamli kontent sifatini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha imkoniyatlari cheksiz. Lekin eng muhimi – bu texnologiyalarni pedagogik maqsadlarga muvofiq, maqsadli va tizimli ravishda qo‘llash. Sifat ta’minlash tizimini raqamli muhit bilan integratsiya qilish, doimiy monitoring va baholash, o‘qituvchilar malakasini doimiy oshirib borish – bular barchasi birgalikda oliy ta’limning raqamli transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning kaliti hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli muhitning istiqbolli rivojlanishi uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, quyidagi strategik yo‘nalishlarni belgilash mumkin.



O‘zbekiston oliy ta’limida raqamli muhitni takomillashtirish uchun 2025-2030-yillar davridagi ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak. Birinchidan, “Raqamli kampus” konsepsiyasini joriy etish – barcha oliy ta’lim muassasalarida integralashgan raqamli ekotizimni yaratish. Buning uchun Wi-Fi 6 standartidagi simsiz aloqa tarmog‘i, 5G texnologiyasi, IoT (Internet of Things) qurilmalari, sun‘iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari joriy etilishi zarur.

Ikkinchidan, blokcheyn texnologiyasi asosidagi raqamli diplomlar va sertifikatlar tizimini yana rivojlantirish. Bu tizim hujjatlarning haqiqiylikini ta’minlaydi, xalqaro tan olinishini oshiradi va akademik mobillikni osonlashtiradi. Yevropa ittifoqida amalga oshirilayotgan European Student Card Initiative tajribasini o‘rganib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sun‘iy intellekt asosidagi personallashtirilgan o‘qitish tizimlarini joriy yetish. Adaptive Learning texnologiyasi orqali har bir talabaning individual o‘rganish tempi, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos o‘quv dasturlarini yaratish mumkin. MIT va Stenford universitetlaridagi tajriba ko‘rsatishicha, bunday tizimlar talabalarning bilim o‘zlashtirish darajasini 45% oshirishi mumkin.

Qo‘shma onlayn darslar (Joint Online Courses) konsepsiyasini rivojlantirish orqali talabalar bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq universitetdan dars olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun dars jadvallari sinxronizatsiyasi, kreditlarni o‘zaro tan olish tizimi va birlashtirilgan baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak.

Raqamli sertifikatlash dasturlari orqali talabalar xalqaro tan olingan kvalifikatsiyalarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. MIT MicroMasters, IBM Professional Certificates, Google Career Certificates kabi dasturlar O‘zbekiston talabalari uchun qulay sharoitlarda taqdim yetilishi mumkin. Buning uchun Coursera, edX platformalari bilan institutsional kelishuvlar imzolash zarur. Shu bilan birga, Ochiq ta’lim resurslari (Open Educational Resources - OER) bazasini kengaytirish zamon talabi hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish uchun tizimli, uzoq muddatli va xalqaro standartlarga asoslangan yondashuv talab etiladi.

Raqamli ta’lim muhiti orqali oliy ta’limda sifat va samaradorlikni oshirishning ahamiyati bugungi kunda shubhasizdir. Globallashtirish jarayonlari, raqabatning kuchayishi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida zamonaviy raqamli ta’lim muhitisiz yuqori sifatli ta’lim ta’minlash mumkin emas.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ta’siri ko‘p jihatlidir. Birinchidan, geografik cheklovlarning bartaraf etilishi orqali ta’limning qulayligi va teng imkoniyatlar yaratiladi. Ikkinchidan, personallashtirilgan o‘qitish orqali har bir talabaning individual potentsiali to‘liq ishga solinadi. Uchinchidan, interaktiv va multimedia vositalari orqali bilimni o‘zlashtirish samaradorligi oshiriladi. To‘rtinchidan, doimiy baholash va monitoring tizimlari orqali ta’lim sifati doimiy nazorat ostida tutiladi.

O‘zbekiston oliy ta’limi uchun raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyati undan iboratki, u nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki mamlakatning xalqaro ta’lim maydonidagi mavqegini mustahkamlaydi, innovatsion iqtisodiyot



uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydi va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Bates, A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2022.

Anderson, T., & Dron, J. "Three Generations of Distance Education Pedagogy." International Review of Research in Open and Distributed Learning, vol. 12, no. 3, 2011, pp. 80–97.

Siemens, G. "Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age." International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, vol. 2, no. 1, 2005, pp. 3–10.

Hodges, C., Moore, S., Lockee, B., Trust, T., & Bond, A. "The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning." Educause Review, 2020.

Martin, F., Sun, T., & Westine, C. "A Systematic Review of Research on Online Teaching and Learning." American Journal of Distance Education, vol. 34, no. 4, 2020, pp. 293–311.



ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ ПОНИМАНИЯ ЧЕЛОВЕКА КАК ОБЪЕКТА И СУБЪЕКТА ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Бурнашев Ринат Фаритович,

доцент кафедры «Гуманитарные науки и информационные технологии»,
Самаркандский государственный институт иностранных языков

E-mail: burnashev1982@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается философское осмысление человека как субъекта и объекта информационной безопасности в условиях цифровизации. Раскрывается двойственный статус личности, включённой в процессы информационного взаимодействия и одновременно подверженной манипуляции и контролю. Обосновывается необходимость междисциплинарного подхода для сохранения автономии, идентичности и целостности субъекта.

Ключевые слова: информационная безопасность личности, цифровизация, субъектность, объект информационного воздействия, инфосфера, алгоритмический контроль, философия информации, цифровая идентичность, медиаграмотность, социальная философия.

В условиях стремительной цифровизации современного общества проблема информационной безопасности приобретает статус одной из ключевых философско-гуманитарных и социально-технологических задач. Информационно-коммуникационные технологии становятся неотъемлемым элементом повседневного существования, преобразуя способы коммуникации, формы социального взаимодействия, механизмы идентичности и практики управления. Информационная среда перестаёт быть исключительно инструментальным пространством передачи данных и превращается в онтологически значимую реальность, в рамках которой формируются ценностные ориентации, нормы поведения и модели субъективности.

Актуальность исследования обусловлена тем, что современные угрозы информационной безопасности выходят за рамки технических сбоев и правовых нарушений, приобретая характер экзистенциальных и социокультурных вызовов. Человек оказывается включённым в цифровую среду не как внешний пользователь, а как элемент инфосферы, в которой формируются новые режимы субъектности, власти и контроля. Проблемное поле информационной безопасности личности определяется противоречием между расширением возможностей цифровой коммуникации и одновременным ростом форм манипуляции сознанием, алгоритмического наблюдения и утраты автономии.



Центральным элементом системы информационной безопасности выступает человек, который занимает в ней двойственное положение. С одной стороны, личность является активным субъектом информационных процессов, осуществляя производство, интерпретацию и распространение знаний, тем самым формируя цифровое социокультурное пространство. С другой стороны, именно человек становится уязвимым объектом цифровых воздействий, поскольку подвергается манипуляции, контролю, утрате приватности и трансформации идентичности. Данный дуализм требует философского анализа категорий «субъект» и «объект» в контексте новых цифровых реалий.

Научная новизна исследования состоит в том, что информационная безопасность личности рассматривается как философская и антропологическая категория, выходящая за пределы узкотехнического понимания. В работе раскрыт дуалистический статус человека в цифровой среде, выступающего одновременно субъектом информационного взаимодействия и объектом алгоритмического контроля. Показано, что современные угрозы затрагивают не только данные и инфраструктуры, но и основания субъектности – свободу, достоинство, приватность и целостность личности.

Информационная безопасность личности не может быть исчерпывающе раскрыта исключительно в рамках технических и правовых подходов. Она предполагает междисциплинарное осмысление, включающее социальную философию, этику, философию информации и философскую антропологию. В этом контексте информационная безопасность предстает как условие сохранения целостности субъекта в ситуации цифровой трансформации общества.

Постгуманистическая перспектива, представленная в работах Р. Брайдотти, позволяет рассматривать современного субъекта как гибридное и реляционное образование, формирующееся в сетевых и технологических структурах [1]. Следовательно, безопасность личности выступает не только как защита от угроз, но и как обеспечение устойчивости человеческого существования в постантропоцентрическом горизонте.

Значимый вклад в философское осмысление цифровой среды вносит концепция Л. Флориди, вводящего понятие «инфосферы», где человек выступает как «инфо-агент», чье бытие структурируется потоками данных [2]. В таком понимании субъект становится одновременно носителем информационной активности и объектом цифровой обработки, что фиксирует фундаментальную амбивалентность его положения.

Двойственный статус личности соотносится с психоаналитическим подходом Ж. Лакана, согласно которому субъект формируется через отношение к символическому порядку «Большого Другого» [3]. В цифровую эпоху таким «Другим» становятся алгоритмы, медиадискурсы и системы управления вниманием, задающие рамки идентичности и поведения.

Феноменологическая перспектива М. Мерло-Понти подчёркивает телесно-перцептивное измерение субъективности, рассматривая человека как



«телo-в-миpe», неразрывно связанное с опытом восприятия [4]. Однако цифровая медиатизация коммуникации трансформирует структуру присутствия человека в социальной реальности, что требует включения телесного аспекта в анализ информационной безопасности.

Особую значимость приобретает критическая теория власти М. Фуко, раскрывающая скрытые механизмы дисциплинарного контроля и биовласти [5]. В цифровом обществе постоянный мониторинг, сбор персональных данных и их алгоритмическая интерпретация становятся формой власти, ограничивающей свободу и автономию субъекта. В данном контексте информационная безопасность понимается как защита личности от практик цифрового надзора.

Как субъект информационной безопасности человек призван к ответственности за цифровые действия, к рефлексивному и осознанному участию в информационном взаимодействии. Здесь актуальны идеи Ю. Хабермаса о коммуникативной рациональности, предполагающей этически ориентированный дискурс и достижение взаимопонимания [6]. Развитие медиаграмотности, критического мышления и ценностных ориентиров становится условием субъектной устойчивости.

Одновременно личность является объектом информационных воздействий, среди которых выделяются манипуляция сознанием, цифровая зависимость и утрата приватности. М. Кастельс отмечает, что информационные потоки становятся структурообразующей основой власти в сетевом обществе [7]. Следовательно, информационные угрозы носят не только технический, но и антропологический характер.

Таким образом, информационная безопасность личности в цифровую эпоху должна быть концептуализирована как условие сохранения субъектной целостности в ситуации технологически опосредованного существования. Человек одновременно выступает активным участником информационных процессов и объектом скрытых практик контроля. Гармонизация данного дуализма возможна через развитие критического мышления, медиаграмотности, этической ответственности и институциональных механизмов, обеспечивающих баланс между свободой личности и требованиями безопасности. Такой подход способствует сохранению автономии и достоинства человека в условиях цифровой трансформации современного общества.

Литература

1. Брайдотти Р. Постчеловек. / Пер. с англ. Д. Хамис, под ред. В. Данилова. – Москва: Издательство Института Гайдара, 2021. – 408 с.
2. Хлебников Г. В. Философия информации Лучано Флориди // Теория и практика общественно-научной информации. – 2013. – №. 21. – С. 15-58.
3. Лезьер В. А. Идентичность в процессе реконструкции субъективности в дискурсе Жака Лакана // Манускрипт. – 2020. – Т. 13. – №. 12. – С. 224-229.
4. Вдовина И. С. Мерло-Понти: философия плоти и проблема социального // История философии. – 2008. – №. 13. – С. 49-68.



5. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы / Пер. с фр. В. Наумова под ред. И. Борисовой. – М.: Ad Marginem, 1999. – 480 с.
6. Васечко Е. Н. Юрген Хабермас и его теория коммуникативного действия //Философия права. – 2012. – №. 5 (54). – С. 75-78.
7. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
8. Бауман З. Текучая современность / пер. с англ. С. Г. Сапронова. – СПб: Питер, 2008. – 240 с.



IMMIGRANTLAR ADAPTATSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Xodjimetov Shaxrux Ruslanbekovich

Samarqand davlat chet tillar Instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda immigrantlar adaptatsiyasining ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini atroflicha tahlil qiladi. Global migratsiya jarayonlari fonida O'zbekistonning mintaqaviy va ichki migratsiya siyosati, immigratsiyaning jamiyatga ta'siri hamda kelgindi aholining yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi o'rganiladi. Maqolada adaptatsiya jarayonining madaniy, iqtisodiy, psixologik va institutsional jihatlari, shuningdek, jamiyatda ksenofobiya va tolerantlik kabi falsafiy masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Immigratsiya, adaptatsiya, integratsiya, sotsial falsafa, madaniyat, tolerantlik, ijtimoiy mexanizmlar.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ социально-философских механизмов адаптации иммигрантов в Узбекистане. На фоне глобальных миграционных процессов изучаются региональная и внутренняя миграционная политика Узбекистана, влияние иммиграции на общество и адаптация иммигрантского населения к новой социокультурной среде. В статье рассматриваются культурные, экономические, психологические и институциональные аспекты процесса адаптации, а также философские вопросы, такие как ксенофобия и толерантность в обществе.

Ключевые слова: Иммиграция, адаптация, интеграция, социальная философия, культура, толерантность, социальные механизмы.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the socio-philosophical mechanisms of immigrant adaptation in Uzbekistan. Against the background of global migration processes, the regional and internal migration policy of Uzbekistan, the impact of immigration on society, and the adaptation of the immigrant population to the new socio-cultural environment are studied. The article covers the cultural, economic, psychological, and institutional aspects of the adaptation process, as well as philosophical issues such as xenophobia and tolerance in society.

Keywords: Immigration, adaptation, integration, social philosophy, culture, tolerance, social mechanisms.

Globalizatsiya davrida xalqaro migratsiya dunyoning barcha mintaqalari uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hodisaga aylangan. Millionlab odamlar iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy beqarorlik, ta'lim yoki shaxsiy sabablar tufayli o'z vatanlarini tark etib, yangi davlatlarga ko'chib o'tmoqda. Bu jarayonlar qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham, immigrantlarning o'zlari uchun ham qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Immigrantlarning yangi jamiyatga moslashuvi -



adaptatsiyasi - bu jarayonning eng muhim qirralaridan biridir. Adaptatsiya nafaqat iqtisodiy bandlik va turar joy topishni, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va falsafiy dunyoqarashlarning o'zgarishi yoki ular bilan uyg'unlashishini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston, Markaziy Osiyoning markaziy davlati sifatida, o'zining tarixiy-madaniy xususiyatlari va geosiyosiy joylashuvi tufayli doimiy ravishda migratsiya jarayonlarining guvohi bo'lgan. Sovet Ittifoqi davrida respublikaga turli millat vakillari ko'chib kelgan bo'lsa, mustaqillik yillarida asosan ichki migratsiya va mehnat migratsiyasi (xorijga ketish) ustunlik qildi. Biroq so'nggi yillarda, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsion muhitning yaxshilanishi va geosiyosiy barqarorlik tufayli O'zbekistonga qaytuvchi mehnat migrantlari, xorijiy mutaxassislar va ayrim guruhlar uchun immigratsiya tendensiyalari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, qo'shni davlatlardan, shuningdek, yaqin va uzoq xorijdan kelayotgan ayrim toifadagi fuqarolarning O'zbekiston jamiyatiga moslashuvi dolzarb muammoga aylanmoqda.

Immigrantlar adaptatsiyasini tushunish va boshqarish O'zbekiston uchun bir qancha sabablarga ko'ra muhimdir:

1. Ijtimoiy barqarorlik: Adaptatsiya jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar ijtimoiy keskinliklar, ksenofobiya yoki izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

2. Iqtisodiy rivojlanish: Muvaffaqiyatli moslashgan immigrantlar jamiyatga iqtisodiy hissa qo'shib, ishchi kuchi bozorini boyitadi va tadbirkorlikni rivojlantiradi.

3. Madaniy boyluk: Immigrantlar o'z madaniyatlarini olib kelib, qabul qiluvchi jamiyatning madaniy xilma-xilligini oshiradi.

4. Inson huquqlari: Har bir insonning o'z qadr-qimmatini saqlab qolgan holda yashash va rivojlanish huquqini ta'minlash falsafiy nuqtai nazardan muhimdir.

Immigrantlarning boshqa etnikmadaniy muhitga moslashish muammosi ham nazariy, ham amaliy jihatdan eng murakkab muammolardan biridir. Bu ma'lum bir ketma-ketlikka ega bo'lgan uzoq jarayon. Bu o'z vatanidagi yangi mamlakat bilan tanishish va boshqasiga ko'chib o'tishni rejalashtirishdan boshlanadi. O'z vatanlarini tark etib, stressni boshdan kechirayotgan immigrantlar yangi mamlakatdagi harakat va kerakli yordam va yordam kutishlarini noto'g'ri tushunishadi. Ijtimoiy-madaniy moslashuvning dastlabki bosqichlarida, turli tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, immigrantlar madaniy shokni boshdan kechiradilar. Dastlab, yangi madaniyatga munosabat ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi (marginalizatsiya, anomiya, deviatsiya va boshqalar). Biroq, bu ijobiy natijaga ham ega bo'lishi mumkin: immigrantning o'zini o'zi rivojlantirish uchun yangi qadriyatlar va xatti-harakatlar namunalarini qabul qilishi. Yangi muhitida immigrant boshqa tilida muloqot qilishi, boshqa turmush tarziga moslashishi, o'z qadriyatlari va o'zini identifikatsiyalashini o'zgartirishi, mahalliy aholi bilan muloqotda yuzaga keladigan muammolarni tushunishga harakat qilishi va qarindoshlarining yo'qligiga moslashishi kerak. Boshqalarning urf-odatlar va xatti-harakatlari muhojirlar uchun tushunarsizdir. Yangi mamlakat yoki shaharning me'yorlari va qadriyatlar bilan tanishish, musiqa, san'at, arxitektura va muzeylar orqali yangi madaniyatni o'rganish



- bularning barchasi immigrantning moslashish davrini tezlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxslararo muloqotning kuchayishi atrof-muhitga nisbatan salbiy tasavvurlarning kuchayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonida etnik guruhlarini bir-biriga yaqinlashtiradigan qanday sharoitlar va madaniyatlararo muloqot muammosini nima dolzarblashtirishini tushunish muhimdir. Madaniy zarba davri odatda immigrantlarni boshqa xalqlarning xulq-atvor madaniyati va an'alarini, shuningdek, turli etnik guruhlarining axloqiy va ma'naviy tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Rossiya ko'p millatli mamlakatdir, shuning uchun odamlarning turli madaniyatlarni chuqurroq tushunishi millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantiradi, nizolar va to'qnashuvlarning oldini oladi va milliy madaniyatlarning o'zaro boyishiga yordam beradi.

Ta'kidlash kerakki bugungi kunda migratsiya jarayonlari umuminsoniy xarakter kasb etib, jamiyatning ijtimoiy tarkibi va madaniy qiyofasini o'zgartiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Adaptatsiya tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan shunchaki yangi sharoitga ko'nikish emas, balki shaxsning o'z dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy statusini qayta shakllantirish jarayonidir.

Immigrantlar adaptatsiyasining fundamental falsafiy asosi «Men va O'zga» konsepsiyasiga borib taqaladi. Immigrant yangi jamiyatga qadam qo'yganda, u nafaqat iqtisodiy subyekt, balki boshqa bir madaniyatning tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Begonalashuv: Gegel va Marks falsafasiga ko'ra, immigrant o'zining avvalgi ijtimoiy muhitidan uzilgani sababli "begonalashuv" holatini boshdan kechiradi.

Ontologik xavfsizlik: Immigrant uchun yangi muhitda o'z borligini (ontologik maqomini) tasdiqlash muhim vazifaga aylanadi.

Ijtimoiy falsafada immigrantlarning jamiyatga kirishib ketishining bir necha modellari mavjud: Immigrantning o'z milliy-madaniy o'zligidan voz kechib, dominant madaniyat ichida erib ketishi. Turli madaniyatlarning bir makonda o'z xususiyatlarini saqlagan holda parallel yashashi. Ikki tomonlama jarayon bo'lib, bunda ham immigrant, ham qabul qiluvchi jamiyat o'zaro moslashadi.

Adaptatsiya samaradorligini shartli ravishda quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$S_a = C_p + E_s + L_k / T_d$$

Bunda:

- S_a — adaptatsiya darajasi (Social adaptation);
- C_p — madaniy moslashuvchanlik (Cultural plasticity);
- E_s — iqtisodiy barqarorlik (Economic stability);
- L_k — til bilish darajasi (Language knowledge);
- T_d — vaqt davomiyligi (Time duration).

Ushbu formula shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan madaniy va iqtisodiy omillarning ijobiy o'sishi umumiy adaptatsiya darajasini belgilaydi.

O'zbekistonning boy bag'rikenglik an'analari immigrantlar uchun ijtimoiy-psixologik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Mahalla instituti bu jarayonda o'ziga xos ijtimoiy filtr vazifasini o'taydi. Immigrantning mahalla tizimiga



integratsiyalashuvi uning nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham qabul qilinishini anglatadi.

Xulosa. Immigrantlar adaptatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon shaxsning o'zligini yo'qotishi emas, balki yangi ijtimoiy reallikda o'zini qayta kashf etishidir. Muvaffaqiyatli adaptatsiya mexanizmi "inklyuziv jamiyat" barpo etishning asosiy sharti hisoblanadi. Jamiyat immigrantni "begona" sifatida emas, balki ijtimoiy boylukning yangi manbai sifatida qabul qilishi taraqqiyotning muhim falsafiy tamoyilidir.

Adabiyotlar:

1. Berry, J. W. (1997). "Immigration, Acculturation, and Adaptation". Applied Psychology.
2. Castles, S., Miller, M. J. (2009). "The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World".
3. Habermas, J. (1998). "The Inclusion of the Other: Studies in Political Theory".
4. Kholikov Y. O. The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – С. 63-68.



ТИББИЙ МАВЗУЛАРНИ ЁРИТИШДА ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ
ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Оққўзиева Махсума Зафаровна,
Ўзбекистон журналистика ва оммавий
коммуникациялар университети
мустақил тадқиқотчиси.
maxsumazafarovna@bk.ru

АННОТАЦИЯ. Ушбу мақолада тиббий атамалардан фойдаланишнинг ўзига хосликлари, қўллаш усуллари ва эвфемизмлардан фойдаланиш зарурияти таҳлилга тортилган. Шу билан бирга, сўз қўллаш билан боғлиқ ҳолатларб уларнинг таъсир доираси мисоллар билан асослантирилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: эвфемизмлар, тиббий терминология, эвфемия ходисаси, табулар, тил семантикаси.

Таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳар бир тақдим этилаётган ахборот сўздан ташкил топади. Шубҳасиз, сўзни қандай қўллаш орқали журналистнинг маҳорати намоён бўлади. Бу борада журналистларга мураккаб тиббий атамаларни содда, тушунарли тилда тақдим этишга эвфемизмлар ёрдам беради.

А.Мадвалиев таҳрири остида чоп этилган “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ушбу сўз куйидагича ифодаланади: “**Эвфемизм**” юнонча “euphemismos” сўздан олинган бўлиб (“eu” – яхши, “phemi” – гапираман), бирор сабабга кўра қўлланилиши тақиқланган ёки қўлланиши ноқулай бўлган кўпол, дағал сўз, ибора ўрнига бошқа юмшоқроқ сўз ёки ибора қўллаш деган маъноларни англатади. [1]

Эвфемизмлар тилшуносликда кенг тадқиқ этилган. Вазифасига кўра, эвфемизмлар салбий воқеа-ходисаларни баён қилишдан қочиш ёки унинг салбий таъсирини юмшатишга ёрдам беради. Масалан, *туберкулёз ўрнида сил, тугмоқ ўрнида кўзи ёримоқ, бедаво ўрнида даволаш мураккаб бўлган, ўсма ўрнида саратон, жинсий аъзолар саломатлиги ўрнида репродуктив саломатлик* ибораларидан фойдаланиш фикримизнинг далилидир.

Мана шундай қўлланилиши ноқулайлик туғдирган сўзлар ўрнида уларнинг мазмунини очиб беришда қулай бўлган бирликлардан фойдаланиш **эвфемия ходисасидир**. Тиббиётда эвфемизмлардан кенг фойдаланилишининг сабаби қадим замонлардан бери касаллик ва ўлим ҳолатларини очиқ-ойдин айтмаслик, уларни маълум маънода юмшатиб талқин қилиш анъана бўлган. Бундан ташқари, тиббиётда инсон физиологияси ва турли касалликларнинг номларини қўллаш ва тушуниш билан боғлиқ ноқулайликларнинг олдини олиш учун ҳам баъзи сўзлар эвфемизмлаштирилган. Масалан, *бачадон шиллиқ қаватининг яллиғланиши ўрнига эндометрит, без ва бурун-ҳалқум*



муртагининг ортиқча ўсиб кетиши ўрнида аденоидлар, бош ва орқа мия пардасининг яллиғланиши ўрнида менингит ва ҳоказо. [2]

Эвфемизмларни қўллашдан мақсад ўқувчини кўрқитиш ва зарба бериш эмас. Тилшунос Лаура Торресиаснинг фикрича, [3] мулоқотда “даволаш имкони мавжуд эмас”, “саратон”, “ўлим” каби жумлаларни ишлатмаслик керак. Чунки улар беморнинг кейинги тинглаш ва тушуниш қобилиятига халақит беради.

Эвфемизмларни қўллаш усули ва воситалари турлича. Бу нутқ сўзловчининг мақсади, сўздан қандай фойдаланаётганлигига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Шунга кўра, уни бир нечта турларга бўлиш мумкин.

1. **Кўрқинчли ахборотни “яшириш”.** Тиббий мавзуларни ёритаётганда хавfli касалликларнинг эвфемик талқини ўрнида лотинча номларидан фойдаланиш ҳодисаси ҳам учраб туради. Мисол учун “Шифо-инфо” газетасининг 2024 йил 2 майдаги сонидан куйидаги маълумотни учратиш мумкин: *“Агар ширин маҳсулотларни кўп миқдорда истеъмол қилсангиз, мутацияга учраган ҳужайралар ривожланиши учун идеал муҳитни яратган бўласиз.”* Бу ерда *саратон касаллигининг ривожланиши* ибораси ўрнига *мутацияга учраган ҳужайралар ривожланиши* эвфемизми қўлланган.
2. **Ўлим мавзуси.** Албатта, бу ҳодиса инсон характеристикасига тўғридан тўғри таъсир кўрсатади. Шу сабабли ўз жонига қасд қилиш, қотиллик, бахтсиз ҳодисалар имкон қадар табулаштирилади. “Газета.уз” электрон сайтида мавзуга ёндашишда худди шунга амал қилинган. “Йўл-транспорт ҳодисаси натижасида она-бола ҳаётдан кўз юмди”. “Ўлим” сўзи энг кўп синонимга эга бўлиб, унинг салбий ва ижобий вариантлари ҳам мавжуд.
3. **Давоси йўқ касалликлар.** Яна бир энг кўп эвфемизм қўллашни талаб этадиган ҳолатлардан бири охири ўлим билан тугайдиган касалликлар ҳақида шу дард билан оғриган беморларга руҳий зўриқиш юкламайдиган тарзда ахборот беришдир. Ушбу мавзунинг ёритишда доим ҳам сўзнинг эмоционал босим ўтказишига алоҳида эътибор қаратилмайди.
4. **Бемор ҳолатини ифодалаш.** Умуман олганда, бу ҳолатда ҳам масалага жиддий тус беришга ҳаракат қилган журналист бўрттириш, батафсил баён қилиш, ўқувчи томонидан “қабул қилиниши қийин бўлган” терминлардан фойдаланишга ҳаракат қилади. Яъни, ҳиссий бўёқдорликни оширишга интилади. **Хавfli ёки айтилиши уятли бўлган касалликларни ифодалаш.** Аслида эвфемизм ҳодисаси ҳам айнан ана шу ҳолатларни ифодалаш мақсадида юзага келган. “Шифо-инфо” газетасининг 2024 йил 25 апрел сонидан “Альцгеймер касаллигининг дастлабки 9 белгиси” номли мақола эълон қилинган. Унда касалликка куйидагича таъриф берилган: “Альцгеймер касаллиги *кексалик деменциясининг* энг кенг тарқалган тури ҳисобланади”. Ушбу жумладаги деменция сўзи ақлий заифлик маъносини англатади. Агар матнда ақлий заифлик жумласи қўлланилганда эди, шу касаллик билан



оғриган бемор ва унинг яқинларига нисбатан стигма вазифасини ўтаб қолар эди. Эвфемизм қўлланилиши натижасида унинг бўёқдорлиги ёки бўлмаса, салбий таъсир кучини камайтиришга эришилган.

5. Инсоннинг жинсга хос тана аъзоларини ифодалаш. Бу, айниқса, Шарқ мамлакатлари оммавий ахборот воситаларида энг кўп табулаштирилган ва эвфемизм ҳолида қўлланган атамалардир. Мисол учун, *жинсий оғирликни* беморга нисбатан тўғридан тўғри қўллаш жуда кам учрайди. Бу жумланинг ўрнида оммавий ахборот воситаларида *импотенция, мижоз сустлиги* каби талқин қилинади. Аёллар жинсий аъзолари касалликлари ҳам репродуктив саломатлик ёки аёллар касалликлари деб юритилади.

Тиббиёт ихтисосликларининг номланиши ҳам маълум бир эвфемизм ходисасини такрорлайди. Мисол учун: **эпилепсия** (*тутқаноқ, қуёнчиқ*), **ампутация** (*бирор аъзони қисман ёки тўлиқ кесиб олиш*), **проктолог** (*йўгон ичак ва ректал муаммоларга ихтисослашган мутахассис*), **руҳшунос** (*руҳий касалликлар шифокори*), **гинеколог** (*аёллар касалликлари бўйича мутахассис*), **уролог** (*эркаклар касалликлари бўйича мутахассис*) ва ҳоказо.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тиббий материаллар тайёрлаш жараёнида эвфемизмлардан кенг фойдаланиш жиддий, айтилиши кўпол бўлган, шунингдек, салбий бўёқдорликка эга бўлган сўзларнинг маъносини юмшатишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент – 2009. 17-бет.
2. Ўлжабоева Н. Халқ таъбири хазинасидан жавохирлар. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2009. – 5-бет.
3. Torrecillas L. 2006. Communication of the Cancer Diagnosis to Mexican Patients. Attitudes of Physicians and Patients. Annals of the New York Academy of Sciences, volume 809, issue 1. – pp. 188-196



PUBLITSISTIKADA MUALLIF POZITSIYASINING O'RNI

Fayzullayeva Zulfiya Sayidovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti Inson huquqlari va
MEDIA kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada publitsistikada muallif pozitsiyasining o'rni jurnalist, publitsist S.Umirovning ko'p qirrali ijodiy faoliyati misolida uning 700 ga yaqin maqola, ocherk, taqrizlari tahlili orqali ilmiy jihatdan o'rganilib, unga baho berilgan. Shuningdek, maqolada muallif obrazi haqida, uning ijodkor dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi, tafakkur tarzi kabi omillarga daxldor ekanligi, muallif obrazining o'ta murakkabligi haqida real misollarga asoalanib fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: muallif pozitsiyasi, muallif obrazi, jurnalistika nazariyasi, implitsit, eksplisit, mediamatn, intervyu, retsipient, intuitsiya.

THE ROLE OF AUTHOR'S POSITION IN PUBLICISM

Zulfiya S. Fayzullaeva,

University of journalism and mass communications
of Uzbekistan Senior Teacher of the Department
of Human Rights and Mass Media

Abstract: In this article, the role of the author's position in publicism was scientifically studied and evaluated through the analysis of nearly 700 articles, essays, and reviews of journalist and publicist S. Umirov's multifaceted creative activities. Also, the article examines the author's image, its involvement in such factors as creative worldview, socio-political position, way of thinking, and the extreme complexity of the author's image based on real examples.

Key words: author's position, author's image, journalism theory, implicit, explicit, media text, interview, recipient, intuition.

РОЛЬ АВТОРСКОЙ ПОЗИЦИИ В ПУБЛИЦИСТИКЕ

Файзуллаева Зульфия Саидовна,

Университет журналистики и массовых коммуникаций
Узбекистана Старший преподаватель кафедры
Права человека и МЕДИА

Аннотация: В данной статье научно изучена и оценена роль авторской позиции в публицистике на примере многогранной творческой деятельности



журналиста и публициста С. Умирова путем анализа почти 700 его статей, очерков и рецензий. Также в статье на основе реальных примеров рассматривается образ автора, его причастность к таким факторам, как творческое мировоззрение, общественно-политическая позиция, образ мышления, чрезвычайная сложность образа автора.

Ключевые слова: авторская позиция, образ автора, теория журналистики, имплицит, эксплицит, медиатекст, интервью, реципиент, интуиция.

Muallif pozitsiyasi tushunchasi ta’rifining o’zi va uning publitsistik matnda mavjudligini aniqlash bir xil va oson narsa emas. Muallif pozitsiyasi murakkab tuzilma bo’lib, butun publitsistik faoliyat jarayonida shaxsning o’rni va ishtiroki bilan uzviy bog’liq holda publitsistik asarning tuzilishi va tarkibiga jiddiy ta’sir ko’rsatuvchi unsur sifatida namoyon bo’ladi. U o’z pozitsiyasiga ega bo’lgan jurnalistga har bir asarni, har bir jurnalistik materialni yaratishga taalluqli bo’lgan o’ziga xos vazifalarni yuklaydi.

Badiiy asarda muallif pozitsiyasi yozuvchining asl shaxsiyati bilan doim ham mos kelavermaydi, jurnalist asarida esa muallif – real shaxs va muallif – hikoyanavis doim bir-biriga mos keladi. Shu tariqa, bu yerda real shaxs, jurnalist shaxsi haqida gap ketadi.

Muallif pozitsiyasi jurnalistika nazariyasida ilmiy jihatdan asoslangan bo’lib, unda bu tushuncha asosan ro’y bergan voqelikni baholashni nazarda tutuvchi mezon sifatida qaraladi. Bunda real voqea-hodisalarni aks ettirish va tahlil qilishda kerakli manbalar bilan birga ushbu holatning asl mohiyatini yashirin yoki ochiq konseptual obrasiz tasvirlab bo’lmaydi. Bu obrazlar adabiyotda muallif real qahramonning badiiy tafakkurida jonlantirgan obrazi, badiiy tasavvurlari orqali ifodalansa, publitsistikada real qahramonning ijtimoiy hayotdagi real ishtiroki va unga muallifning yondashuvi orqali yoritiladi. Shuning uchun ham o’zbek milliy publitsistikasining shakllanishida adabiyotning o’rni beqiyos. Ayniqsa, muallif pozitsiyasi tushunchasi adabiyot orqali publitsistikaga va undan keyin boshqa media materiallarga kirib kelganligini inkor etib bo’lmaydi. Shuningdek, muallif pozitsiyasini media materiallar asosida tadqiq etishda ham adabiyot o’zanlaridan uzoqlashib yoki alohida mustaqil tushuncha sifatida yondashib bo’lmaydi. Uning tarixiy aspektlarini o’rganishda badiiy publitsistika adabiyot tarkibida bo’lganligi bois, uni milliy adabiy jarayonlarning teng huquqli ishtirokchilaridan biri sifatida o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy publitsistika uchun materialni taqdim etish shaklida xilma-xillikka intilish, quruq ma’lumotlarni sanashdan qochish tendensiyasi xos bo’lib, bu uslubiyatda o’tkirlik, nutqda keskin o’zgarishlar qilish imkonini beradi. Biroq o’tgan asrning 70–90-yillaridayoq arxiv ma’lumotlari jurnalistika materiallarida implitsit – (ochiq bayon qilinmagan, bevosita emas, ishora orqali yoritish ko’zda tutilgan [1]) shakllar ustuvor bo’lganini isbotlaydi. Bu nafaqat mazkur janrning ichki evolyutsiyasi, balki retsiyent va publitsist muloqotining tegishli turi bilan ham izohlanadi. Muallifning reportajlarda hozir bo’lishi, uning faollik darajasi, voqea-hodisalarda ishtirok etishi (uning “roli”) tarixiy kategoriya hisoblanadi. Bu



fakt ham ijtimoiy sabablar, ham matnning uslubiy me'yorlari o'zgaruvchanligi bilan bog'liq.

E'tiborli jihati shundaki, o'tgan o'n yilliklar davomida publitsistik matn muallifi aksariyat hollarda bor-yo'g'i xolis hikoyanavis hisoblanardi, hozirgi zamon mediamatnida esa muallif obrazi shaxsiy jurnalistik uslubning barcha asosiy xususiyatlari bilan muvofiqlashadi.

Agar sobiq ittifoq davrida publitsistik matnda muallif asosan xolis hikoyachi bo'lgan bo'lsa, zamonaviy jurnalistika nuqtayi nazaridan, mediakontentda muallif pozitsiyasi, shaxs individualligi yanada yaqqol ko'zga tashlanib, o'zi taqdim etayotgan jurnalistik materialning darajasi, saviyasini belgilab beryapti. Bu turli media materiallarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, axborot materiallarida muallifning tezkorligi, hozirjavoblighi muhim ahamiyatga ega bo'lsa, tahliliy matnlarda voqelikning sabab-oqibatlarini aniqlashda muallif salohiyati, dunyoqarashi, tahlil-tadqiq qilish qobiliyati (eruditsiyasi)ning o'rni alohidadir. Intervyu jarayonida muallif va retsiyent o'rtasida matn orqali o'ziga xos muloqot yaratiladiki, uning konstruktiv belgilaridan biri muallif obrazida namoyon bo'ladi. Mana shu o'zgarishlarni inobatga olgan holda, publitsistik asarlarda muallif pozitsiyasi, uning voqelikka, ko'tarilgan masalaga nisbatan munosabati, yondashuvi masalasini ko'rib chiqib, tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Buning uchun, bizningcha, dastavval "muallif obrazi" tushunchasi va uning muallif pozitsiyasini ifoda etishdagi ishtirokini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Muallif obrazi atamasi adabiyotshunoslikda akademik V.V. Vinogradov ishlarida ko'zga tashlanadi. Olim bu tushunchani badiiy asarlar tahlilida yetakchi kategoriya sifatida mufassal o'rganib chiqadi. Shu bilan birga, bu atama filologiya sohasida va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Rus akademigi V.V. Vinogradov fikricha, muallif obrazi – o'ziga xos badiiy-nutq dunyosi markazi bo'lib, unda muallifning yaratilgan matnga estetik munosabati aks etadi [2]. Shu ma'noda, muallif obrazi – bu muallif o'zi haqida aytmochi bo'lgani emas, balki uning ijodi orqali muallif haqida tasavvurga ega bo'lish demakdir.

Bu fikrning falsafiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratgan taniqli filolog M.M. Baxtinning ta'kidlashicha, o'zi yaratgan asarda muallif dunyo tegrasida faol yaratuvchi sifatida mavjud bo'lishi lozim, aks holda muallifning ushbu dunyoga kirishi uning estetik barqarorligiga raxna solishi mumkin [3]. Yana bir rus olimi Ye.P. Pochkay muallifning badiiy va publitsistik obrazi tushunchalarini bir-biridan farqlagan holda badiiy adabiyotda muallif ham badiiy matn tuzilmasidan, ham u aks ettirgan dunyodan tashqarida tasvirlanishini ta'kidlaydi. Eksplitsit (ya'ni aniq va batafsil bayon etilgan, chalkashlik va shubhaga o'rin yo'q [4] – Z.F.) va implitsit (ochiq bayon qilinmagan, bevosita emas, ishora orqali yoritish ko'zda tutilgan [5] – Z.F.) jihatdan qayta tiklangan muallif obrazi doim shartli bo'ladi va shu bois real muallif bilan tenglashtirilmaydi [6].

Aynan shu bilan tadqiqotchi muallifning mazmunli, o'zini-o'zi rivojlantirishga qodir bo'lgan boshqa reallikni yaratishga ichki intilishini ta'kidlaydi. Bunda qurilish materiali sifatida muallifning tiliga asosiy e'tibor qaratiladiki, undan



foydalanib muallif, o‘zining ichki vazifalariga muvofiq, bir qadar yangi mazmunni yaratadi.

Muallif obrazini ko‘rib chiqishda tadqiqotchi V.A. Kuxarenko, jumladan, asarning asosiy g‘oyasi muallifning baholashlari orqali amalga oshirilishi, ular muallif tomonidan qahramonning harakatlarini, fikrlarini, nutqini baholashda bevosita bildirilishi yoki matnda mavjud bo‘lsa-da, aniq ifoda etilmasligi mumkinligiga urg‘u beradi [7]. Muallifning ushbu emotsional-baholash pozitsiyalarini bayon etishning birinchi usuli eksplitsit, ikkinchisi esa implitsit deb nomlanadi. Ayni vaqtda, har bir matnda har ikki bayon uslubi mavjud bo‘lib, muallifning turli asarlarida ko‘rsatilgan usullardan biri ustuvor ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi M.I. Starush publitsistikada muallif “men”ining oltita variantini ajratib, ularning o‘ziga xosligi ma’lum janrlarda qo‘llanilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, uni reportaj “men”i, sayohat ocherklarida muallif obrazi, esse “men”i, feletonlarda qo‘llaniladigan muallif obrazi, epistolyar “men”i, dialogik “men” [8] kabi turlarga bo‘ladi.

Muallif obrazi haqida, uning ijodkor dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi, tafakkur tarzi kabi omillarga daxldor ekanligi, muallif obrazining o‘ta murakkabligi haqida o‘zbek adabiyotshunoslari, publitsistlari ham fikr bildirganlar.

Taniqli yozuvchi, publitsist va muharrir Asqad Muxtor muallif obrazi haqida shunday deydi: “Adabiyot jarayoni uzluksiz; qancha yozuvchi bo‘lsa, shuncha usul; hayot murakkabliklarining mag‘zini hamma o‘zicha izlaydi, hamma o‘z yuragida qaynatadi, o‘z ilhomini, o‘z ehtirosini taqdim etadi. Ozgina so‘z aytish uchun u juda ko‘p bilishi, juda ko‘p ko‘rishi, voqealarni, biografiyalarni, faktlarni, hislarni, o‘ylarni, psixologiyani bilishi kerak... Aminmanki, har qanday badiiy asarda hamma narsani birlashtiruvchi, butun asarga rang beruvchi – “muallif obrazi”dir. Belinskiy ham “Yevgeniy Onegin” haqida gapirib, romanda badiiy markaz muallif obrazidir, degan edi. Asarning saviyasi muallif saviyasidan oshiq bo‘lmaydi. Muallifning zavqi, bilimi, xulqi, qalbi, qarashlari, tajribasi – asarga muhr bo‘lib bosiladi” [9].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Словарь русского языка. – Москва, 1992. – С. 559.
2. Виноградов В. В. О теории художественной речи / акад. В. В. Виноградов; [послесл. ак. Д.С. Лихачева]. – М.: Высшая школа, 1971. – 239 с. – С. 18.
3. Прохоров В.В. Автор // Введение в литературоведение. Литературное произведение: Основные понятия и термины: Учеб. пособие / Л.В. Чернец, В.Е. Хализев, С.Н. Бройтман и др. / Под. ред. Л.В. Чернец. – М.: Высш. шк.: Академия, 1999. – 556 с. – С. 47.
4. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/explicit>



5. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Словарь русского языка. – Москва, 1992. – С. 559.
6. Почкай Е.П. Языковое выражение образа автора в публицистике // Журналист. Пресса. Аудитория: Межвуз. сборник. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1986. – Вып. 3. – С. 118–127.
7. Кухаренко В.А. Интерпретация текста: Учеб. пособие. – Второе изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988. – 192 с. – С. 36.
8. Старуш М. Авторское “я” в публицистическом произведении. Дисс... канд. фил. наук. – М.: 1985. – 204 с.
9. Асқад Мухтор. Ёш дўстларимга. – Тошкент: Ёш гвардия, 1971. – Б. 78. (Адибнинг “Ёш дўстларимга” китоби асосида тайёрланди. “Ёшлик” журнали, 2015 йил, 12-сон.)



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

KLINIK LINGVISTIKADA MULTIMODAL YONDASHUV: NUTQ
FAOLIYATINI BAHOLASH

Хо‘jamberdiyeva Xilolaxon Shuhratbek qizi
Andijon davlat chet tillari institute PhD doktoranti
khilola.kh@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu dissertatsiya klinik lingvistikada noverbal muloqotning ahamiyatini va multimodal yondashuvlarni o'rganadi. Tadqiqot verbal, yozma va noverbal kommunikatsiyani birlashtirib, afaziya, disartriya va autizm spektridagi buzilishlar kabi lingvistik kasalliklarni diagnostika qilishda o'zaro bog'liq belgilarni tahlil qiladi. fMRI va EEG kabi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali, bu tadqiqot tibbiy diagnostikada lingvistik va ekstralingvistik belgilarning o'zaro ta'sirini to'g'ri anglash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida noverbal belgilarni tahlil qilishda madaniyatlararo farqlarni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit soʻzlar: klinik lingvistika, multimodal yondashuv, noverbal muloqot, lingvistik buzilishlar, afaziya, disartriya, autizm spektri buzilishlari, fMRI, EEG, madaniyatlararo farqlar, pragmatika, semantik tahlil, diagnostika usullari, madaniy kontekst.

Аннотация: Данный тезис рассматривает роль клинической лингвистики в контексте многомодального подхода к расстройствам коммуникации. В работе акцентируется внимание на интеграции вербальной, письменной и невербальной коммуникации при диагностике лингвистических расстройств, таких как афазия, дисартрия и расстройства аутистического спектра. С использованием технологий, таких как fMRI и ЭЭГ, исследование подчеркивает важность понимания взаимодействия лингвистических и экстралингвистических признаков для точной диагностики. Исследование также отражает культурные различия в интерпретации невербальных сигналов между носителями английского и узбекского языков, предлагая учитывать эти различия в клинической практике для предотвращения ошибочных диагнозов.

Ключевые слова: клиническая лингвистика, многомодальный подход, невербальная коммуникация, лингвистические расстройства, афазия, дисартерия, расстройства аутистического спектра, fMRI, ЭЭГ, культурные различия, прагматика, семантический анализ, методы диагностики, культурный контекст.

Klinik lingvistikada multimodal yondashuv – bu bemor kommunikatsiyasini kompleks, ya'ni og'zaki, yozma va noverbal shakllarda tahlil qilishni anglatadi. Bunday tahlil usuli bemorning nutq faoliyatini har tomonlama baholash, lingvistik va ekstralingvistik belgilar orqali aniq diagnostika qilish imkonini beradi.



Zamonaviy klinik lingvistika amaliyotida diagnostika jarayonini mukammal yuritish uchun lingvistik testlar bilan bir qatorda neyropsixologik va texnologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, fMRI (Functional Magnetic Resonance Imaging) va EEG (Electroencephalography) texnologiyalari nutq jarayonida miya faoliyatining aniq lokallashtirilgan shaklini ko'rsatadi¹. Bu usullar nutqning sintaktik va semantik jarayonlar bilan bog'liq hududlarini aniqlashda foydalaniladi.

Misol uchun, afaziya bilan og'rikan bemorlarning fMRI skaner natijalari nutq ishlab chiqarish (Broca zonasida) va tushunish (Wernicke zonasida) faoliyatida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatgan. Ushbu ko'rsatkichlar klinik lingvistika metodologiyasida zamonaviy neyrofiziologik asos bo'lib xizmat qiladi². Shuningdek, bemorlarning EEG chiziqlaridagi alfavolna va betavolna tebranishlari emotsional reaksiya va nutq darajasidagi stress belgilarini ko'rsatadi.

Shaxsiy tahliliga ko'ra, O'zbekistonda hozircha bu kabi texnologik imkoniyatlar cheklangan bo'lsa-da, oddiy lingvistik testlar yordamida (masalan, so'z topish, hikoya yaratish, metafora tushuntirish) ham klinik taxminlarga boyitilgan diagnostika olib borish mumkin. Bunda bemorning mimikasi, pauza davomiyligi, talaffuzda qiynalish darajasi, semantik chalg'ishlar kabi noverbal belgilar asosiy e'tiborda bo'lishi lozim.

Klinik lingvistika bo'yicha Germaniya, Kanada va Yaponiya tajribasida multimodal yondashuv asosiy vosita sifatida qaraladi. Ya'ni, bemorning yozma, og'zaki va noverbal kommunikatsiyasi birgalikda baholanadi. Quyidagi jadvalda ushbu multimodal baholash mezonlari qisqacha ko'rinishda aks ettirilgan:

Komponent	Baholash usuli	Natijaviy tahlil elementi
Og'zaki nutq	So'z birikmalari, intonatsiya	Sintaktik tuzilma, grammatik xatolik
Yozma ifoda	Matn tuzish topshiriqlari	Mantiqiy izchillik, leksik boylik
Noverbal muloqot	Mimika, tana harakati	Emotsional ahvol, stress darajasi

1-jadval

Klinik lingvistikada diagnostika usullari til buzilishlarini aniqlash va baholashda muhim vosita hisoblanadi. Bu usullar bemorning nutq faoliyati, tushunish qobiliyati, emotsional ifoda va yozma kompetensiyasini aniqlashga qaratilgan. An'anaviy testlar bilan birga zamonaviy diagnostik metodlar ham keng qo'llanilmoqda.

Nutqni baholovchi testlar ichida naming test (so'z topish), fonematik diskriminatsiya, hikoya yaratish va metafora tushuntirish kabi topshiriqlar mavjud.

¹ Friederici, A. D. (2011). The brain basis of language processing: from structure to function. "Physiological Reviews".

² Price, C. J. (2012). A review and synthesis of the first 20 years of PET and fMRI studies of heard speech, spoken language and reading. Neuroimage.



Ushbu testlar orqali bemorning semantik va sintaktik tahlil qobiliyati, leksik zahirasi va grammatika tuzilmasini anglash darajasi aniqlanadi³.

Shuningdek, yozma testlar ham muhim rol o'ynaydi. Bemordan matn yozish, eslatma yaratish, jumla to'ldirish kabi topshiriqlar talab qilinadi. Bu orqali disleksiya, disgrafiya yoki boshqa yozma til muammolari aniqlanadi. Amaliy kuzatuvlarimga asoslanib aytish mumkinki, ushbu topshiriqlar noverbal reaksiya bilan ham muvofiq baholanishi zarur. Masalan, pauza, bosh chayqash, mimika, qo'l harakati bular ham diagnostik element sifatida hisobga olinadi.

Zamonaviy klinik lingvistika EEG va fMRI tahlillari yordamida nutqning neyropsixologik asoslarini o'rganadi. Ayniqsa, afaziya, alaliya va disartriya bilan og'rikan bemorlar uchun ushbu metodlar natijalari aniq klinik taxmin berishga imkon beradi⁴.

Praktik amaliyotda multimodal diagnostika keng qo'llaniladi. Bu usulda bemorning og'zaki, yozma va noverbal (mimika, tana harakati, intonatsiya) signallari birgalikda baholanadi. Bu esa lingvistik analizga ko'proq chuqurlik bag'ishlaydi va reabilitatsiya jarayonini individual yondashuvga asoslash imkonini beradi.

Klinik lingvistika doirasida nutq buzilishlarini tasniflash muhim metodologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu tasnif bemorning tilga oid muammolarining qaysi darajada va qaysi darajadagi lingvistik tizimlarga ta'sir etayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Lingvistik jihatdan bu buzilishlar fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik va semantik sathlarga ajratiladi⁵.

Fonetik va fonologik buzilishlar asosan tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi, artikulyatsiya muammolari, fonemalarni almashtirish yoki tushirib qoldirish holatlarida kuzatiladi. Bu holatlar ko'pincha dislaliya, disartriya va rinolaliya bilan bog'liq bo'ladi⁶.

Morfologik buzilishlar esa so'z yasalishi, affikslar, fe'l zamonlari va egalik shakllarining noto'g'ri qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Misol uchun, bemor so'zlarni qiyoslov shaklda noto'g'ri aytishi, zamonlarni chalkashtirishi mumkin. Sintaktik buzilishlar esa jumla tuzilmasining buzilishi, jumla qismlarining joyidan siljishi yoki sintaktik qoidalarga zid ravishda birikmasining natijasidir⁷.

Semantik buzilishlar til tizimining eng murakkab darajasiga taalluqli bo'lib, bemorning so'z ma'nolarini anglash, to'g'ri tanlash yoki so'zlashuv kontekstiga moslashtirishdagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Bu holat afaziya yoki semantik demensiya bo'lgan bemorlarda kuzatiladi. Ular so'zning to'g'ri semasini eslay olmaydi, antonim yoki umuman bog'liq bo'lmagan so'zdan foydalanadi.

Shaxsiy kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bu klassifikatsiya ko'proq fonetik va sintaktik darajada amalga oshiriladi, ammo morfologik va semantik buzilishlarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Bu esa diagnostika aniqligini

³ Brookshire, R. H. (2007). Introduction to Neurogenic Communication Disorders.

⁴ Ardila, A. (2010). A framework for the study of cognitive and language disorders.

⁵ Ball, M. J., & Kent, R. D. (1997). The New Phonetics: Advances in Theory and Practice

⁶ Shriberg, L. D., & Kent, R. D. (2003). Clinical Phonetics.

⁷ Crystal, D. (1981). Clinical Linguistics.



kamaytiradi va rehabilitatsiya jarayonini choʻzib yuborishi mumkin. Shu bois, nutq buzilishlarini lingvistik sathlar boʻyicha aniq differensiallash metodikasini joriy etish zarur.

Quyidagi jadvalda nutq buzilishlari lingvistik sathlarga qarab qisqacha taqqoslangan:

Lingvistik sath	Buzilish turi	Misol
Fonetik	Dislaliya, disartriya	"r" tovushini aytolmaslik
Fonologik	Fonema almashtirish	"bolta" oʻrniga "polta"
Morfologik	Zamon, affiks muammosi	"kelgandi" oʻrniga "kelgan"
Sintaktik	Jumla tuzilmasi buzilishi	"Men bozorga bor" (kesim yoʻq)
Semantik	Soʻz maʼnosi buzilishi	"qalam" oʻrniga "kitob" deyish

2-jadval

Ogʻzaki tahlil-bemorning nutq tezligi, talaffuz aniqligi, soʻz boyligi va sintaktik murakkablikni oʻz ichiga oladi. Ushbu bosqichda, bemor tomonidan hikoya yaratish, savollarga javob berish yoki erkin suhbatda qatnashish jarayonida nutqdagi muammolar aniqlanadi. Masalan, afaziya boʻlgan bemorlar qisqa va semantik jihatdan boʻsh gaplardan foydalanadi⁸.

Yozma tahlil esa disleksiya, disgrafiya va alaliya bilan bogʻliq muammolarni oʻrganadi. Bemordan matn yozish, soʻzlarni tartibga solish, diktant bajarish kabi topshiriqlar orqali lingvistik malaka va motorik harakatlar baholanadi. Bemorning yozma ifodasida jumla strukturasi oddiy yoki grafik xatolar boʻlishi klinik ahamiyatga ega.

Noverbal tahlil esa bemorning tana holati, yuz ifodasi, koʻz harakati, jest va mimikasi kabi belgilar orqali baholashni anglatadi. Bu, ayniqsa, ogʻzaki yoki yozma nutqi cheklangan bemorlar uchun muhim vositadir. Misol uchun, autizm spektridagi bemorlar koʻz kontaktidan qochishi, tana holatini cheklash yoki emotsiyaviy ifodani chetlab oʻtishi mumkin⁹.

Olib borilgan tahlillar natijasiga koʻra, multimodal yondashuv Oʻzbekiston klinik tilshunosligida hali keng qoʻllanilmaydi. Biroq ushbu yondashuv rehabilitatsiya va individual terapiya strategiyalarini ishlab chiqishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu usul nafaqat tashxislash, balki bemorning holatini monitoring qilishda ham keng imkoniyat yaratadi.

Klinik lingvistikada zamonaviy diagnostik yondashuvlar faqat nazariy tahlillar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy holatlar orqali boyitilishi kerak. Oʻzbekiston tibbiyot tizimida afaziya, disartriya, logonevroz kabi nutq buzilishlari koʻproq insult, bosh miya shikastlanishi, yoki ogʻir psixologik holatlar natijasida yuzaga chiqadi. Shifokorlar bemorlar bilan muloqotda koʻproq ogʻzaki signal va

⁸ Goodglass, H., & Kaplan, E. (1983). The Assessment of Aphasia and Related Disorders.

⁹ Baron-Cohen, S. (1995). Mindblindness: An Essay on Autism and Theory of Mind.



mimik tahlilga tayanadi, bu esa multimodal yondashuvga ehtiyoj borligini ko'rsatadi¹⁰.

Misol uchun, Toshkentdagi Respublika ixtisoslashtirilgan nevrologiya markazida 2022-yilda 100 dan ortiq bemor afaziya tashxisi bilan ro'yxatga olingan. Shularning 63 foizida fonetik va morfologik buzilishlar birgalikda kuzatilgan. Bemorlarning 40% ga yaqinida yozma nutq ko'nikmalari butunlay izdan chiqqan. Bu holatlarda noverbal tahlil orqali emotsional tushkunlik, reaktiv depressiya va qo'rquv darajalari aniqlangan.

Germaniya va Kanadadagi amaliyotlarda klinik lingvistika alohida diagnostika vositalari bilan ta'minlangan. Masalan, Boston Afaziya Diagnostik testi yoki Western Aphasia Battery (WAB) orqali bemorlar bilan multimodal yondashuvda to'liq suhbat, yozuv va rasmiy testlar asosida tahlil olib boriladi. O'zbekistonda bu testlar hali to'liq joriy qilinmagan bo'lsa-da, shunga o'xshash modellar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Quyida O'zbekiston va Kanada amaliyotidagi klinik lingvistik diagnostika komponentlarining qisqacha taqqoslovij jadvali keltirilgan:

Diagnostika komponenti	O'zbekiston amaliyoti	Kanada amaliyoti
Og'zaki suhbat	Tibbiy suhbat, oddiy savol-javob	Afaziya testlari, hikoya tahlili
Yozma topshiriq	Diktant, yozuv kuzatuv	Strukturaviy yozma testlar
Noverbal tahlil	Mimika va pauza kuzatuv	Video analiz, yuz ifodasi kodlash
Texnologik vosita	Yo'q (ko'pchilik klinikalarda)	fMRI, EEG diagnostikasi
Reabilitatsiya	Logoped, psixolog asosida	Multidisiplinar jamoaviy yondashuv

3-jadval

Klinik lingvistikada noverbal muloqotning ahamiyati inson nutq faoliyatining buzilishi sharoitida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Noverbal elementlar – mimika, tana harakati, pauza, intonatsiya va proksemiya – lingvosemiotik tizimning muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi. Ular bemor holatini baholashda, diagnostika, prognozlash va reabilitatsiya bosqichlarida tahlil qilinadi.

Klinik lingvistikada noverbal muloqot quyidagi asosiy toifalarga ajratiladi: 1) mimik vositalar, 2) gestik (imo-ishoraviy) vositalar, 3) paralingvistik belgilar (intonatsiya, pauza, ovoz balandligi), 4) proksemiya (masofa), 5) taktil vositalar (tegishish), 6) kinezika (tana harakati)¹¹.

Mimik vositalar – yuz mushaklarining harakati orqali ifodalanadigan emotsional yoki informatsion signallar. Klinik lingvistikada ular bemorning emotsional holatini, ayniqsa depressiya, afaziya va autizm spektridagi buzilishlarni

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari, 2022.

¹¹ Ball, M. J., & Müller, N. (2005). *Clinical Linguistics*. Wiley-Blackwell.



aniqlashda ishlatiladi. Jakobson va LaPointe asarlarida mimikalar tilni to'ldiruvchi vosita sifatida qaralgan¹².

Pauza — klinik diskursda semantik to'xtalish sifatida namoyon bo'ladi. Afaziya, disartriya, va logofobiya holatlarida pauzalar ortib boradi. Pauzalar lingvosemiotik tahlil nuqtai nazaridan ikki turga ajratiladi: 1) orfoepik pauza (fonetik zarurat bilan bog'liq), 2) semantik pauza (fikrni yig'ish yoki nutqni boshqarishga oid to'xtalish).

Ba'zi hollarda pauzalar lingvistik buzilish emas, balki ma'lumotni uzatishning noverbal strategiyasi sifatida ishlatiladi. Bemorlar muayyan so'zlarni topishda qiynalganda yoki fikrda "qotib qolish" holatida bu pauzalar yuzaga keladi. Bu esa diskursiv tahlil uchun muhim semantik indikator hisoblanadi.

Intonatsiya — tilning emotsional, ekspressiv va semantik darajasini tashkil etuvchi paralingvistik belgi. Klinik tahlilda intonatsiyaning o'zgarishi — xususan monoton, past yoki yo'q intonatsiyalar — depressiv holatlar, Parkinson kasalligi, yoki afaziya belgisi sifatida qabul qilinadi.

Levelt fikricha, intonatsion o'zgarishlar tildagi sintaktik tuzilma va semantik og'irlikni ko'rsatadi. Klinik lingvistika bu belgini lingvosemiotik tahlilda ishlatib, bemorning nutq strukturasi va psixologik holatini baholaydi.

Shaxsiy kuzatuvlarim asosida aytish mumkinki, o'zbek bemorlarining klinik intervyularida pauzalar va intonatsiyalardagi o'zgarishlar o'ziga xos madaniy tasvirga ega. Masalan, pauzalarni "hurmat belgisi" sifatida qabul qilish holati ba'zan noto'g'ri klinik baholashlarga olib kelmoqda.

Tanqidiy yondashuvga ko'ra, mimika va pauza diagnostikada universal vosita sifatida baholanishi xatoliklarga olib keladi. Har bir madaniyatda ularning qabul qilinishi, ifoda uslubi va semantik yuki turlicha bo'lishi mumkin. Shu bois, lingvosemiotik yondashuv doirasida madaniyatlararo tafovutlar doimiy ravishda e'tiborga olinishi lozim.

Mimika, pauza va intonatsiya — bu nafaqat fonetik-intonatsion elementlar, balki klinik lingvistikada bemor til qobiliyatini to'liq baholovchi semantik signallardir. Ularni tizimli va madaniy-lingvistik kontekstda tahlil qilish klinik tashxis va rehabilitatsiyani optimallashtirishga xizmat qiladi.

Gestik vositalar – qo'l va tana harakati orqali ifodalanadigan vositalar bo'lib, ular bemorning ifoda vositalari cheklanganda kompensator rol o'ynaydi. Ba'zi bemorlar o'z fikrini mutlaqo jestlar orqali ifodalaydi. Holland bunga "kompensator diskurs strategiyasi" deb ta'rif beradi.

Paralingvistik belgilar esa so'zlardagi emotsional yukni aks ettiradi. Afaziya va disartriya holatlarida intonatsion ohang o'zgaradi, pauzalar ortadi, bu esa kommunikatsiyaning tabiiyligini pasaytiradi. Ball va Müller bu belgilarni klinik tahlilning asosi deb hisoblaydi.

Proksemiya – bemor va suhbatdosh orasidagi fazoviy masofa. Bu signal ko'pincha ijtimoiy kontekstda talqin qilinadi, ammo klinik holatda psixologik

¹² Jakobson, R. (1960). *Linguistics and Poetics*. Harvard University Press



holatni bildiradi. Masalan, shizofreniya bilan og‘rigan bemorlar haddan ziyod yaqin yoki juda uzoq turishni afzal ko‘rishi mumkin.

Taktil vositalar esa klinik psixologiyada yaqqol ahamiyat kasb etadi. Autizm spektr buzilishiga ega bolalar ko‘pincha teginish, bag‘riga bosish singari signallarni inkor qiladi yoki noto‘g‘ri qabul qiladi. Bu esa klinik lingvistikada diagnostik vosita sifatida muhim.

Kinezika – tana harakatlarining lingvosemiotik ifodasidir. Semantik buzilishlarga ega bemorlar ko‘pincha harakatlar orqali gapni “to‘ldirish”ga urinadi. Biroq harakat va til o‘rtasidagi uyg‘unlik yo‘qolganda, bu signal diagnostik ko‘rsatkichga aylanadi.

R. Cummings fikricha, har bir noverbal tur muloqotdagi semantik axborotni 60% gacha yetkazishga qodir. Bu raqam lingvistik markaziy buzilishlar holatida yanada ortadi. Uning ilmiy tajribalari shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutq yo‘q bo‘lgan hollarda bemorlarning 70% dan ortig‘i jest va mimikaga murojaat qiladi.

Shaxsiy kuzatuvlarimga ko‘ra, logopediya markazlarida dars o‘tayotgan bolalar ko‘pincha pauza, imo-ishora va mimika orqali o‘z ehtiyojini bildiradi. Ayniqsa, afaziya va dizartriya bilan og‘rigan bemorlarda gestik vositalar asosiy kommunikatsion kanalga aylanadi. Biroq bu signallar ba‘zan shifokor yoki terapevt tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinadi.

Biroq, bu vositalarning o‘rganilishi uchun standart baholash tizimlarining yo‘qligi muammo sifatida ta‘kidlanadi. Ball va Crystal lingvosemiotik baholashni klinik tizimga joriy qilish uchun aniq mezonlar ishlab chiqishni taklif etganlar.

Lingvosemiotik yondashuv — bu inson muloqotidagi barcha belgilar, shu jumladan mimika, pauza, intonatsiya kabi noverbal komponentlarni tahlil qiluvchi zamonaviy tilda muloqotning kengaytirilgan modelidir. Klinik lingvistika doirasida ushbu komponentlar semantik va pragmatik jihatdan o‘zaro uyg‘unlashgan signallar tizimi sifatida qaraladi.

Roman Jakobson noverbal signallarni lingvistik tizimda ikkilamchi sifatida baholaydi. U fonologik buzilishlarni til tizimining strukturaviy qismi sifatida tahlil qiladi va noverbal komponentlarning semantik yukini cheklangan deb hisoblaydi. Bu yondashuvga tanqidiy qaragan olimlardan biri — David Crystal bo‘lib, u noverbal belgilarni pragmatik aloqaning markaziy elementi deb biladi.¹³

Crystal o‘zining “Clinical Linguistics” asarida bemorlarning intonatsiyasi, pauzasi va mimikasining semantik ahamiyatini tahlil qilib, ushbu komponentlar yordamida bemorning ichki holatini anglash mumkinligini isbotlaydi. U noverbal vositalarni lingvistik tahlilda asosiy manba sifatida ko‘radi¹⁴.

Linda Cummings (2009) esa klinik lingvistika doirasidagi lingvosemiotik yondashuvga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. U mimika va pauzaning diagnostik qiymatini tan olsa-da, ularning baholanishi uchun universal me‘zonlar yetarlicha

¹³Jakobson, R. (1960). Linguistics and Poetics.

¹⁴ Crystal, D. (1985). Clinical Linguistics.



ishlab chiqilmaganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu elementlarning semantik yuki kontekstdan kontekstga keskin farqlanadi.

Levelt esa og'zaki nutqni modellashtirishda intonatsiya va pauzalarni strukturaviy omil sifatida ko'radi. U bu signallarni sintaktik tuzilmalarni boshqarishda muhim vosita deb biladi. Biroq uning modeli noverbal belgilarni ko'proq texnik vosita sifatida ko'rib, ularning madaniy va semantik og'irligini ikkilamchi darajaga qo'yadi.

Shuningdek, Paul Ekman tadqiqotlarida mimik signallar universal bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. U "asosiy yetti emotsiya" modeli orqali inson mimikasining neyropsixologik asoslanganligini isbotlaydi¹⁵. Biroq, ba'zi tadqiqotchilar, jumladan Matsumoto, bu modelga qarshi chiqib, madaniyatning mimik ifodalarga kuchli ta'siri borligini ko'rsatadi¹⁶.

Biroq, ko'plab zamonaviy klinik lingvistik izlanishlar noverbal komponentlarning semantik tahlilini haddan ziyod umumlashtiradi. Masalan, mimikani "emotsional signal" deb qabul qilish, uning real klinik diskursdagi pragmatik yukini to'liq ochib bera olmaydi.

Shaxsiy kuzatuvlarimda ham, ayniqsa o'zbek va ingliz bemorlar ishtirokidagi intervyular tahlilida, bir xil mimika yoki pauzaning turli ma'no yuklayotganini kuzatganman. Bu esa har bir madaniyat va til tizimi o'zining ichki noverbal semantikasiga ega ekanini isbotlaydi.

Quyida ingliz va o'zbek madaniyatlarida bir xil noverbal signalning turli semantik yukga ega bo'lishini ko'rsatuvchi ilmiy asoslangan klinik kontekstdagi misollar keltirilgan:

1. Mimika: Boshni pastga egish

Ekman va Matsumoto tadqiqotlariga ko'ra, boshni pastga egish aksariyat g'arbiy madaniyatlarda "quyilash", "afsus" yoki "fikir to'plash" ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz bemorlarining klinik intervyularida bu harakat ko'pincha "ixtiyoriy ichki mulohaza" belgisi sifatida qayd etilgan.

O'zbek klinik kontekstida esa, ushbu mimika ko'pincha "hurmat belgisi", "sharmandalik yoki ixtiyoriy sukut" sifatida talqin qilinadi¹⁷. Bu esa shifokorning bemorning emotsional holatini noto'g'ri baholashiga olib kelishi mumkin.

2. Pauza: Uzoq sukut

Levelt va Cummings intonatsiya va pauzalarni nutqning strukturaviy qismi sifatida baholagan. G'arbiy klinik tahlilga ko'ra, 3–4 soniyalik pauza fikrni tuzish, so'z topish yoki semantik keskinlik belgisi hisoblanadi.

¹⁵ Ekman, P. (1992). An Argument for Basic Emotions

¹⁶ Matsumoto, D. (2006). Culture and Nonverbal Behavior.

¹⁷ Karimova, N. (2019). O'zbek tilida madaniy pragmatika va kommunikatsiya. TDPU nashri.



Biroq O‘zbek til muhitida bu turdagi pauza ba’zida “sukut — rozi” degan ijtimoiy prinsip asosida baholanadi, bu esa tibbiy muloqotda noto‘g‘ri pragmatik xulosalarga olib keladi.¹⁸

3. Intonatsiya: Past ohangda gapirish

Crystal klinik lingvistika kontekstida bemor intonatsiyasining pastlashishini emotsional chekinish yoki depressiv holat belgisi sifatida ko‘rsatadi. Ingliz bemorlarda bunday ohang ko‘pincha psixologik himoya mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek tilida esa, ayniqsa ayollar orasida, past ohang — bu odob, kamtarlik va hurmat belgisi bo‘lib, u depressiv simptomatikaning ko‘rsatkichi sifatida emas, balki ijtimoiy me‘yor sifatida qaraladi.¹⁹

Ta’kidlash joizki, turli tadqiqotchilar noverbal signallarni lingvistik tizimda turlicha baholaydi. Bu qarashlar nafaqat tahlil doirasini kengaytiradi, balki klinik lingvistikada yangi metodologik yondashuvlar uchun asos yaratadi.

Klinik lingvistika doirasida noverbal belgilarni tahlil qilishda madaniy kontekst hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir xalq, har bir madaniyat o‘ziga xos tana tili, mimika va pauza semantikasi orqali tilni to‘ldiradi. O‘zbek tilida bu belgilar faqat muloqot estetikasi emas, balki semantik og‘irlikka ham ega bo‘lib, ularni noto‘g‘ri talqin qilish klinik xatolarga olib kelishi mumkin.

Masalan, boshni pastga egish o‘zbek muloqot madaniyatida odatda “hurmat”, “itoatkorlik” yoki “sharmandalik” belgisidir. Shu harakat ingliz madaniyatida esa ko‘proq “o‘ylash”, “fikrni jamlash” yoki “emotsional chekinish” sifatida talqin qilinadi. Bu tafovut klinik intervyular davomida bemorning holatini noto‘g‘ri baholash xavfini keltirib chiqaradi.

Sodiqovanning qarashlariga ko‘ra, O‘zbek madaniyatida pauza ko‘pincha “ehtiyotkorlik”, “sabr”, “mulohaza” belgisidir. Ba’zan bu sukut shunchaki ornus, ijtimoiy ierarxiyaga hurmat shaklidir. Biroq Cummings tadqiqotiga ko‘ra, ingliz klinik tahlilida 3–5 soniyalik pauza, ayniqsa javobda, “psixologik blok” yoki “semantik uzilish” deb baholanadi.

Intonatsion farqlar ham shunga o‘xshash noaniqliklar keltirib chiqaradi. O‘zbek bemorlarda past ohangda gapirish odatda “kamtarona”, “muloyim” muomala deb tushuniladi, lekin ingliz terapevt bu holatni “depressiv fon” deb baholashi mumkin.

Shaxsiy kuzatuvlarimda o‘zbek bemorlar va ingliz mutaxassislar o‘rtasidagi intervyular tahlilida mimika va pauzaning talqini bir necha bor farq qilganini kuzatdim. Masalan, o‘zbek bemorning bosh egish va jim turishi ingliz shifokor tomonidan “javob bermaslik” deb baholangan, natijada noto‘g‘ri tushunish va ruhiy xatolar sodir bo‘lgan.

¹⁸ Sodiqova, M. (2021). Klinik diskursda noverbal belgilarni talqin qilish. O‘zR FFA jurnali.

¹⁹ Yusupova, D. (2020). O‘zbek ayollarining til xulqida intonatsion xususiyatlar. O‘zMU nashri.



Shuni ham inobatga olish kerakki, o‘zbek kontekstida noverbal belgilar ko‘proq kollektivistik madaniyatga xos konventsiyalarga tayangan. Bu konventsiyalar “sukut”, “ehtiyot”, “or-nomus”, “qaramlik” kabi ijtimoiy semantik elementlarga tayanadi. Shuning uchun, klinik lingvistika doirasida o‘zbekcha noverbal belgilarni xalqaro model asosida emas, balki o‘ziga xos semantik tahlil asosida o‘rganish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘zbek bemorlar bilan ishlaydigan klinik lingvistlar uchun madaniyatlararo tahlil, kontekstual interpretatsiya va pragmatik moslik tamoyillari zarur. Har bir noverbal signal kontekstda, madaniy mezonlar asosida tahlil qilinishi lozim. Bu yondashuv klinik xatoliklar xavfini kamaytiradi va bemor bilan terapevt o‘rtasidagi ishonchli muloqotni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Hall, E. T. (1966). *The Hidden Dimension*. Doubleday.
2. Crystal, D. (2008). *Clinical Linguistics*. Cambridge University Press.
3. Cummings, L. (2009). *Nonverbal Communication in Clinical Linguistics*. Wiley-Blackwell.
4. Levelt, W. J. M. (1989). *Speaking: From Intention to Articulation*. MIT Press.
5. Jakobson, R., & LaPointe, L. (1975). *The Role of Nonverbal Cues in Communication*. Cambridge University Press.
6. Ekman, P. (1992). *An Argument for Basic Emotions*. Cognition & Emotion.
7. Matsumoto, D. (2006). *Culture and Emotion: The Psychological and Physiological Interactions*. Routledge.
8. Ball, M., & Müller, N. (2005). *The Importance of Nonverbal Cues in Clinical Communication*. Cambridge University Press.



6-Sinf O‘Quvchilarida Yozma Nutqni Rivojlantirish

Saidova Munisa

ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi

munisasaidova76@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-sinf o‘quvchilarida yozma nutqni shakllantirish asoslari, uni takomillashtirish, nutqni yozma ravishda ifodalash mazmuni, bolalarda nutqni shakllantirishda qo‘l keluvchi eng qulay va samarali metodlar haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada nutq tushunchasi, nutq o‘stirish metodikasi, uning ahamiyati, o‘quvchilar nutqini rivojlantirish yo‘llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o‘stirish yo‘nalishlari, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan talablar, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq o‘stirishga erishish orqali o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, nutq madaniyati, insho, yozma ish, bahs,

Kirish Bilamizki, bugungi kunda fanlararo integratsiyaning ommalashuvi natijasida o‘quvchi yoshlarning nutqiy savodxonlikka erishishiga qaratilayotgan e’tibor yanada yuksalib bormoqda. Ayni bu borada esa monologik nutq vositasida ifoda etiladigan tushunchalar va qarashlarning ahamiyati kattadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqdagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari bo‘yicha to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o‘rgatadi.

Adabiyotlar tahlili: Jahon tilshunosligida yozma nutq madaniyatiga doir muammolar yuzasidan olimlar bir-necha ming yillar ilgaridanoq shug‘ullanib kelishgan. Bunga Lev Vgotskiyning “Til va fikrlash” asari, J. Valterning “Og‘zaki nutq va adabiyot”, Jak Gudyning “Yozuvning mantiqiyliigi va jamiyatning tizimliliigi” asarlari misol bo‘ladi.

Yurtimizda esa bu boradagi qarashlar A.Hojiyev, A.G‘ulomov. M.Asqarova va bir qator olimlarimizning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda biz ham mavzu doirasida tadqiqotimizni amalga oshirdik.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar

Mavzuning naqadar muhim ekanligi shu nuqtaga kelganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni shu bosqichga kelganda biz o‘zimiz qidirgan savollarga javob topa olamiz. O‘zbekistonda yozma nutq madaniyati qay darajada shakllangan? Uning saviyasini ko‘tarish yoki pastlab ketishi qanday omillarga bog‘liq? Imlo me‘yorlari yetarli darajada takomillashtirib ishlab chiqilganmi? Yuqoridagi savollarga javob topish uchun bir qator tajriba-sinov ishlarini tadqiq etamiz.



Birinchiidan, yozma nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir.²⁰ hamda imlo me'yorlarini tartiblashtirish borasida quyidagi tadqiqot ishlarini olib borsak bo'ladi. Ulardan eng birinchisi, ko'proq o'qishdir. Bunda, albatta, o'quvchilar chiroyli, mazmunli, ifodali hamda lo'nda nutq yaratishni qoidalar asosida o'rganib qolishmaydi, biroq bola qanchalik ko'p kitob o'qisa grammatik formulalar uning ongida mustahkam holda saqlanib boradi. Imlo ham o'z-o'zidan tartibli va tizimli holatga o'tadi, boisiki inson ko'z xotirasiga ega mavjudotlardan biridir. U bir narsani qanchalik ko'p ko'rsa uni shuncha ko'p marta yodlagan bo'ladi. Ikkinchi bir usul bu insho yozish va uni tahlil qilish. Uchinchi usul bu so'z boyligini oshirish. Bu usul turli xil lug'atlar tuzish, har bir darsda yangi so'zlarni o'rganish va ularni yozma nutqda qo'llashdir. Bu yozma nutqni to'g'rilashdagi eng muhim qadamlardan biridir. Ma'lumki, O'zbekistonda XX asrda 3 marta yozuv almashtirildi (1929, 1940, 1993), 5 marta imlo qoidalari o'zgartirildi (1923, 1929, 1935, 1956, 1995), tilni isloh qilish va termin tanlash tamoyillari ham tez-tez o'zgarib turdi: 20-yillar boshida turkizmlar va sof ozbekcha so'zlarga moyillik bildirilgan bo'lsa, 30-yillardan boshlab rus tilidan so'z o'zlashtirishga zo'r berildi, 80-90 yillarda va ba'zan hozirda ham eskirgan arabcha-forscha o'zlashmalami atama sifatida qo'llashga intilish kuchaydi²¹ Natijada, bizning lug'at boyligimizda chet so'zlari katta miqdorni tashkil etdi. Bu ko'plab o'quvchilarning ba'zi so'zlar imlosida ikkilnasihlarga duch kelishini yuzaga keltiradi. Shu boisdan yuqoridagi usul imloni to'g'irlashda ancha samaralidir. To'rtinchi usul, yozma nutq tuzishda struktural tartibni saqlash. Bu fikrlar izchilligining asosiy omilidir. Bunday usullarni (orfografiya printsiplarini) tanlash va qo'llash orfografiyaning vazifalari doirasiga kiradi.²² Bu borada eng oxirgi usullardan biri bu o'zaro fikr almashishdir, ya'ni barcha o'quvchilar o'zlari yaratgan yozma ishlari yuzasidan fikr-mulohazalarini o'rtoqlashadilar. Bu orqali o'zlarining xatolarini tez va oson anglaydilar.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, insonning yozma nutqi uning salohiyatini yoritib beruvchi omillardan biridir. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish esa o'qituvchilarning asosiy burchlaridan biridir. Yuqorida keltirilgan usullar bu borada ijobiy natija berishiga ishonaman. Ko'p va mazmunli yoza olish yoshlikdan shakllantirilgan bilimlar asosida rivojlanuvchi qobiliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Teshabaeva D.M., Kamalova M.N. Nutq madaniyati. Nofilologik o'quv yurtlari magistrantlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent.: Iqtisodiyot. 2018 yil, B.19.
2. Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent. : 2016-yil, 286 bet.

²⁰ Teshabaeva D.M., Kamalova M.N. Nutq madaniyati. Nofilologik o'quv yurtlari magistrantlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent.: Iqtisodiyot. 2018 yil, B.19.

²¹ Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent. : 2016-yil, 6-bet.

²² Jumayeva B. O'zbek tili orfografikasi va punktuatsiyasi. Maqola. Nauka XXI veka.



3. Jumayeva B. O‘zbek tili orfografikasi va punktuatsiyasi. Maqola. Nauka XXI veka.
4. Muhammedova S. Nutq madaniyati. – Toshkent.: 2007-yil, 112-bet.
5. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent .:1993-yil, 317-bet.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA IJTIMOIIY LIRIKA
TALQINI ("TOVON" SHE'RI MISOLIDA)**

Ro'zimurodov Ma'rufjon Isoq o'g'li,

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

magistranti

E-mail: rozimurodovmarufjon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Matnazar Abdulhakimning "Tovon" she'ri asosida shoir ijodidagi ijtimoiy lirika talqini va she'rdagi mubolag'a, konflikt, ramziy obrazlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: XX asr o'zbek she'riyati, ijtimoiy lirika, konflikt, poklik, struktural qarama-qarshilik, axloqiy tanazzul, ijodiy pozitsiya.

Har bir davr adabiyoti, avvalo, o'sha davr ijtimoiy hayotiga befarq bo'lmagan ijod ahli tomonidan yaratilgan san'at asarlarida o'z aksini topadi. Badiiy adabiyotda, shu jumladan, she'riyatda ham. Adabiyotshunos olim Hakimjon Karimov ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan evrilishlar birinchi navbatda lirikada aks-sado beradi"²³.

XX asr adabiyotida ijtimoiy lirika keng mavzularni qamrab oldi. "XX asr keskin burilishlarga boy bo'lgan davr sifatida tarix sahnasida alohida qayd qilingan. Adabiyot, xususan, she'riyat ham turli o'zgarish va yangilanishlarga uchradi. Adabiyot tarixini chinakam ijod ahlining betakror ijod namunalarini bunyodga keltirganligi kabi, she'riyatdagi yangi bir to'lqin uni yana yuksak darajaga ko'tardi. O'zbek she'riyatida ham muayyan o'zgarishlar asr boshlarida vujudga kelgan bo'lsa, yillar davomida u yoki bu darajada rivojlanib keldi"²⁴.

O'zbek adabiyotida ijtimoiy lirika jamiyat hayoti, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy-ruhiy muammolar hamda insoniy mas'uliyatni badiiy idrok etishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy lirika shoirning faqat shaxsiy kechinmalarini emas, balki butun jamiyat dardini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday asarlarda lirik subyekt individual "men" doirasidan chiqib, ijtimoiy ong darajasiga ko'tariladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ijod qilgan Matnazar Abdulhakim she'riyati o'zining keskin ijtimoiy ruhi, tanqidiy qarashi, kinoya va istehzo asosiga

²³ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. "Yangi nashr" nashriyoti, Toshkent – 2010. 5 b.

²⁴ Nasirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2014. 10 b.



qurilgan poetik tafakkuri bilan alohida ajralib turadi. Shoir ijodida ijtimoiy lirika yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotshunoslikda ijtimoiy lirika she'riyatning jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liqligi orqali izohlanadi. Ijtimoiy lirika ijtimoiy konflikt, ijtimoiy obraz, muallif pozitsiyasi va umumlashtirilgan lirik qahramon tushunchalari bilan chambarchas aloqadordir. Bunday lirika turi jamiyatdagi adolatsizlik, axloqiy tanazzul, ijtimoiy befarqlik kabi muammolarni fosh etishga qaratiladi. Matnazar Abdulhakim she'riyatida ijtimoiy lirika tanqidiy ruh va ramziy obrazlar orqali ifodalanadi.

Shoirning "Tovon" she'rida jamiyatda keng tarqalgan yolg'on, soxta va'dalar va ma'naviy mas'uliyatsizlik muammolarini ijtimoiy hodisa sifatida ko'rsatadi. She'ning boshida Eron jamiyati misol qilib olinadi. Bu qiyoslash usuli orqali shoir yolg'on uchun axloqiy javobgarlik mavjud bo'lgan jamiyatni o'z jamiyati bilan solishtiradi. "Bizda" so'zi umumlashtirilgan ijtimoiy makonni ifodalab, lirik subyektning jamiyat nomidan so'zlayotganini ko'rsatadi. She'r kompozitsiyasi bosqichma-bosqich kuchayib boradi. Suv markaziy ramz sifatida namoyon bo'lib, u bir tomondan poklikni, ikkinchi tomondan yolg'on uchun to'lanadigan ramziy "tovon"ni anglatadi:

*Eshitdimki, Eron yoqlarda
Yolg'on so'ylab, o'trik deganlar
Og'izni suv bilan uch marta
Chayib, halol qilar ekanlar.*

*Bizda ne ko'p? Ko'p yolg'on va'da,
Bizda ne mo'l? Fasod – qo'lansa...
Insofdanmi yolg'onga badal
Obihayot bilan to'lansa.²⁵*

She'rda yolg'onning ko'pligi, fasodning avj olishi jamiyatning axloqiy inqirozga yuz tutganidan dalolat beradi deb ta'kidlanadi. Bu she'rda o'ziga xos ritmik qurilishida namoyon bo'ladi:

*Har xalqda bir o'zga ibodat,
Har elning bor o'zgacha dardi.
Agar joriy bo'lsa bu odat,
Bizga qattiq og'ir bo'lardi.*

"Hamma" so'zining "Har" shaklida qo'llanilishi she'rning ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Adabiyotshunos olim, Qozoqboy Yo'ldoshev aytganidek: "...poetik ma'noni kuchaytirish ehtiyoji tufayli lirikada ritmik qurilish, she'riy shaklga intilish mayli kuchli bo'ladi"²⁶.

²⁵ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. 1-jild: she'rlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti, 2017. 251 b.

²⁶ Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, 2016. 178 b.



Shoir xalqning moddiy qashshoqligini ta'kidlab ketar ekan, agar rost so'zga bo'lgan "qashshoqlik"ka ijtimoiy moddiyatdan tovon to'lansa, aholining yanada qashshoqlashishi mumkinligini aytib o'tadi:

*Qashshoqlarni hayron qilardik
Yashab battar och, taqchilikda.
O'lkamizni vayron qilardik
Bundan battar qurg'oqchilikda.*

Bu holat faqat shoirning ichki kechinmalari emas, balki ijtimoiy tizim bilan bog'liq muammo sifatida talqin qilinadi. Tashqi tomondan rostgo'ylikni bildirayotgandek, aslida esa aksini – jamiyatda yolg'on haddan oshganini masxara qiladi. Shoir mubolag'a orqali yolg'onning cheksiz miqdori, uning jamiyatni to'ldirib yuborganini ifodalaydi:

*Garchi bizning har so'z – tekshiruv,
Gapiramiz elab, elaklab,
Tashilardi minbarlarga suv
Piyolalab emas, chelaklab.*

Shoir suv obrazidan faol foydalanadi. Og'iz chayish, suv tashish, dengiz va Orol obrazlari orqali kuchli mubolag'a yaratiladi. Bu mubolag'a ijtimoiy tanqidning ta'sirchanligini oshiradi:

*Bog'lar emas, so'ylasak bizlar
Sholizorlar qaqrab so'lardi.
Orol gapmi, barcha dengizlar
Og'iz chaymoqqa sarf bo'lardi...*

She'rda asosiy struktural qarama-qarshilik halollik va yolg'on, poklik va fasod, mas'uliyat va beparvolik o'rtasida konflikt qurilgan. Suv ma'naviy poklanish va vijdon ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir yolg'on uchun moddiy emas, ma'naviy javobgarlik zarurligini ilgari suradi. "Original fikr aytish – qiyin ish", - degan edi adabiyotshunos olim Bahodir Karimov²⁷. Darhaqiqat, Matnazar Abdulhakim ana shunday original fikrni topib aytgan shoir edi. She'r bugungi o'quvchi uchun ham dolzarb bo'lib, ekologik muammolar va axloqiy tanazzul o'rtasidagi bog'liqlikni anglatadi. "Tovon" she'ri o'quvchini o'z vijdoni bilan yuzlashtiradi. Ayni damda axloqiy muammolarning ekologik muammolar bilan bir qatorda qo'yilishi va ularga yechim topilishi kerakligi ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, Matnazar Abdulhakimning "Tovon" she'ri shoir ijodidagi ijtimoiy lirikaning yorqin namunasi hisoblanadi. Asarda jamiyatdagi yolg'on keskin tanqid qilinadi. "Tovon" she'ri ijtimoiy lirikaning jamiyat hayotidagi

²⁷ Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 4 b.



muhim ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. XX asr she'riyati o'z oldiga yurtni kelajagi haqida bong uruvchi she'rlarni tarannum etishni maqsad qilib qo'ydi. Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi kabi bir qator ustoz shoirlar singari Matnazar Abdulhakim ham asarlari orqali o'zining hayotiy va ijodiy pozitsiyasini namoyish qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhakimov Matnazar. Tanlangan asarlar. 1-jild: she'rlar. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 328 b.
2. Nosirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDU nashri, 2014. – 106 b.
3. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
4. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. – Toshkent, “Yangi nashr” nashriyoti, 2010. – 364 b.
5. Nosirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDU nashri, 2014. – 106 b.
6. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent, “Kamalak” nashriyoti, 2016. – 306 b.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

IJTIMOIY MEDIA MARKETINGI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA
TADBIRKORLIKDAGI O'RNI

Vafayev Arturbek Hasanboy o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

M-241-“Marketing” guruhi

magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy media marketingi tushunchasi, mohiyati va tadbirkorlikdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy media marketingi tushunchasining tadbirkorlikdagi o'rnini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются концепция, сущность и роль маркетинга в социальных сетях в предпринимательстве. Также представлены выводы по результатам исследования роли концепции маркетинга в социальных сетях в предпринимательстве.

Abstract. This article discusses the concept, essence and role of social media marketing in entrepreneurship. It also presents conclusions on the study of the role of the concept of social media marketing in entrepreneurship.

Kalit so'zlar. Marketing, ijtimoiy media marketingi, tadbirkorlik, brend, axborot, bozor.

Ключевые слова. Маркетинг, маркетинг в социальных сетях, предпринимательство, бренд, информация, рынок.

Key words. Marketing, social media marketing, entrepreneurship, brand, information, market.

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi marketing faoliyatining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shular qatorida ijtimoiy media marketing zamonaviy marketingning eng muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, ijtimoiy media marketingi ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli hamjamiyatlar orqali mahsulot, xizmat yoki brendni targ'ib qilishga qaratilgan marketing faoliyatini anglatadi. Ijtimoiy media marketingi kompaniya, brend yoki mahsulotni ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va sotuvlarni oshirishga qaratilgan marketing strategiyasidir [1]. Ijtimoiy media marketingining shakllanishi internetning Web 2.0 bosqichiga o'tishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, foydalanuvchilar faolligi, kontent yaratish va uni tarqatish imkoniyatlari kengaydi. Facebook, Instagram, YouTube, TikTok, Telegram va LinkedIn kabi platformalar marketing subyektlari uchun reklama kanali va



iste'molchilar bilan o'zaro muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va bozorni tahlil qilish vositasiga aylandi.

Ijtimoiy media marketingining mohiyati iste'molchi bilan bevosita va ikki tomonlama aloqani yo'lga qo'yishdan iborat. An'anaviy marketingdan farqli o'laroq, ijtimoiy media marketingi faqat axborot uzatish bilan cheklanmaydi, ya'ni foydalanuvchilarning fikri, munosabati va xulq-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy media marketingining brend sadoqatini oshirishdagi ahamiyati va biznes muvaffaqiyatiga ta'siri ham tahlil qilinadi [2]. Ijtimoiy media marketingining asosiy xususiyatlari esa interaktivlik (sharh qoldirish, baho berish va kontentni tarqatish), ma'lumotlar tezkorligi (axborotni qisqa vaqt ichida katta auditoriyaga yetib borish), maqsadli auditoriyaga yo'naltirilganlik (reklama aniq demografik va psixografik guruhlariga moslashtirish), kam xarajatli samaradorlik (an'anaviy reklama turlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan tejamkorlik) va o'lchovchanlik (natijalarni aniq ko'rsatkichlar) orqali baholash imkoniyati mavjud. Mazkur xususiyatlar ijtimoiy media marketingini tadbirkorlik faoliyatida muhim strategik vositaga aylantiradi. Hamda ijtimoiy media marketingi biznes uchun muhim bo'lgan usuldir [3].

Shuningdek, ijtimoiy media marketingi turli shakl va vositalar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, kontent marketing (matn, rasm, video, infografika va jonli efirlar orqali auditoriyani jalb qilish), target reklama (foydalanuvchilar qiziqishlari va xulq-atvoriga asoslangan reklama joylashtirish), influencer marketing (mashhur shaxslar va blogerlar orqali mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish), community marketing (brend atrofida sodiq auditoriya va hamjamiyat shakllantirish) va SMM-analitika (foydalanuvchi faolligi va marketing samaradorligini tahlil qilish) shular jumlasidandir. Mazkur vositalar tadbirkorlik sub'ektlariga bozor talabiga tez moslashish va iste'molchi ehtiyojlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Shular bilan bir qatorda, bugungi kunda ijtimoiy media marketingi tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib ham hisoblanadi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun ijtimoiy media marketingi bozorga kirish, raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, ijtimoiy media marketingi tadbirkorlikda brend imijini shakllantirish va mustahkamlash, mahsulot va xizmatlar haqida tezkor axborot yetkazish, mijozlar bilan doimiy aloqa o'rnatish, sotuv hajmini oshirish hamda iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi:

Ijtimoiy media marketingi tadbirkorlarga marketing strategiyasini moslashuvchan tarzda olib borish va bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingi raqamli tadbirkorlikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Onlayn savdo, elektron xizmatlar va raqamli platformalar faoliyati aynan shu marketing orqali samarali rivojlanmoqda. Bu borada ijtimoiy media marketingining raqamli tadbirkorlikdagi ahamiyati onlayn savdo platformalariga trafik jalb qilish, iste'molchilar ishonchini shakllantirish, raqamli brend yaratish va innovatsion biznes modellarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda ijtimoiy media marketingi marketing vositasi va strategik boshqaruv unsuri sifatida ham qaraladi. Ijtimoiy media marketingining asosiy afzalliklari



qatoriga esa past xarajat evaziga keng auditoriyani qamrab olish, marketing natijalarini tezkor baholash, iste'molchilar bilan yaqin aloqani yo'lga qo'yish va bozorni chuqur tahlil qilish imkoniyati kabi unsurlar kiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy media marketingi faoliyatida yuqori raqobat muhiti, noto'g'ri kontent siyosati natijasida imijga zarar yetishi, doimiy yangilik va kreativ yondashuv talab etilishi hamda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar muammolari kabi muammolar kiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tadbirkorlar professional ijtimoiy media marketingi strategiyalarini ishlab chiqishi va zamonaviy yondashuvlardan foydalanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy media marketing zamonaviy tadbirkorlik faoliyatining muhim strategik vositasi bo'lib hisoblanadi. U bozorni keng qamrab olish, iste'molchilar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy media marketingining ahamiyati yanada ortib, u tadbirkorlik sub'ektlari uchun barqaror rivojlanish omillaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yahyoxonov N.B, Suyunov Z.X. Ijtimoiy media marketingning mohiyati va mazmuni. // Journal of marketing, business and management, Volume3, Issue7 (December), Journal of marketing, business and management, 2024. - 92 b.
2. Qodirov F., Rahmatullayeva M. Raqamli va ijtimoiy media marketing va uning imkoniyatlari. // Наука и инновация, 3(6), 2025. - 43 b. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/73624>
3. <https://digitalpanda.medium.com/smm-nima-ac166beead3d>



QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Mixliyev Otabek Alisher o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar
Universiteti Iqtisodiyot Fakulteti
Magistratura 1-kurs Guruh IQT25M

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, innovatsion rivojlanish, AgroSmart, eLearning, kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi, kompetensiya, raqamli texnologiyalar.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning asosiy tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning modernizatsiyasi malakali va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, aqlli irrigatsiya tizimlari, biotexnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarining keng joriy etilishi kadrlar tayyorlash tizimida yangi yondashuvni talab qilmoqda. Innovatsiya — bu yangilik kiritish, ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi: raqamli texnologiyalar asosida yer va suv resurslarini boshqarish, aqlli irrigatsiya tizimlari, dronlardan foydalanish orqali ekinlarni kuzatish va hosildorlikni tahlil qilish, biotexnologiyalar asosida yangi nav va turlar yaratish hamda mahsulotlarni qayta ishlash va saqlashda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning **birinchi yo‘nalishi** — raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etishdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish ta’limni interaktiv, individual va samarali qiladi. Bu yondashuv an’anaviy metodlarni kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar va simulyatsion treninglar bilan boyitishni o‘z ichiga oladi. Shu orqali geografik va vaqt chegaralaridan qat’iy nazar ta’lim olish imkoniyati kengayadi, o‘quv jarayoni real vaqtda monitoring qilinadi va individual yondashuv amalga oshiriladi. Masalan, “AgroSmart” va “e-Learning” platformalari masofaviy ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish — dual ta’lim tizimini kengaytirishdir. Bu tizim nazariy bilim va amaliy tajribani uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlaydi. Dual ta’lim zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish orqali samaradorlikni oshiradi hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi yo‘nalish — innovatsion tadqiqot markazlarini takomillashtirishdir. Bu markazlar ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari: ilg‘or ilmiy uslublar va texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash, laboratoriya va sinov infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek,



xalqaro hamkorlik va grant loyihalarini kengaytirishdir. Bu esa markazlarni global standartlar darajasiga olib chiqish va innovatsion mahsulotlarni yaratish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish nafaqat ta’lim tizimining, balki butun agrar tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omilidir. Malakali va innovatsion tafakkurga ega mutaxassislar qishloq xo‘jaligida yangi texnologiyalarni samarali joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. V. Vakhobov, Sh. A. Mamatqulov, U. G‘ulomov — *Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti*, Toshkent, 2021.
2. I. Karimov — “Innovatsion rivojlanish va kadrlar siyosati”, TDIU, 2023.
3. M. Yo‘ldoshev, N. Karimov — *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*, Toshkent, 2020.
4. OECD (2023). *Agricultural Innovation Systems: O‘zbekiston tajribasi*.



ТЕХНОЛОГИК ВА INNOVASION O'SISH MODELIGA O'TISH ZAMONAVIY IQTISODIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Aziza Sultonova,
TDSHU stajyor-o'qituvchisi
Azizasultanova9415@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotlarni "Innovatsiya 4.0.", «to'rtinchi sanoat inqilobi», texnologik, innovasion o'sish modellari talablari asosida qayta qurish masalalari dunyo siyosatchilari va iqtisodchilarini tobora e'tiborini tortayotgan masalalardan biriga aylanmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlarida innovatsiyalarni jalb qilish asosida yaratilayotgan mahsulot yalpi ichki mahsulotning 70-90% gacha yetmoqda.

Shunday bir sharoitda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida O'zbekistonni texnologik va innovasion o'sish modeliga o'tkazish borasida aniq maqsadning qo'yilishi va amalga oshiriladigan vazifalar ko'lamining belgilab berilishi mamlakat kelajagi uchun konseptual ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur ishda muallif shu bilan bog'liq masalalarni tahlilga tortadi.

Kalit so'zlar: Innovasion iqtisodiyot, texnologik o'sish modeli, "Industriya 4.0.", «to'rtinchi sanoat inqilobi», yalpi ichki mahsulot tarkibi.

Keyingi yillarda nufuzli xalqaro anjumanlar minbarlaridan hamda mashhur tahlilchilar tomonidan jahon iqtisodiyotining o'z taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichga o'tayotganligi to'g'risidagi fikrlar tobora ko'proq bildirilmoqda.

Xususan, Davos xalqaro iqtisodiy forumining asoschisi va ko'p yillik rahbari Karl Shvab 2008 yildan keyin dunyoda shakllanayotgan inqirozdan keyingi davrga va dunyoning rivojlanish trayektoriyasiga 2015 yilda baho berar ekan: "Jahon taraqqiyotidagi yangi davr texnologik o'zgarishlarning nihoyatda katta tezlikda yuz berayotganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu o'zgarish sur'ati shu darajada yuqoriki, uni hatto texnologik inqilob, deb ham atashadi. Bu inqilob insoniyat tarixida yuz bergan birorta inqilobga o'xshamaydi va barchamizning hayotimizga shunchalik ta'sir ko'rsatadiki, biz uning darajasini tasavvur ham qila olmaymiz²⁸".

Sal keyinroq – 2016 yilda nashrdan chiqqan "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida K.Shvab texnologik rivojlanish hayotga olib kirayotgan muhim yangiliklarni atroflicha tahlil qilib berdi²⁹.

Milliy iqtisodiyotni kuchli texnologik va innovasion ta'sir ostida yangicha asoslarga o'tkazish Germaniyada "Industriya 4.0." nomi bilan mashhur bo'ldi.

Bugungi kunda AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy, Yaponiya Janubiy Koreya kabi Osiyo gigantlari o'z iqtisodiyotini "Industriya 4.0." talablariga moslashtirishda o'ziga xos "poyga" o'ynayotganligi ham bejiz emas.

²⁸ Are you ready for the technological revolution?// weforum.org/stories/2015/02/are-you-ready-for-the-technological-revolution

²⁹ Шваб К. Четвертая промышленная революция. М.: "Эксмо", 2016.



Chunki, K.Shvab ta'kidlaganidek, "To'rtinchi sanoat inqilobi" bilan bog'liq transformatsiya jarayonlari hayotga joriy qilina borishi bilan bozorga past malakali ishchi kuchi va oddiy kapital taklif qilish bilan cheklanuvchilar emas, balki yangi g'oyalar, biznes modellar, tovar va xizmatlar taklif qilish orqali innovasion yo'naltirilgan ekotizimlarda to'laqonli qatanasha olishga tayyor bo'lganlar g'oliblar safida bo'ladilar"³⁰.

Hozirning o'zida rivojlangan davlatlar yalpi ichki mahsulotining o'sishida 70 foizdan 90 foizgacha qismi aynan ilg'or bilimlarga asoslangan texnologiyalar va mahsulotlarga, jihozlar va qurilmalarga to'g'ri kelishi ekspertlar tomonidan ta'kidlanmoqda³¹. Natijada aynan innovasion yondashuvlarni iqtisodiyotga joriy qilish bozor raqobatining hal qiluvchi omiliga aylanganligi, o'z iqtisodiyotida ko'proq zamonaviy texnologiyalarga asoslangan davlatlar ko'proq foyda olishga erishayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Aynan shu nuqtai nazardan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025 yil 26 dekabr kuni e'lon qilingan Murojaatnomasi va unda ilgari surilgan g'oyalar mamlakat iqtisodiyotining kelajagi uchun nihoyatda muhim, konseptual ahamiyatga ega³².

Chunki, Murojaatnomada mamlakat rahbari O'zbekistonning amalda o'z taraqqiyotidagi yangi sifat darajasiga – texnologik-innovasion o'sish modeliga o'tkazish, ishlab chiqarishning barcha sohalarini shu maqsadlardan kelib takomillashtirishni 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi eng muhim vazifalar qatorida ko'rsatib o'tdi.

Ushbu o'zgarishlar Murojaatnomada ta'kidlanganidek, qisqa muddatda, ya'ni 2030 yilgacha mamlakat iqtisodiyoti hajmini 240 mlrd dollardan oshirish, shu orqali O'zbekistonni yaqin yillarda o'z tarixida ilk bor daromadi jon boshiga o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish bilan bog'liq maqsadning amalga oshishida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Asosiysi, mazkur ko'rsatkichlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasdan, balki juda jiddiy asoslarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu prognozlarni Xalqaro valyuta jamg'armasi va nufuzli ekspertlar ham tasdiqlamoqda³³.

Bevosita texnologik va innovasion o'sish modeliga to'xtaladigan bo'lsak, bu iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida tizimli ravishda yangi texnologiyalar, bilimlar va innovatsiyalarni yaratish, joriy qilish, shu orqali yuqori texnologik iqtisodiyotni shakllantirishga, ishlab chiqarish samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirib borishga, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni

³⁰ Шваб К. Четвертая промышленная революция. М.: "Эксмо", 2016. С.73-74.

³¹ С.Ю. Глазьев, Д.А. Митяев, С.П. Ткачук О возможностях экономического развития ЕАЭС в долгосрочной перспективе. Научный доклад . М.: Научный совет РАН по комплексным проблемам евразийской экономической интеграции, модернизации, конкурентоспособности и устойчивому развитию, 2023. С.5.

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

³³Fitch Upgrades Uzbekistan to 'BB'; Outlook Stable//

<https://www.fitchratings.com/research/sovereigns/fitch-upgrades-uzbekistan-to-bb-outlook-stable-26-06-2025>; Transition Report on Uzbekistan// ebrd.com: C:/Users/Hp/Downloads/Transition-Report-2024-25-Uzbekistan%20.pdf.



ta'minlashga asoslanuvchi iqtisodiy model hisoblanadi. **Bunday taraqqiyot modelida** rivojlanish, avvalo, **inson kapitali, ilm va innovatsiyalarga investisiyalar kiritish** hal qiluvchi ahamiyatga ega³⁴.

Ushbu modelga o'tish innovatsiyalar va texnologiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy generatoriga aylantirib, mamlakatga uzoq muddatli iqtisodiy o'sish istiqbollari ta'minlab beradi, yangi mahsulotlar yaratilishi asosida xalq xo'jaligida zamonaviy yo'nalishlarning, qolaversa ushbu mahsulotlar atrofida yangi bozorlarning vujudga kelishiga, mahsulotlar raqobatbardoshligining oshishiga turtki beradi. Qolaversa, yangi texnologik darajadagi ishlab chiqarish unda ishlay oladigan yuqori malakali ishchilar soning oshib borishiga, demakki, ta'lim tizimining mutlaqo yangi talablar asosida qayta qurilishiga, sifat jihatidan takomillashib borishiga o'ziga xos drayver vazifasini bajaradi.

Mamlakat iqtisodiyotiga bunday zamonaviy yondashuvlarning kirib kelishi nafaqat mamlakat iqtisodiyoti hajmini belgilangan 240 mlrd dollar darajasiga olib chiqish, balki yalpi ichki mahsulot tarkibini o'zgartirishga, unda yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ulushining oshishiga, ishchi kuchi sifat tarkibining o'zgarishiga va qator boshqa ijobiy o'zgarishlariga asos yaratadi.

Murojaatnomaning muhim jihati, unda faqatgina mamlakatning texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tishi zarurligini asoslash bilan cheklanilmagan, balki bu yo'lda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar doirasi ham aniq ko'rsatib berilgan. Jumladan:

- erkin iqtisodiy zonalarga (EIZ) dunyoning mashhur brendlari jalb qilish;
- EIZ uchun maxsus investitsiyaviy, soliq, bojxona va huquqiy tartiblar joriy etish;
- yangi texnologik bosqichga o'tish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha sanoatni rivojlantirish dasturini amalga oshirish;
- sanoatda “unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish” dasturini boshlash;
- sanoat korxonalarini uchun xorijdan yuqori malakali texnolog va muhandislarni jalb etish;
- biznes jarayonlarini raqamlashtirish, ilg'or texnologiyalar transferini amalga oshirish;
- mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish uchun texnik tartibga solish maqsadida “davlat nazorati” tizimidan xalqaro tajribada yuqori samara bergan “bozor nazorati” tizimiga o'tish;
- Markaziy bankda moliyaviy texnologiyalar ofisi va innovatsion xab tashkil etish va ularga Singapurdan mutaxassislarni jalb etish;
- vyenchor fondlar, startaplar, moliyaviy texnologiyalar kabi yangi moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish kabi iqtisodni yuqori texnologik va innovatsion yo'lga o'tkazishda muhim bo'lgan aniq yo'nalishlar belgilab berildi.

³⁴ Красова Е.В. Развитие экономики в контексте взаимосвязи технологий, капитала, человека и общества// Общественные науки и современность. 2024. № 3. С. 21–35. Identifying the Main Drivers of Productivity Growth// https://www.oecd.org/en/publications/identifying-the-main-drivers-of-productivity-growth_00435b80-en.html.



Ushbu vazifalarning bajarilishi yaqin kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyotining qiyofasini o‘zgartirib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmida aynan innovasion yondashuvlarga asoslangan mahsulotlarning o‘rni bosqichma-bosqich oshib borishiga, kasbga tayyorlash tizimida zamonaviy talablardan kelib chiquvchi o‘zgarishlarga, mehnat bozorining o‘zgarishiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Шваб К. Четвертая промышленная революция. М.: ”Эксмо”, 2016.
3. С.Ю. Глазьев, Д.А. Митяев, С.П. Ткачук О возможностях экономического развития ЕАЭС в долгосрочной перспективе. Научный доклад . М.: Научный совет РАН по комплексным проблемам евразийской экономической интеграции, модернизации, конкурентоспособности и устойчивому развитию, 2023.
4. Красова Е.В. Развитие экономики в контексте взаимосвязи технологий, капитала, человека и общества// Общественные науки и современность. 2024. № 3. С. 21–35.
5. Are you ready for the technological revolution?// weforum.org/stories/2015/02/are-you-ready-for-the-technological-revolution
6. Fitch Upgrades Uzbekistan to 'BB'; Outlook Stable// <https://www.fitchratings.com/research/sovereigns/fitch-upgrades-uzbekistan-to-bb-outlook-stable-26-06-2025>
7. Transition Report on Uzbekistan// [ebrd.com: C:/Users/Hp/Downloads/Transition-Report-2024-25-Uzbekistan%20.pdf](https://www.ebrd.com/Content/Downloads/Transition-Report-2024-25-Uzbekistan%20.pdf).
8. Identifying the Main Drivers of Productivity Growth// https://www.oecd.org/en/publications/identifying-the-main-drivers-of-productivity-growth_00435b80-en.html



ЭВОЛЮЦИЯ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ КРЕДИТНОГО РИСКА В КОРПОРАТИВНОМ БАНКИНГЕ

Шарапов С.Ф.

Специалист в ТВС Банке

Аннотация: Целью данной работы является теоретическое осмысление и практический анализ эволюции методов оценки кредитного риска в корпоративном сегменте. В работе исследуется переход от дискриминантных моделей и классического финансового анализа к современным нейросетевым архитектурам и методам работы с Big Data. Особое внимание уделяется оценке эффективности гибридных моделей, сочетающих традиционную финансовую устойчивость с операционными данными в реальном времени, а также анализу этических и регуляторных аспектов применения искусственного интеллекта в банковской практике.

Ключевые слова: Кредитный риск, корпоративный банкинг, машинное обучение, финансовые коэффициенты, альтернативные данные, искусственный интеллект, Big Data, банковский скоринг, предиктивная аналитика, управление рисками, дефолт заёмщика.

Кредитный риск остается фундаментальным вызовом для финансовой устойчивости банковского сектора, составляя основу пруденциального надзора и управления капиталом. В корпоративном банкинге, где суммы сделок велики, а структура бизнеса заёмщиков сложна, точность оценки вероятности дефолта (PD) напрямую определяет не только прибыльность конкретного финансового института, но и стабильность экономики в целом. Однако сегодня привычные подходы к риск-менеджменту проходят через этап радикальной трансформации.

Оценка кредитного риска - центральная задача корпоративного банкинга. Её цель - определить вероятность дефолта заёмщика и скорректировать условия кредитования в соответствии с риском. Исторически банки использовали простые финансовые коэффициенты и регрессионные модели, но с развитием технологий появились структурные и портфельные модели, методы машинного обучения и анализ альтернативных данных.

Рассмотрим эволюцию подходов и ключевые тенденции на раннюю эпоху (1968-1980 года), эпоху логистической рецессии и кредитного скоринга (1980-1990 года), переход к портфельным и рыночно-ориентированным моделям (1990-2025 года) и переход к эре машинного обучения (с 2025 года до сегодняшнего дня). Так, например ранняя эпоха: финансовые коэффициенты и дискриминантный анализ характеризуется моделью Альтмана и финансовые коэффициенты.

В 1968 г. Эдвард Альтман разработал **Z-score** — линейную дискриминантную модель для прогноза банкротств. Модель использовала пять финансовых коэффициентов: оборотный капитал, нераспределённую



прибыль, прибыль до уплаты процентов и налогов (ЕВІТ), рыночную стоимость капитала и выручку; коэффициенты отражали прибыльность, левередж, ликвидность и деловую активность компании. Z-скор приблизительно оценивает вероятность банкротства: значения ниже 1,8 указывают на высокую вероятность дефолта, а значения выше 3 - на устойчивое положение. Модель Альтмана стала основой для современных кредитных скоринговых систем.

В 1980 г. Вигинтон применил **логистическую регрессию** для кредитного скоринга, предложив оценивать вероятность дефолта по множеству переменных и интерпретировать результаты как вероятность принадлежности клиента к «хорошему» или «плохому» классу. Логистическая регрессия остаётся самым распространённым методом кредитного скоринга из-за простоты, прозрачности и хорошей предсказательной силы.

С конца 1990-х годов банки стали использовать портфельные модели для оценки совокупного риска портфеля кредитов. Такие модели учитывали корреляции между заёмщиками и распределение потерь, применяя:

- **Модели интенсивности (Poisson/Cox)**, где дефолт рассматривается как случайный процесс с интенсивностью λ ; модель Ярроу и Тернбулла (1995) использовала константную интенсивность и фиксированную величину потерь, что потом расширилось для учёта изменений интенсивности и макроэкономических факторов.

- **Марковские цепи** для моделирования переходов кредитных рейтингов, где дефолт — поглощающее состояние; эти модели позволяли оценивать вероятности переходов и кредитные спреды.

Рост данных, развитие вычислительных мощностей и потребность в более точных оценках привели к использованию машинного обучения (МО). По данным экспертов, к 2025 году 78 % организаций применяют ИИ хотя бы в одной бизнес-функции, и финансовая отрасль вложила около **21 млрд \$** в ИИ в 2023 году. В банкинге ИИ стал стратегической необходимостью: он повышает операционную эффективность, снижает время рассмотрения сделок и улучшает управление рисками. ИИ активно используется для управления рисками: **модели машинного обучения могут предсказывать дефолты, анализируя поведение клиентов и паттерны транзакций**, точнее, чем традиционные методы. Например, банки применяют градиентный бустинг, случайные леса и нейронные сети для выявления сложных нелинейных зависимостей между финансовыми и поведенческими параметрами.

Использованная литература:

1. Will Kenton. Altman Z-Score: What It Is, Formula, and How to Interpret Results. Updated June 15, 2025
2. Altman E. I. Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy // Journal of Finance. 1968. Vol. 23, No. 4. P. 589–609.
3. World Bank Group. The Use of Alternative Data in Credit Risk Assessment. 2023.



4. Li, Q. (2019). Logistic and SVM credit score models based on Lasso variable selection. *Journal of Applied Mathematics and Physics*, Vol. 7, pp. 1131–1148.



О‘ЗБЕКISTONDA ISLOM MOLIYASI: BUGUN VA ERTAGA

Isayev Alisher Usmonovich

*Hamkorbank ATB Islomiy moliyalashtirish xizmati
bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi zamonaviy moliya bozoridagi faoliyat yuritayotgan islomiy banklar va an’anaviy banklarning ishlash mexanizmlari, huquqiy asoslari hamda daromad shakllanishi tamoyillari o‘rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Islomiy moliya, ribo (sudxo‘rlik), an’anaviy bank, foyda va zarar ni baham ko‘rish, likvidlik, Shariat tamoyillari.*

Аннотация: *В данном тезисе анализируются основные различия между механизмами функционирования, правовыми основами и принципами формирования доходов исламских и традиционных банков, действующих на современном финансовом рынке.*

Abstract: *This thesis analyzes the key differences between the operational mechanisms, legal frameworks, and principles of income generation of Islamic and traditional banks operating in the modern financial market.*

Ключевые слова: *исламские финансы, исламские банки, мурабаха, иджара, мушарака, мудараба, финансовая инклюзия, экономика Узбекистана.*

Annotation: *This thesis analyzes the main differences between the operating mechanisms, legal frameworks, and profit formation principles of Islamic banks and traditional banks operating in the modern financial market.*

Keywords: *Islamic finance, Islamic banking, Murabaha, Ijara, Musharaka, Mudaraba, financial inclusion, Uzbekistan economy.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi moliya bozorining asosi hisoblanadi. Biroq, bu tizim bir xil qoliplardan iborat emas. Bugungi kunda dunyoda ikki xil yirik paradigma mavjud: An’anaviy bank tizimi va Islom moliya tizimi.

An’anaviy bank tizimi XV-XVI asrlarda Yevropada shakllangan kapitalistik modelga asoslangan. Uning markazida "kapitalning vaqtinchalik qiymati" yotadi. Islom moliya tizimi esa VII asrda Shariat tamoyillari asosida shakllangan bo‘lib, u axloq, adolat va real iqtisodiy aktivlarga tayangan iqtisodiy modeldir. Bu ikki tizim nafaqat foiz masalasida, balki risklarni boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat va aktivlar bilan ishlash uslubida ham tubdan farq qiladi. Birinchi navbatda Islom moliyasi nima ekanligiga qisqacha aniqlik kiritib ketsak, Islom moliyasi — bu shariat qoidalariga asoslangan moliyaviy tizim bo‘lib, unda:

- ✓ foiz (ribo) qat’iy taqiqlanadi,
- ✓ noaniqlik (g‘arar) va qimor (maysir)ga yo‘l qo‘yilmaydi,
- ✓ foyda va zarar sheriklik asosida bo‘linadi,
- ✓ puldan pul qilish emas, balki real iqtisodiy faoliyat ustuvor hisoblanadi.



An'anaviy banklar uchun pul o'z-o'zidan qiymat yaratuvchi aktivdir. Bank mijozga pul beradi va ma'lum vaqtdan so'ng uni ko'proq miqdorda (foiz bilan) qaytarib olishni talab qiladi. Bunda pulning o'zi savdo ob'ektiga aylanadi.

Islomiy yondashuvda pul o'z-o'zidan ko'payish xususiyatiga ega emas. Pul faqat real tovar yoki xizmatga aylangandagina qiymat yaratishi mumkin. Islomda Ribo (foiz) qat'iy man etiladi, chunki u mehnat qilmasdan, faqat pulni ijaraga berish orqali daromad topishni anglatadi. Bu esa jamiyatda boylarning asossiz boyishi va kambag'allarning qarz yukiga botishiga olib keladi.



1-rasm. Islom Bank xizmatlarini ko'rsatuvchi banklar istiqbollari

Manba: Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1. An'anaviy va islomiy banklar o'rtasidagi eng muhim farqlardan biri risklarning qanday taqsimlanishidir.

Bank mijozga qarz berayotganda, loyihaning muvaffaqiyatiga qiziqmaydi. Mijoz foyda ko'radimi yoki zarar ko'radimi, bank o'zining foizi va asosiy qarzini undirib olishni talab qiladi. Barcha tijorat riski mijoz zimmasida bo'ladi.

Bu yerda "Al-Ghunm bi al-Ghurm" (Foyda zararga qarab bo'ladi) tamoyili amal qiladi. Bank mijozning loyahasiga sarmoya kiritadi va uning foydasiga ham, zarariga ham sherik bo'ladi. Bu holat bankni mijozga "qarz beruvchi" emas, balki "strategik hamkor" sifatida qarashga majbur qiladi.

Bank mahsulotlarining ishlash mexanizmini quyidagi kengaytirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Mahsulot turi	An'anaviy Bank (Foizli model)	Islomiy Bank (Shariat modeli)
---------------	-------------------------------	-------------------------------



Ipoteka / Avtokredit	Bank pul beradi, mijoz pulni foiz bilan qaytaradi.	Murabaha - Bank mulkni sotib oladi va ustama bilan mijozga sotadi.
Sarmoya kiritish	Bank belgilangan foizni kafolatlaydi.	Mudaraba - Bank foydani bo'lishadi, zarar ko'rilsa kapital egasi yutqazadi.
Biznes hamkorlik	Kredit liniyasi ochiladi va foiz undiriladi.	Musharaka - Bank va mijoz kapital hamda boshqaruvda sherik bo'ladi.
Ijara	Moliyaviy lizing (mulk bankda qoladi).	Ijarat wa Iqtina - Ijara oxirida mulk mijozga o'tadi.
Qarz berish	Har doim foiz bilan.	Qarz al-Hasan - Hech qanday ustamasiz yordam qarzi.

Manba: Raxmonzoda (2024), Svidirov (2018), Antipova (2019) va boshqa internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

An'anaviy obligatsiyalar - bu bankning qarz majburiyatidir va u uchun foiz to'lanadi. Sukuk (Islomiy obligatsiya) - bu loyihaning yoki aktivning ma'lum bir qismiga egalik huquqini beruvchi sertifikatdir. Sukuk egalari foiz emas, balki shu aktivdan tushayotgan foydani (masalan, binoning ijarasidan tushgan pul) oladilar.

2008-yildagi global moliyaviy inqiroz va 2020-yildagi pandemiya davri shuni ko'rsatdiki, islom banklari an'anaviy banklarga qaraganda zarbalarga chidamliroq. Buning asosiy sababi - islom moliya tizimida "virtual pullar" va murakkab derivativlarning (hosilaviy qog'ozlar) yo'qligidir. Islom banklari faqat real aktivlar (binolar, tovarlar, texnikalar) bilan ishlaydi, bu esa iqtisodiy "pufak"lar hosil bo'lishining oldini oladi.

An'anaviy banklar faqat foyda ketidan quvsa, islomiy banklar ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Har bir islomiy bank o'z foydasidan **Zakot** (majburiy xayriya) ajratadi va bu pullar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yo'naltiriladi. Shuningdek, qiyin ahvoldagi mijozlarga foizsiz yordam qarzlari berish tizimi mavjud.

Хулоса

Islomiy va an'anaviy bank tizimlari o'rtasidagi farq shunchaki terminologiyada emas, balki iqtisodiyotga bo'lgan qarashdadir. An'anaviy tizim - samaradorlik, likvidlik va maksimal foydani birinchi o'ringa qo'yadi.

Islomiy tizim - adolat, real aktivlarga tayanish va axloqiy barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun bu ikki tizimning parallel ravishda faoliyat yuritishi moliya bozorida sog'lom raqobatni keltirib chiqaradi va aholining sarmoyalarni iqtisodiyotga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. Raxmonzoda, M. (2024). Islom moliyasi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Toshkent: mahalliy nashr.
3. Svidirov, A. (2018). Islomiy moliya tizimi: nazariya va amaliyot. Moskva: Finansi i statistika.
4. Antipova, N. (2019). Islomiy banklar va moliyaviy barqarorlik. Sankt-Peterburg: Ekonomika.
5. London Stock Exchange Group (LSEG). (2024). Islamic Finance Development Report.
6. Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) rasmiy materiallari.
7. Internet manbalari va ochiq statistik ma’lumotlar.



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

saidrassulovibrohim@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish tizimini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda jahon amaliyotida mol-mulk solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinib, O'zbekistonda mazkur soliq bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Xususan, kadastr qiymatiga asoslangan soliq bazasiga o'tish, soliq stavkalarining progressivlashuvi hamda soliq yukining adolatli taqsimlanishining fiskal va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar, mol-mulk solig'i, soliqqa tortish, kadastr qiymati, soliq bazasi, progressiv soliq stavkalari, mahalliy byudjet, soliq islohotlari.

Jahon amaliyotida mol-mulk solig'i umumiy soliq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Hozirgi kunda dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarida mol-mulkka soliq solish mexanizmlari amalda qo'llanilayotgani qayd etilgan. Ko'pgina davlatlar tajribasida ushbu soliqdan tushadigan tushumlar asosan mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish manbai hisoblanadi. Mazkur tushumlarning mahalliy byudjetlar tarkibidagi ulushi mamlakatlar kesimida turlicha bo'lib, xususan, ko'chmas mulkka soliqdan olinadigan daromadlar ulushi Fransiyada 2,17 foizni, Daniyada 1,85 foizni, Niderlandiya va Italiyada 1,8 foizni, Germaniyada 1,06 foizni hamda Shvetsiyada 0,89 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan davlatlarda mol-mulk solig'i nafaqat mahalliy byudjetlar, balki davlat byudjeti daromadlarida ham sezilarli ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Buyuk Britaniyada ko'chmas mulkka solinadigan soliqlar umumiy byudjet daromadlarining qariyb 10 foiziga tengdir. Bu ko'rsatkich AQShda 9 foizni, Kanadada 8 foizni tashkil etadi. Mazkur raqamlar jaxon amaliyotida mol-mulk solig'ini hisoblash va undirishga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Xalqaro amaliyotda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarni hisoblash masalalari ilmiy tadqiqotlar doirasida keng o'rganilmoqda. Biroq olib borilayotgan izlanishlarda mol-mulk solig'ini hisoblashning o'ziga xos jihatlari, uning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri, shuningdek, mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishda mazkur soliqdan samarali foydalanish imkoniyatlari va uni hisoblash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda «...soliqlarning



barqaror tushumini ta'minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga pozitiv ta'sir etuvchi o'zaro uyg'unlashgan soliq tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda».³⁵ Hozirgi sharoitda aholining to'liq va samarali bandligini ta'minlash, jismoniy shaxslarning mulki hamda aktivlari qiymatining barqaror o'sishini kafolatlash, soliq yukini aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasida adolatli taqsimlash, shuningdek, amaldagi soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash va ularni maqbullashtirish masalalarining dolzarbligi ortib bormoqda. Mazkur omillar jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi va mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning mohiyati jismoniy shaxslar mol-mulkidan samarali va oqilona foydalanishni soliqlar vositasida rag'batlantirish, soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash va bu borada, «har bir tuman va shaharda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish»³⁶, egalikda va foydalanishda bo'lgan mulk va kapitalga ilmiy asoslangan holda soliq solish masalalariga qaratilgan. Hozirda jismoniy shaxslar mol-mulkidan samarali foydalanishning soliq omillari masalasi Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi³⁷ da muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ushbu soliqning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Mol-mulkni soliqqa tortish orqali, bir tomondan, jamiyatdagi boylik kinga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, soliqqa tortish mexanizmi yordamida tartibga solinadi, ikkinchi tomondan esa boylikning ma'lum qismi qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida davlat byudjetiga yo'naltirilib, jamoat xarajatlarini moliyalashtirishga qayta taqsimlanadi. Davlat jismoniy shaxslar mol-mulkining ortib borishidan manfaatdor bo'lsa, jismoniy shaxslar o'z mulklarining daxlsizligi saqlanishidan manfaatdor hisoblanadi. Mazkur manfaatlar muvozanati sharoitida jismoniy shaxslar o'z mol-mulkidan belgilangan stavkalar va tartiblarga muvofiq ravishda davlatga soliq to'lab boradilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni uning mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Mol-mulkni soliqqa tortish jarayonida, bir tomondan, jamiyatdagi boylik egasidan qat'i nazar soliqqa tortish mexanizmi orqali tartibga solinadi, ikkinchi tomondan esa ushbu boylikning muayyan qismi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat byudjetiga jalb etilib, umumiy ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Davlat jismoniy shaxslar mol-mulkining ko'payib borishidan manfaatdor bo'lsa, jismoniy shaxslar

³⁵ O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20 noyabr 2020 yildagi "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №736-sonli Qarori.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №PF-60-sonli Farmoni.



o‘z mulklarining daxlsizligi va huquqiy himoyalanganligidan manfaatdor bo‘ladilar. Ushbu manfaatlar muvozanati sharoitida jismoniy shaxslar o‘z mol-mulkidan belgilangan stavkalar hamda amaldagi tartiblarga muvofiq ravishda soliq majburiyatlarini bajarib boradilar. Mol-mulk solig‘i ob‘ektining bunday tabaqalanishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga soliqlarning samarali ta’sir richaglarini qo‘llashda imkoniyatlarni chegaralab qo‘yadi, chunki aksariyat hollarda ko‘chmas mulk ob‘ektlari ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan yoki foydalanmaydigan mol-mulk bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan rivojlangan davlatlarda, mol-mulknı soliqqa tortishda tijorat faoliyatida qatnashadigan va tijorat faoliyatida qatnashmaydigan asosiy vositalarga ajratgan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning noturar joy ob‘ektlarini tadbirkorlik maqsadida foydalanishga yo‘naltirish darajasi yildan-yilga oshib bormoqda, bu esa ushbu ob‘ektlardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ko‘payishiga olib kelmoqda. Ushbu tendensiya ijobiy hisoblanadi, chunki oxirgi yillarda jismoniy shaxslarning turar joy mulklariga nisbatan maydonga asoslangan tabaqalashtirilgan mol-mulk solig‘i stavkalarining joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatida mulkdan samaraliroq foydalanishni rag‘batlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i tizimli islohotlari mazkur soliq barcha elementlaridagi tegishli o‘zgarishlar bilan bormoqda:

- yangi tartibga ko‘ra, soliq to‘lovchiga soliqqa tortish ob‘ektini sotib olganligi xabarini soliq organlariga etkazish ma’suliyati yuklatildi;
- soliqqa tortish ob‘ektlari soni keskin o‘shishi kuzatilmoqda;
- mulkning ilgari inventarizasiya qiymatidan uning bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymatida baholash tizimiga o‘tilganligi oqibatida soliq bazasi va to‘lanayotgan soliq summasining keskin oshishi;
- 2023 yildan soliq stavkalarining o‘shishi orqali progressiv stavkaning fiskal ahamiyatini oshirish tadbirlari ijrosiga o‘tilganligi;
- soliqqa tortish ob‘ektlari egalari bo‘lgan barcha soliq to‘lovchilarini yaqin kelajakda ko‘chmas mulk solig‘i yukining sekin, lekin barqaror o‘shishi kutmoqdaki, bu holat ayrim fuqarolarni ko‘chmas mulknı soliqqa tortish ob‘ektining birmuncha past chekka hududlariga ko‘chib o‘tishlariga majbur qilishi mumkin va boshqa tomondan esa bu strategiya mahalliy byudjet fiskal bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent, amaldagi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni
“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. Jismoniy shaxslarning mol-mulknı soliqqa tortish bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. Toshkent.



4. Musgrave R.A., Musgrave P.B. *Public Finance in Theory and Practice*. – New York: McGraw-Hill, 1989.
5. Bird R.M., Slack E. *International Handbook of Land and Property Taxation*. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004.
6. Stiglitz J.E. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton & Company, 2000.
7. OECD. *Property Taxation and Fiscal Decentralization*. – Paris: OECD Publishing, 2018.



EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI

Shamurotov Nodirbek Bakbergan o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

“Biznes va boshqaruv“ kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ekologik xavfsizlikni ta'minlashda fuqarolarining ham ekologik madaniyatini oshirish borasida nazariy jihatdan asoslangan fikr va g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida fuqarolar o'rtasida ekologik talablarni qo'yish, ekologik ta'limni rivojlantirish va ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavf-xatarlar, ekologik xavfsizlik, ekologik himoya, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim.

Dunyo miqyosida oxirgi yillarda turli ko'rinishdagi ekologik muammolarning kuchayishi bevosita yashil iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish zaruriyatini yanada oshiradi. Shu bois, iqlim o'zgarishlari ta'sirini yumshatishning muhim belgilaridan biri bu mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qaroriga muvofiq sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari va energiya sarfi hajmini kamaytirish, barcha iqtisodiyot sohalarida suv resurslarini tejatishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turli joylarda ko'chatlar ekish orqali yashil maydon hududlarini yanada kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan[1].

Dolzab masalalardan biri ekologik xavfsizlikni ta'minlashda fuqarolarining ham ekologik madaniyatini oshirish, ta'lim va fanga integratsiya qilish, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ekologik ta'lim-tarbiya tamoyillarini keng targ'ib qilish, yoshlarning ekologik bilimini rivojlantirish, oliy ta'lim tizimida ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish vositalarini keng joriy qillish muhim ahamiyatga ega. Birlashgan millatlar tashkilotining 1992-yil Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada dunyoning barcha mamlakatlarida insoniyatning hayotiy usuli va rivojlanish strategiyasini amalda ekologik tarbiyaning kuchi yuqoriligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda yuqori darajada xavf-xatar sifatida qaralayotgan muammolar aynan inson omilining ekotizimga ekologik munosabatlarida yuzaga kelayotganiga guvoh bo'layapmiz. Atmosferaga turli zaharli gazlarning ko'p miqdorda chiqarilishi, suvning ifloslanishi, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlanishi, flora va faunaga insonlar ta'sirining ortishi va boshqalar ta'siri ortib bormoqda. Bu kabi



holatlarning oldini olishda birinchi navbatda ekologiyani asrash borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini jadallashtirish talab etiladi. Shu jihatdan, aholining bu boradagi ekologik savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Bunday qarashlarni biz farnzandlarimizga maktabdan emas, balki oilada – bola oqu-qorani taniy boshlaganidan boshlab o'rgatishimiz muhim ahamiyatga ega. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan iqtisodiy model hisoblanadi. Ushbu modelni hayotga tatbiq etishda ekologik ta'lim tizimi asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki, ekologik madaniyati yuksak avlodgina atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qodir bo'ladi. Cheklangan resurslardan samarali foydalanish asosida ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, atmosfera ifloslanishini kamaytirish va iqlim o'zgarishining oldini olishga xizmat qiladi. Bu iqtisodiy yo'nalish nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga qaratilgan siyosatdir.

Bugungi kunda ko'plab iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qilmoqda. Ushbu jarayonda ekologik savodxonlik va ekologik ong asosiy ahamiyatga ega, chunki, aholi va yoshlar bu tizimni to'g'ri anglab yetishi, unga amal qilsagina barqaror rivojlanishga erishishi mumkin bo'ladi.

Ekologik ta'lim tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ekologik ta'lim – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabat, resurslarni tejash kabi tushunchalarni talabalar va o'quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim jarayoni hisoblanadi. U insonda ekologik madaniyat, ekologik ma'suliyat va tabiatga ehtiyotkorlik hissini shakllantirishni maqsad qiladi. Ekologik ta'lim yo'nalishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'limda ekologik tarbiyani shakllantirish;
- umumiy o'rta ta'limda ekologik haqidagi bilimlarni berish;
- kasb-hunar va oliy ta'limda ekologik fan va yo'nalishlarni joriy qilish;
- aholi o'rtasida uzluksiz ekologik madaniyatni oshirib borish.

Ekologik ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ekologik ongni shakllantirish – yosh avlodga tabiatga nisbatan ma'suliyatli munosabatni tarbiyalash;
- yashil texnologiyalar haqida bilimlar berish – qayta tiklanuvchi energiya, resurs tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni saralash kabi amaliy ko'nikmalarni o'rgatish;
- ekologik xavfsizlik tamoyillarini tushuntirish – ekologik muammolar va ularning yechimlarini tanishtirish;
- barqaror rivojlanish tamoyillarini o'rgatish – iqtisodiy rivojlanish bilan birga tabiatni asrashning ahamiyatini tushuntirish.

Yurtimizda ekologik ta'limni amalga oshirish quyidagi shakllarini joriy qilish maqsadga muvofiq:

- ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
- laboratoriya ishlarini tashkil qilish;
- ekologik to'garaklar faoliyatini tashkil qilish;



- ekologik klublar faoliyatini shakllantirish;
- tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan turli tadbirlar (ekskursiya, ekspeditsiya va tabiatni asrash borasida aksiyalar o‘tkazish);
- onlayn platformalar va axborot resurslari orqali ta‘lim berish.

Ushbu vazifalar bevosita yoshlarda amaliy ko‘nikma va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim dasturilamal bo‘ladi.

Ekologik ta‘lim nafaqat atrof-muhitni asrashda, balki kelajak avlodning turmush sifati va mamlakatning barqaror rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik ta‘lim nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va ijtimoiy ma‘suliyatni oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda ekologik ta‘limni rivojlantirishni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tashabbuskor yoshlar uchun “yashil” loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;
- ta‘lim muassasalarida ekologik laboratoriyalar faoliyatini tashkil qilish;
- o‘qituvchilarni ham ekologik ta‘lim bo‘yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- ekologiyani asrash borasida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish.

Xulosa o‘rnida aytganda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda ekologik ta‘lim ta‘lim tizimi mamlakatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ekologik savodxonlikka ega aholi resurslaridan oqilona foydalanadi, tabiatni muhofaza qiladi va ekologik muammolarni yechishda faol ishtirok etadi. Shu jihatdan, mamlakatda ekologik ta‘limni takomillashtirish va uni barcha bosqichlarida rivojlantirish zarur ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436 sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2023 yildagi “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida” gi 362-sonli qarori.



QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINING O‘RNI

Yaxshibayev Ulug‘bek Shavkat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: u.yaxshibaev_0808@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish dasturlarining zaruriyati va o‘rni yoritilgan. Shuningdek, qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish dasturlari zarurligini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются необходимость и роль программ по сокращению бедности в сельских районах. Также представлены выводы исследования о необходимости программ по сокращению бедности в сельских районах.

Abstract. This article discusses the need and role of poverty reduction programs in rural areas. It also presents conclusions on the study of the need for poverty reduction programs in rural areas.

Kalit so‘zlar. Qishloq, hudud, qishloq hududlari, kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, dastur.

Ключевые слова. Деревня, район, сельская местность, бедность, сокращение бедности, программа.

Key words. Village, area, rural areas, poverty, poverty reduction, program.

Qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qishloq joylarda aholining daromad manbalari cheklanganligi, ish o‘rinlarining kamligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani kambag‘allik darajasini oshiradi. Bu borada respublikada kambag‘allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, ushbu ishlarga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-93-son Farmoni [1] qabul qilindi. Shu bois, davlat tomonidan maxsus ishlab chiqiladigan kambag‘allikni qisqartirish dasturlari chora-tadbirlar shaklida qishloq aholisini qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston modernizatsiya va taraqqiyotning ulkan kun tartibiga kirishar ekan, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar uning siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida markaziy o‘rinni egalladi [2]. Ushbu dasturlar faqat ijtimoiy yordam berish bilan cheklanib qolmay, balki aholining iqtisodiy faolligini oshirish, inson



kapitalini rivojlantirish va qishloq hududlarining institutsional salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan bo'лади.

Qishloq hududlarida kambag'allikning asosiy xususiyati uning tizimli va uzoq muddatli xarakterga ega ekanligini ifodalaydi. Kambag'allik past daromad va ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga cheklangan kirish imkoniyati bilan tavsiflanadi. Bu boradagi tadqiqotlarda qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'limni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va infratuzilmani yaxshilash kabi asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqiladi [3]. Shu nuqtai nazardan, kambag'allikni qisqartirish dasturlari aholining barqaror daromad manbalarini yaratish, qishloq joylarda ish bilan bandlikni oshirish, ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash hamda kambag'allikning avlodan-avlodga o'tishiga barham berish kabi ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ushbu dasturlar orqali davlat qishloq aholisi uchun imkoniyatlar yaratadi va ularni ijtimoiy himoya bilan birga iqtisodiy faollikka jalb etadi.

Shuningdek, qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirish dasturlari mazmun-mohiyatiga ko'ra bir nechta yo'nalishlarga bo'linadi.

- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari. Bu turdagi dasturlar kam ta'minlangan oilalarga manzilli ijtimoiy yordam, nafaqalar, moddiy ko'mak berishga qaratilgan. Ular qisqa muddatda aholining eng ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlaydi.

- iqtisodiy faollikni oshirish dasturlari. Ushbu dasturlar aholini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, mikroreditlash va kasb-hunarga o'qitishni o'z ichiga oladi. Bu esa kambag'allikni bartaraf etishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

- infratuzilmani rivojlantirish dasturlari. Yo'llar, elektr ta'minoti, suv va aloqa tizimlarini yaxshilash orqali qishloq hududlarining iqtisodiy jozibadorligi oshadi va investitsiyalar jalb qilinadi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan kambag'allikni qisqartirish dasturlari quyidagi yo'nalishlarda qishloq hududlarini rivojlantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi:

- davlat dasturlari asosida kambag'allikka qarshi kurash tizimli va maqsadli tarzda olib boriladi. Bu dasturlar milliy va hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtiriladi.

- davlat dasturlari orqali budjet mablag'lari, xalqaro grantlar va investitsiyalar qishloq hududlariga yo'naltiriladi. Bu esa yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- dasturlar doirasida mahalliy boshqaruv organlari faoliyati takomillashtiriladi, aholi bilan ishlash mexanizmlari yaxshilanadi.

Qishloq hududlarida amalga oshirilayotgan dasturlar ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga olib keladi. Ya'ni, daromadlar oshishi, ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi aholining hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allik qisqarishi ijtimoiy keskinlikni kamaytiradi, jamiyatda barqarorlik va ishonchni mustahkamlaydi. Ta'lim va sog'liqni saqlashga qaratilgan dasturlar orqali qishloq aholisining bilim va salohiyati oshadi. Shu bilan birga, kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida mablag'lardan samarali foydalanmaslik xavfi, aholining faol ishtirok etmasligi, mahalliy darajada boshqaruv salohiyatining



pastligi hamda monitoring va baholash mexanizmlarining yetarli emasligi kabi ayrim muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun dasturlarni amalga oshirishda shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Xulosa shuki, qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirish dasturlari mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu dasturlar orqali aholining daromad manbalari kengayadi, ish bilan bandlik oshadi va ijtimoiy himoya tizimi mustahkamlanadi. Eng muhimi, kambag'allikni qisqartirish dasturlari qishloq aholisini faqat yordam oluvchi emas, balki faol iqtisodiy sub'ekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik bu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6493069?query=Qishloq>

2. Tuykulov A.K. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari. // "Science and Education" Scientific Journal, April 2025, Volume6, Issue4. - 355 b.

3. Xudoyberdiyeva O.Q. Mintaqaviy chekka qishloq xududlarida kambag'allikni qisqartirish usullari. // The Multidisciplinary Journal of Science and Technology, Vol.5, No.3, 2025. - 868-872 b.



YIRIK TRANSMILLIY KORPORATSIYALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH STRATEGIYALARI

Ismoilov Shapaxat Sodiqovich^{1,2}

¹Termiz Davlat Universiteti

²Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
ishapaxat@gmail.com

Annotatsiya Ushbu tadqiqot ishi global transmilliy korporatsiyalar (TMK) tomonidan buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat jarayonlariga sun'iy intellekt (SI) tizimlarini integratsiya qilish metodologiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda yirik korporatsiyalarning murakkab ierarxik tuzilmalarida SI texnologiyalarining ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashdagi samaradorligi tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha so'nggi yillardagi qonunchilik hujjatlari doirasida xalqaro tajribaning milliy amaliyotga tatbiq etilishi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot 2020–2025-yillar oralig'idagi xalqaro statistik ko'rsatkichlar va yetakchi TMKlar tajribasiga asoslangan bo'lib, kelajakdagi tendensiyalar bo'yicha ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: transmilliy korporatsiyalar, sun'iy intellekt, buxgalteriya hisobi, raqamli transformatsiya, kognitiv texnologiyalar, avtomatlashtirish, moliya auditori, Big Data, global moliya bozori.

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti sharoitida yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatini boshqarishda moliyaviy ma'lumotlarning hajmi va murakkabligi keskin ortib bormoqda. Bunday sharoitda an'anaviy buxgalteriya hisobi usullari global operatsiyalarni tezkor va xatosiz qayta ishlash talablariga javob bera olmaydi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini buxgalteriya va boshqaruv hisobiga joriy etish TMKlar uchun nafaqat operatsion samaradorlik, balki strategik raqobat ustunligini ta'minlovchi hal qiluvchi omilga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi ham global iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida raqamli texnologiyalarni, xususan, SI tizimlarini barcha sohalarga, jumladan, moliya va hisob tizimiga tatbiq etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda 2022-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-yil uchun davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni doirasida moliya tizimini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Shu nuqtayi nazardan, jahonning yirik TMKlari (masalan, "Katta to'rtlik", Amazon, Microsoft) tajribasini o'rganish



O'zbekistondagi yirik korporativ tuzilmalar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

SI va buxgalteriya hisobi integratsiyasi masalalari xalqaro miqyosdagi yetakchi olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. R. Kaplan va D. Norton o'zlarining so'nggi tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning korporativ boshqaruv hisobidagi rolini "strategik intellekt" tushunchasi orqali asoslab berganlar. Ch. Xorngren boshqaruv hisobida SI algoritmlari orqali tannarxni prognozlashning matematik modellarini ishlab chiqqan bo'lsa, S. Kots moliya auditida kognitiv texnologiyalarning metodologik tamoyillarini takomillashtirgan. Mahalliy olimlardan B.A. Xasanov, A.A. Karimov va S.N. Tashnazarovlar buxgalteriya hisobida raqamli transformatsiya va MHXS integratsiyasini tadqiq etib, milliy hisob tizimini SI texnologiyalariga moslashtirish bo'yicha ilmiy takliflar berganlar.

Global transmilliy korporatsiyalar buxgalteriya hisobida SI texnologiyalarini asosan uchta yo'nalishda qo'llamoqda: kognitiv avtomatlashtirish, bashoratli tahlil (predictive analytics) va firibgarlikni aniqlash. Masalan, "Katta to'rtlik" audit kompaniyalaridan biri bo'lgan Deloitte "Argus" SI platformasini joriy etish orqali yuz minglab shartnomalarni bir necha soniya ichida tahlil qilib, buxgalteriya hisobidagi xavflarni aniqlamoqda. Amazon korporatsiyasi esa o'zining global ta'minot zanjiri va ichki hisob-kitoblarida SI yordamida inventarizatsiya jarayonlarini 95 foizga avtomatlashtirgan.

Shuningdek, Microsoft korporatsiyasi SI yordamida o'zining global moliyaviy hisobotlarini shakllantirish vaqtini 10 kundan 2 kunga qisqartirishga erishdi. Bu jarayonda "Machine Learning" (mashinali o'qitish) algoritmlari tranzaksiyalarni avtomatik tarzda tegishli schyotlarga biriktiradi va MHXS talablari asosida konsolidatsiyalashgan hisobotni tayyorlaydi.

Xalqaro moliya va audit institutlarining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025-yillar oralig'ida TMKlarda SI texnologiyalari ta'sirida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: Global miqyosda TMKlarning moliyaviy texnologiyalarga (FinTech) sarflagan yillik xarajatlari 2020-yildagi 145 mlrd dollardan 2024-yilda 310 mlrd dollargacha oshdi. SI tizimlari joriy etilgan korporatsiyalarda buxgalteriya hisobi bo'limlarining operatsion xarajatlari 2021–2024-yillar davomida o'rtacha 35-40 foizga qisqardi. 2023-yilgi xalqaro audit hisobotlariga ko'ra, SI yordamida o'tkazilgan audit tekshiruvlarida moliyaviy firibgarlik va xatoliklarni aniqlash darajasi inson mehnatiga qaraganda 4,5 barobar yuqori bo'lgan. 2020-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda buxgalteriyada "kichik mutaxassislar" (data entry) soni 30 foizga kamaygan, biroq "moliyaviy tahlilchi" va "SI operatori" kasblariga bo'lgan talab 50 foizga oshgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalarini TMKlarda qo'llash nafaqat texnik jarayon, balki boshqaruv falsafasining o'zgarishidir. SI tizimlari TMKlar tarkibidagi turli davlatlarda joylashgan filiallar o'rtasidagi transfert narxlarni (transfer pricing) real vaqt rejimida monitoring qilish va soliq bazasini optimallashtirish imkonini beradi. O'zbekistondagi yirik holdinglar uchun ushbu tajriba MHXSGa o'tish jarayonida ma'lumotlarni xalqaro audit talablariga muvofiqlashtirishda juda muhim. Biroq, SI joriy etishda kiberxavfsizlik va axloqiy masalalar (data privacy) eng katta to'siq bo'lib qolmoqda. 2025-yilga



kelib jahon korporatsiyalarining 80 foizi buxgalteriya hisobida "shaffof algoritmlar" (Explainable AI) tamoyilini qo'llashni rejalashtirmoqda, bu esa hisobotlarning ishonchliligini yanada oshiradi.

Yirik transmilliy korporatsiyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt buxgalteriya hisobini an'anaviy "hisob-kitob" markazidan "strategik tahlil" markaziga aylantirmoqda. 2020–2025-yillardagi ijobiy dinamika O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham muhim dars bo'lib xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyotga SI texnologiyalarini joriy etish orqali korporativ boshqaruvning shaffofligini oshirish, investitsiya jozibadorligini mustahkamlash va moliya tizimining global integratsiyasini tezlashtirish mumkin. Kelgusida TMKlar kabi milliy yirik soliq to'lovchilar uchun SI asosidagi intellektual buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi: raqamli transformatsiya va MHXS. – T.: Iqtisod-moliya, 2023. – 420 b.
2. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va tahlilida innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2024. – 350 b.
3. Horngren Ch.T., Datar S.M. Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 17th Edition. – Pearson, 2023.
4. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari metodologiyasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2025.
5. Deloitte Insights. Artificial Intelligence in Finance: Global Survey Report 2024. – New York: Deloitte University Press, 2025.



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA METODOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Juroyev Bobomurod Boykulovich
O‘zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy transformatsiyasining zamonaviy sharoitida «uchinchi sektor» — nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) rolining sezilarli darajada oshishi kuzatilmoqda. Ushbu fuqarolik jamiyati institutining samarali faoliyat yuritishi shaffof, ilmiy asoslangan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini qurmasdan turib imkonsizdir. Tadqiqotning dolzarbligi Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) xalqaro donorlar talablari va maqsadli moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu amaliy faoliyatda ma‘lum bir metodologik ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekistonda NNT faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solish Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi va «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonunga asoslanadi [1]. NNTda hisob jarayonining asosiy xususiyati uning dualistik (ikki yoqlama) tabiatidir: bir tomondan, tashkilot maqsadli mablag‘larning ishlatilishi ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlashi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan — agar ustavda ko‘zda tutilgan bo‘lsa, tadbirkorlik faoliyatining alohida hisobini yuritishi lozim. Iqtisodchilarning tadqiqotlariga ko‘ra, moliyalashtirish oqimlarining aniq ajratilmasligi NNTlar uchun asosiy soliq xatarlaridan biri hisoblanadi [2].

Notijorat sektor rivojlanish dinamikasining iqtisodiy tahlili barqaror o‘shishni ko‘rsatmoqda. 2020–2024-yillarni qamrab olgan statistik tahlil ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan NNTlar soni 20 foizdan ortiqqa oshib, 10 000 ta subyekt chegarasidan o‘tdi. Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalari tarkibida o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Agar 2018–2019-yillarda xalqaro grantlar (sektor budjetining 60 foizigacha) ustunlik qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib davlat subsidiyalari, ijtimoiy buyurtmalar va Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondlari grantlarining ulushi umumiy tushumlar hajmining 45 foizigacha yetdi. Bu esa buxgalterlardan daromadlarni tan olish yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi, chunki budjetdan moliyalashtirish xususiy xayriyalarga qaraganda hisobotlilik bo‘yicha qat‘iyroq mezonlarni nazarda tutadi.

Metodologik jihatdan NNTda hisob hisoblash (accrual) tamoyiliga asoslanadi, biroq maqsadli tushumlarni tan olish qismida o‘ziga xosliklarga ega. 21-sonli BHMSga muvofiq, ustav faoliyatini amalga oshirish uchun olingan mablag‘lar olingan vaqtda daromad sifatida tan olinmaydi, balki o‘z kapitali va majburiyatlar hisobida aks ettiriladi (8800 — «Maqsadli tushumlar» hisobvarag‘i). Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, grant mablag‘larini xarajat qilinganlik faktiga bog‘lamasdan,



joriy davr daromadi sifatida muddatidan oldin tan olish tipik xato hisoblanadi. Bu moliyaviy natijaning buzilishiga va foyda solig'i yoki aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha asossiz soliq bazasining paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, grant olinganda o'tkazma 8810 — «Grantlar» hisobvarag'ining krediti bo'yicha amalga oshirilishi, daromadlarga (9300-hisobvaraqlar) hisobdan chiqarish esa — qat'iy ravishda hisoblangan xarajatlarga mutanosib ravishda bajarilishi lozim.

Soliqqa tortish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririga (2020-yildan kuchga kirgan va 2024–2025-yillarda to'ldirilgan) asosan, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadli tushumlar, ulardan maqsadli foydalanish sharti bilan, jami daromad tarkibiga kiritilmaydi [3]. 2023-yilgi soliq tekshiruvlari statistikasi shundan dalolat beradiki, soliqlarni qo'shimcha hisoblash holatlarining 15 foizi aynan mablag'lardan maqsadsiz foydalanish yoki xarajatlarning ustav maqsadlariga bog'liqligini tasdiqlovchi hujjatlarning yo'qligi bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi NNTlar uchun alohida hisob yuritish majburiyati saqlanib qolmoqda. O'zbekiston NNTlarida ma'muriy xarajatlar koeffitsienti (General and Administrative Expenses — G&A) 10–20% oralig'ida o'zgarib turadi, bu xalqaro amaliyotga mos keladi, biroq qonunchilikda jamoat fondlaridan tashqari boshqa barcha turdagi NNTlar uchun ma'muriy xarajatlarning qat'iy chegarasi belgilanmagan (jamoat fondlarida bu chegara aniq reglamentlangan).

Maqsadli moliyalashtirish hisobidan sotib olingan asosiy vositalar hisobi muammoli jihat bo'lib qolmoqda. Tijorat sektorida amortizatsiya soliq bazasini kamaytiruvchi xarajat sifatida tan olinadi. NNTda esa, metodologik tavsiyalarga ko'ra, maqsadli mablag'lar hisobidan olingan asosiy vositalarning eskirishi balansdan tashqari hisoblanadi yoki asosiy vositalar fondi hisobidan qoplanadi. Bu moliyaviy natijaga ta'sir qilmaydi, ammo aktivlarning real qiymatini baholash uchun balansda to'g'ri aks ettirishni talab qiladi. 50 ta yirik NNTning moliyaviy hisoboti tahlili shuni ko'rsatdiki, tashkilotlarning 30 foizi maqsadli asosiy vositalarga eskirish hisoblamaydi, bu esa balans valyutasining oshib ketishiga va sof aktivlarning real qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarning buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, NNTda buxgalteriya hisobini takomillashtirish har bir grant va donor bo'yicha alohida hisobni («project accounting») avtomatlashtirish imkonini beruvchi ixtisoslashgan dasturiy mahsulotlarni joriy etishni talab qiladi. Shuningdek, xarajatlar smetasiga rioya etilishi ustidan ichki nazoratni kuchaytirish zarur. NNTning iqtisodiy samaradorligi foyda bilan emas, balki kiritilgan mablag' birligiga to'g'ri keladigan ijtimoiy samara ko'rsatkichi bilan baholanishi kerak, bu esa moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni yagona hisobot tizimiga integratsiya qilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. O‘zbekiston Respublikasining 14.04.1999-yildagi 763-I-son «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonuni (2024-yilgi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. Pardayev A.X., Pardayev B.A. Nodavlat notijorat tashkilotlarida boshqaruv hisobi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 145-b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrirda). O‘zR 30.12.2019-yildagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan (01.01.2025-yil holatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
4. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) 21-son «Ho‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisoblar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma».
5. Abdullayev A.S. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida NNTda soliqqa tortish va hisobning o‘ziga xos xususiyatlari // Iqtisodiyot va moliya (O‘zbekiston). — 2023. — № 4. — 52–58-b.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТА’ЛИМ СИФАТИНИ
ОШИРИШДА ДИРЕКТОРНИНГ ПЕДАГОГИК ЖАМОА БИЛАН ИШЛАШ
УСУЛЛАРИ

Diliyeva Zuhra Uktamovna
Navoiy viloyati Navbahor tuman
“Mashhura” nomli
ONMTT direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishda direktorning pedagogik jamoa bilan ishlash usullari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Unda direktorning rahbarlik faoliyati, pedagogik jamoani boshqarish, metodik ishlarni tashkil etish hamda ta’lim jarayonini monitoring qilishdagi roli yoritilgan.

Kalit soʻzlar: maktabgacha ta’lim, ta’lim sifati, direktor, pedagogik jamoa, boshqaruv, monitoring, metodik ishlar.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, unda ta’lim va tarbiya sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim toʻgʻrisida”gi hamda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya toʻgʻrisida”gi qonunlar, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini taʼminlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti jamiyatda barkamol, sogʻlom va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda muhim boʻgʻin hisoblanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va sifatli olib borilishida ta’lim tashkiloti direktorining oʻrni beqiyosdir. Direktor maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari sifatida ta’lim-tarbiya jarayonini boshqaradi, pedagogik jamoani birlashtiradi hamda tashkilot faoliyatining barcha yoʻnalishlari uchun mas’ul hisoblanadi.

Avvalo, direktor ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va sifatiga bevosita javobgar shaxsdir. U davlat ta’lim standartlari, oʻquv dasturlari va meʼyoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta’lim jarayonining toʻgʻri tashkil etilishini taʼminlaydi. Direktor tomonidan yillik ish rejalari ishlab chiqiladi, hamda ta’lim jarayonining uzluksizligi nazorat qilinadi.

Direktorning muhim vazifalaridan biri — pedagogik jamoani boshqarish va rivojlantirishdir. U tarbiyachilar va boshqa xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga alohida eʼtibor qaratadi. Shuningdek, direktor pedagoglarning ish faoliyatini tahlil qiladi, metodik yordam koʻrsatadi va ilgʻor pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishga rahbarlik qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga bir necha talablar boʻlib ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi.

1. Kasbiy va malakaviy talablar



Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lishi hamda maktabgacha ta'lim sohasida yetarli ish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

2. Boshqaruv va rahbarlik kompetensiyasi

Direktor ta'lim tashkilotining faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik jamoani boshqarish, qarorlar qabul qilish va ijrosini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish rahbarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

3. Pedagogik jarayonni tashkil etish talabi

Direktor davlat maktabgacha ta'lim standartlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishini ta'minlashi lozim. U mashg'ulotlar sifati, tarbiyachilarning metodik faoliyati va bolalarning rivojlanish darajasini nazorat qiladi.

4. Pedagog kadrlar bilan ishlash talabi

Direktor pedagog kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi. Pedagoglarning mehnatini baholash va rag'batlantirish ham direktor vakolatiga kiradi.

5. Axloqiy va shaxsiy fazilatlar talabi

Direktor yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, halollik, mas'uliyat, adolat va namunalilikni o'z faoliyatida namoyon etishi talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga qo'yilgan talablar normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan bo'lib, ularning to'liq va samarali bajarilishi ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Ta'lim sifatini oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki direktor nafaqat ma'muriy boshqaruvni amalga oshiradi, balki pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, tarbiyachilarni qo'llab-quvvatlovchi, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantiruvchi yetakchi shaxs hisoblanadi. Pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatini to'g'ri yo'naltirish va rag'batlantirish orqali ta'lim jarayonining sifati sezilarli darajada oshadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori bir necha usullarda pedagog xodimlar o'rtasida ta'lim tabiia jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

1. Pedagogik kouching (coaching) usuli.

Pedagogik kouching usuli direktor va pedagog o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan zamonaviy boshqaruv yondashuvi hisoblanadi. Ushbu usulda direktor tarbiyachiga tayyor ko'rsatmalar berishdan ko'ra, uni mustaqil tahlil qilishga, o'z faoliyatini baholashga va muammolarga yechim topishga yo'naltiradi. Kouching jarayonida ochiq savollar, muhokama va refleksiya asosiy o'rin tutadi. Bu esa pedagoglarda mas'uliyat hissi, kasbiy ishonch va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Natijada ta'lim jarayonining sifati oshib, tarbiyachilar faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

2. Mentorluk (ustoz–shogird) tizimini joriy etish.



Mentorluk tizimi pedagogik jamoada tajriba almashinuvini ta'minlovchi samarali mexanizmlardan biridir. Ushbu usulda direktor tajribali tarbiyachilarni yosh yoki ish faoliyatini endigina boshlagan pedagoglarga biriktiradi. Mentor pedagog shogirdiga mashg'ulotlarni rejalashtirish, metodlarni tanlash va bolalar bilan ishlash jarayonida amaliy yordam ko'rsatadi. Bu tizim yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini tezlashtirib, jamoada o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlaydi.

3. Interfaol pedagogik kengashlar

Interfaol pedagogik kengashlar pedagoglarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy boshqaruv shaklidir. Bunday kengashlarda direktor muammolarni bir tomonlama bayon qilishdan ko'ra, muhokama, guruhiy ishlar va tahlil usullarini qo'llaydi. Interfaol metodlar pedagoglarda mustaqil fikrlashni rivojlantirib, jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ta'lim jarayonida samarali hamkorlikni yuzaga keltiradi.

4. Rag'batlantirish va motivatsiya tizimini rivojlantirish

Pedagogik jamoani rag'batlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Direktor tomonidan tashkil etilgan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi pedagoglarning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Rag'batlantirish jarayonida pedagoglarning yutuqlari e'tirof etilib, ularning kasbiy o'sishiga sharoit yaratiladi. Bu esa jamoada sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor ta'lim-tarbiya jarayonining bosh tashkilotchisi va yetakchi rahbari sifatida muhim o'rin egallaydi. U ta'lim tashkilotining umumiy faoliyatini rejalashtiradi, boshqaradi va nazorat qiladi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining davlat talablari asosida samarali olib borilishini ta'minlaydi. Direktorning bilimdonligi, boshqaruv salohiyati va pedagogik tajribasi ta'lim jarayonining mazmuni va sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. 09.10.2023-y
2. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Darslik. N.T.Tosheva "Kamolot" nashriyoti. Buxoro – 2022
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. N.N.Azizxo'jayeva. Toshkent-2006



**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA TA’LIMY
FAOLIYATLAR JARAYONIDA BOLALAR IJODKORLIGINI
OSHIRISHDA O’YINNING AHAMIYATI**

Jabborova Intizor Olimovna
Zarafshon shahar 18-sonli
“Qaldirg‘och” nomli
DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatlar jarayonida bolalar ijodkorligini rivojlantirishda o’yinning pedagogik ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqotda o’yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi ekanligi asoslab berilib, uning bolalarning ijodiy tafakkuri, tasavvuri, mustaqil fikrlashi, nutqi hamda ijtimoiy-emotsional rivojiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Maktabgacha ta’lim, ta’limiy faoliyat, o’yin texnologiyalari, bolalar ijodkorligi, ijodiy tafakkur, rolli-syujetli o’yinlar, didaktik o’yinlar, ijodiy o’yinlar, tarbiyachi faoliyati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi bu o’yindir. Bu yoshdagi bolalarning o’yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko’p olimlarning diqqatini o’ziga jalb qilib kelmoqda. Bog’cha yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Eng sodda psixik jaroyondan eng murakkab psixik jaroyongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o’yinlar katta rol o’ynaydi.

O’yin - inson o’zligining namoyon bo’lishi, uning takomillashuv usulidir. O’yinni bolalikingining hamrohi deb atash ham qabul qilingan. O’yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o’ylaydi, o’yin jarayonida bolani hayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo’ladi.

Chet el olimlari faylasuflari, sotsiologlari madaniyat tarixchilari tadqiqotlarida o’yinning o’ziga xosligi, uning jamiyat hayoti va alohida shaxs hayotida, insonning madaniyatida tutgan o’rni va ahamiyati ko’rib chiqilgan. Rus pedagogi A.S. Makarenko “Bola o’yinda qanday bo’lsa, o’sib ulg’aygach ishda ham ko’pincha, ko’p jihatdan shunday bo’ladi” –deb to’g’ri aytgan edi. A.M. Gorkiy “O’yin bolalar yashayotgan va o’zgartirishi ish lozim bo’lgan dunyoni bilish yo’lidir” - deb bejiz aytmagan. «Bolalar o’yini ko’p asrlik tarixga ega, -deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o’zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

MTTning pedagogik jarayonda o’yinning tutgan o’rni juda katta bo’lib, o’yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalaniladi. O’yin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagilarni amalga oshirishda muhim vazifa kasb etadi.



- o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;

- o‘yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o‘yin bolalarga ta‘lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.
- o‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir.

Psixologlar o‘yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta‘minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

O‘yinda bolaning harakat tajribasi shakllanadi. Unda bir tomondan turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, ikkinchi tomondan, bola rolga kirar ekan, o‘z roliga oid hatti-harakatlarni amalga oshirish uchun harakatlardan foydalaniladi. Sahnalashtirilgan o‘yin bolaning nutqiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Uni hamma tushunishi uchun aniq bo‘rro gapirishga harakat qiladi.

Har bir o‘yin turi bolani qaysidir qobiliyatini ochib berishga xizmat qiladi. S.A. Shmakovning ta‘kidlashicha, o‘yinlar quyidagi to‘rtta asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya‘ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya‘ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta‘sir- bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi.

Mashg‘ulot vaqtida o‘yindan foydalanish yaxshi samara beradi. Ijodkorlikni o‘yin faoliyatida yaqqol sezishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab esa o‘yin faoliyatida bolalar erkin bo‘lishadi. Mashg‘ulotda tarbiyachi bolalar ijodkorligini oshirishda avvaldan ma‘lum bo‘lgan o‘yinlardan foydalansa bo‘ladi, aksincha o‘zi ijodiy yondashgan holda o‘yin o‘ylab topsa ham bo‘ladi.

Bola o‘yindagi maqsadga erishish uchun o‘ziga sheriklar tanlaydi, zarur o‘yinchoqlarni topadi, o‘yin davomida muayyan harakat qiladi, o‘yinchilar bilan xilma-xil muloqotga kirishadi. O‘yinga aloqador har xil vaziyatlar o‘ylab topadi. Bu esa bolalarni ijodkorlikka chorlaydi.

O‘yin jarayoni bolalar uchun qiziq jarayon hisoblanadi. Bola o‘yinda erkinlikni his qiladi. Ijodiy yondashishga harakat qiladi. Bola o‘yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo‘lmaydi. U o‘zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola o‘yindan zavq olish hissidan foydalanadi. Bolalar o‘yinga faol qatnashishlari orqali o‘zlari bilmagan holda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib borishadi. Qiziqarli tashkil etilgan va olib borilgan o‘yinda doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik, ijodkorlik bilan bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish. Darslik. N.T.Tosheva “Kamolot” nashriyoti. Buxoro – 2022.



2. “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi Toshkent 2022 y
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga o’yin orqali tarbiya berish. O’quv qo’llanma. N.M. Quchqorova. Toshkent -2022.



TA'LIM JARAYONIDA "MS WORD DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI" MAVZUSINI "GUGURT DONALARI" METODI YORAMIDA O'QITISH ISTIQBOLLARI

**Abdusamatova Shaxodat Hojiakbar qizi¹,
Mirahmedova Mahzuna Abdualimzoda qizi²**

¹UNICON ilmiy xodimi,
Olmaliq davlat texnika instituti akademik litseyi
Elekyron kutubxona xodimi
email: abdusamatovashahodat@gmail.com,
miraxmedovamahzuna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishda qo'llaniladigan metod orqali o'rganilyotgan mavzuni chuqur o'rganadi va uning barcha qismlarini ko'rgazmaliy tarzda nomoyon bo'lishi talabalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi masalalari keltirilgan

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, novatsiya.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Shu jumladan maktab ta'lim jarayonida informatika fanini yanada samarali o'qitish va dars mashg'ulotini mazmunan boyitish maqsadida pedagog ustozlar tomonidan turli metod va texnologiyalardan foydalanilmoqda. Ushbu maqolada informatika dars mashg'ulotida "MS Word dasturi va uning imkoniyatlar" mavzusini "Gugurt donalari" metodi yordamida o'qitish jarayoni keltirilgan.

"Gugurt donalari" metodini dars mashg'ulotida qo'lash tartibi

1-qadam. Pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzu haqida dastlabki tushunchalar hosil qilish

2-qadam. Darsni yanada mustahkamlash hamda butun avditoriyani mavzu va uning tushunchalari bilan qamrab olish maqsadida ushbu maqolada keltirilgan "Gugurt donalar" metoqidan foydalanamiz. Buning uchun talabalarga bu metodning boorish jarayoni, o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan vazifalar va boshqalar ularga tushuntiriladi. Masalan ushbu metodda o'quvchilar mavzuning turli yo'nalishlari bo'yicha tayyorlangan savollarga ayni bir yo'nalishni tanlab guruh bo'lib yoki yakka tartibda javob berishlar kerak bo'ladi. Ushbu jarayonda gugurt qutilari ichidagi kichik savol kartochkalarini tanlab unga javob berish lozim(1-jadval).



MS Word dasturi haqida	MS Word dasturining imkoniyatlari	MS Word dasturida jadvallar bilan ishlash
Dastur qachon yaratilgan		Word dasturida jadval yaratishning nechta usuli bor
	Word dasturidan qanday hujjatni tayyorlashda foydalangansiz	
Word dasturi menyular qatori haqida nimalar bilasiz		Jadvalni tahrirlash haqida ma'lumot bering

Na'muna sifatida 1-jadvalda keltirilgan javol kartochkalaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi

3-qadam Talabalarni guruhlariga bolib metodni bajarish jarayoniga kirishadilar va ushbu jarayon pedagog o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

4-qadam. Talabalar berilgan na'muna bo'yicha metodni ishlab tugadganlaridan so'ng barcha natijalar birlashtiriladi va umumiy xulosa yasaladi va medorni ishlash davomida eng faol qatnashgan guruh va talabalar rag'batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son
2. 2020 — 2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish bo'yicha "YO'L XARITASI"
3. Delov T.E., N.I. Zoirov Methodical instructions on practical training on the subject "Technologies and tools of distance learning", published in the publishing house "CONTACT", 2015.



TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING DOLZARB MASALALARI

Mirzokulova Shohsanam G'ayrat qizi¹,

Gafarova Sarvinoz Sobir qizi²,

¹Bekobod shahar 1-sonli texnikumi informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi,

e-mail: oishamirzokulova315@gmail.com,

² Bekobod shahar 1-sonli texnikumi

maxsus fan o'qituvchisi,

e-mail: sarvinozabdusamatova04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jrayoni, uni raqamlashtirish va xususan dars mashg'ulotlarida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanishning dolzarb masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'limda AKT, elektron resurs, inovatsiyon ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoniga muvofiq ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;
- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;
- o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;
- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;
- axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish va boshqalar;

Raqamlashtirish - bu raqamlashtirilishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni raqamlashtirish orqali raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga



integratsiyalashuvdir. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish esa ta'limni tashkil etish, o'qish yoki o'qiish, uni nazorat qilish va natijalarni tahlillash kabi jarayonlarni elektron raqamli shakilga qisman yoki to'liqligicha o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va zamon bilan hamnafas odimlash maqsadida dars mashg'ulotlariga ko'plab axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanilmoqda, bu jarayon ta'limga quyidagi avfzaliklarni beradi:

- Talabalar o'zlari uchun qulay vaqtda o'rganishlari mumkin
- Deyarli har qanday joyda o'rganish va o'rganish qobiliyati
- Mavzular va mavzularni tanlash har qachongidan ham osonroq
- Noqulay ob-havodan qat'iy nazar o'rganish davom etishi mumkin (albatta ularda kuch bor ekan)
- Bu talabalar uchun vaqtni tejaydi, qatnovlarni yo'q qiladi va o'z vaqtida darsga borish uchun kampus bo'ylab shoshiladi.
- Raqamli ta'lim odatda sinfda o'rganishga qaraganda arzonroq

Ta'limda raqamli tizimlar keng tarqalganligi sababli biz onlayn ta'limda turli darajadagi qulaylikni boshdan kechirmoqdamiz, ammo ma'muriy qism stoldan tashqarida emas. Talabalar hisobini yuritish, ularning davomati va ro'yxatini saqlash katta bosh og'rig'i, chunki talabalar ma'muriyat rahbarlaridan ko'p bo'lsa. Shunday qilib, kollejlarda va maktablar muammosiz kompyuterlashtirilgan usullarni qo'llaydilar va yozuvlarni saqlashning eski qo'lda usullaridan qochishadi. Ta'limga raqamlashtirish tushunchasining kirib kelishi quyidagi bir qator yangi tushunchalarni ham olib kirdi, masalan quyidagilar:

Onlayn kurslar. Yangi til o'rganmoqchimisiz yoki biron bir maxsus kursda o'qimoqchimisiz, lekin masofani bosib o'tishga vaqtingiz yo'qmi? Onlayn kurslar o'z sohalarida tengsiz malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan va sizga o'zlarining onlayn kurslarini loyihalash orqali real vaqt rejimida o'rganish tajribasini berishi mumkin.

Onlayn imtihonlar. Raqamlashtirish o'z o'rnini onlayn imtihonga berdi, bu esa imtihon jarayonini o'qituvchilar va talabalar uchun qulay qildi.

Raqamli darsliklar. Elektron darsliklar va elektron matnlar kabi boshqa nomlar bilan ham keng tarqalgan raqamli darsliklar interaktiv interfeysni ta'minlaydi, unda talabalar videolar, interaktiv taqdimotlar va giperhavolalar kabi multimedia kontentidan foydalanishlari mumkin.

Animatsiya. Bu o'quvchilarni yaxshiroq o'rganishga qaratilgan jozibali yondashuv. Mavzuning vizual tasvirini taklif qilish orqali talabalar kontseptsiyani tushunarliroq tushunadilar. Animatsiya yordamida hatto eng qiyin mavzular ham soddalashtirilgan tarzda taqdim etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son
2. Barno Nazarova “Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar” Academic Research in Educationl Sciences 2021-yil.
3. Janetta Ainsli “XXI asrda ta’limni raqamlashtirish” 2018 yil 28 aprel



INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Pirnazarova Shahlo Boynazar qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda integratsiyalashgan pedagogik amaliyotning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida amaliyotning nazariy bilimlar bilan uzviyligini ta‘minlash orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan amaliyot, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, refleksiya, innovatsion ta‘lim, metodik tayyorgarlik.

Zamonaviy ta‘lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki ularni o‘zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmasini ham talab etadi. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida pedagogik amaliyot hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Biroq, an‘anaviy amaliyot tizimida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish (gap) ko‘p hollarda talabalarning kasbiy moslashuvini qiyinlashtirmoqda. Integratsiyalashgan pedagogik amaliyot - bu nazariy fanlarni bevosita maktab muhiti bilan bog‘lash, talabaning metodik, psixologik va texnologik bilimlarini yagona tizimda birlashtirish jarayonidir. Tadqiqotning maqsadi ushbu integratsiyalashgan yondashuv orqali bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy-qiyosiy metod: Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili.

Pedagogik kuzatuv: Talabalarning dars o‘tish jarayonlarini monitoring qilish.

So‘rovnoma va test: Talabalarning o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash.

Ekspiriment: Tajriba va nazorat guruhleri o‘rtasida o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar.

Tadqiqotda Samarqand davlat pedagogika institutlarining 3-4 bosqich talabalari (jami 120 nafar) ishtirok etdi. Tajriba guruhi uchun amaliyot dasturi fanlararo integratsiya (Pedagogika + Psixologiya + Axborot texnologiyalari) asosida qayta ishlab chiqildi.

Integratsiyalashgan amaliyot davomida talabalarning kasbiy kompetensiyalari o‘shishi quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ldi. Natijalarni solishtirish uchun 10 ballik tizimdan foydalanildi:

Kompetensiya turlari | Tajribadan oldin (o‘rtacha) | Tajribadan keyin (o‘rtacha) | O‘shish koeffitsienti |

| :--- | :---: | :---: | :---: |

| Metodik kompetensiya | 4.2 | 8.5 | +4.3 |

| Psixologik moslashuvchanlik | 5.1 | 7.9 | +2.8 |



| Raqamli texnologiyalarni qo'llash | 3.8 | 9.2 | +5.4 |

| Kommunikativ mahorat | 5.5 | 8.1 | +2.6 |

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, integratsiyalashgan yondashuv qo'llanilgan guruhda talabalarning darsni rejalashtirish va muammoli vaziyatlarni boshqarish qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan 35% ga yuqori bo'lgan. Shuningdek, talabalarning dars jarayonida raqamli resurslardan (LMS, interactive tools) foydalanish darajasi keskin oshgan.

Matematik hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalar rivojlanish darajasi K_r quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$K_r = \sum (S_{post} - S_{pre}) / n$ bunda S_{post} - amaliyotdan keyingi ball, S_{pre} - amaliyotdan oldingi ball, n - talabalar soni.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan pedagogik amaliyot talabada "o'qituvchi obrazini" erta shakllantiradi. An'anaviy tizimda talaba faqat kuzatuvchi yoki dars beruvchi rolida bo'lsa, integratsiyalashgan tizimda u quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

Nazariyaning amaliyotdagi in'ikosi: Talaba universitetda o'rgangan inklyuziv ta'lim yoki differensial yondashuv nazariyalarini bevosita sinf xonasida sinab ko'radi.

Refleksiv ko'nikmalar: Har bir darsdan so'ng talaba o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishni o'rganadi.

Mentorlik tizimi: Tajribali o'qituvchilar (mentorlar) bilan hamkorlikda ishlash talabaning kasbiy etikasini shakllantiradi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida ba'zi maktablarda texnik bazaning yetishmasligi va talabalarning psixologik tayyorgarligi turlicha ekanligini ko'rsatish mumkin. Biroq, umumiy tendensiya shuni ko'rsatadiki, amaliyotni faqatgina "maktabga borib kelish" deb emas, balki "tadqiqot maydoni" deb qarash yuqori natija beradi.

Xulosa. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalashgan pedagogik amaliyot eng samarali vositadir. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Pedagogik amaliyot dasturlari fanlararo integratsiyani hisobga olgan holda modernizatsiya qilinishi lozim.

Talabalarning amaliyot davridagi faoliyatini baholashda nafaqat hujjatlar, balki ularning soft skills (yumshoq ko'nikmalari) va ijodiy yondashuvlariga e'tibor qaratish zarur.

Oliy ta'lim va maktab o'rtasidagi "Klaster" tizimini kuchaytirish bo'lajak kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Ushbu yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq etish sifatli pedagog kadrlar tayyorlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarori.

2. Muslimov N.A. “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi”. Toshkent, 2013.

3. Schön, D. A. “The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action”. Basic Books, 1983.



THE ROLE AND IMPORTANCE OF CONTENT BASED INSTRUCTION IN LANGUAGE TEACHING

Umarxoʻjayeva X.S.

senior teacher,

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract: Content Based Instruction (CBI) has emerged as a transformative approach in language teaching, integrating language learning with subject matter content to enhance both linguistic proficiency and cognitive development. This article explores the theoretical foundations, pedagogical advantages, and practical applications of CBI in various educational contexts. It examines how CBI fosters meaningful communication, enhances motivation, and equips learners with discipline in specific language necessary for academic and professional success. The study further highlights empirical evidence supporting CBI's effectiveness in improving both receptive and productive language skills, emphasizing its significance in English as a Foreign Language (EFL) programs and higher education settings. The findings suggest that systematic implementation of CBI can substantially enrich language instruction by aligning it with real world and academic objectives.

Keywords: content-based instruction, language teaching, EFL, learner motivation

Introduction

Content-Based Instruction (CBI) is a pedagogical approach in which language learning is integrated with the learning of academic or professional subject matter. Rather than focusing solely on linguistic forms, CBI engages learners with meaningful content, allowing them to acquire language skills in context while simultaneously developing knowledge in disciplines such as science, technology, and social studies. This dual-focus approach fosters deeper cognitive processing, enhances learner motivation, and promotes the practical application of language in authentic settings. CBI is particularly relevant in English as a Foreign Language (EFL) program, where mastery of technical vocabulary and discipline-specific discourse is essential for academic and professional success. By bridging language and content, CBI equips learners with both communicative competence and subject-matter expertise, making it a critical component of modern language instruction.

Literature Review

Research on CBI emphasizes its theoretical and practical contributions to language education. Brinton, Snow, and Wesche (2003) define CBI as an approach that integrates language and content learning, promoting meaningful engagement and cognitive development. Stoller (2002) highlights that CBI enhances learners' motivation by situating language learning within relevant and authentic contexts,



thereby increasing retention and participation. Studies indicate that CBI not only improves linguistic proficiency but also develops analytical and problem-solving skills, as learners process subject-matter content in a foreign language. Empirical research further demonstrates that CBI positively impacts both receptive skills (listening and reading) and productive skills (speaking and writing), particularly in EFL settings where learners must master specialized terminology and discourse patterns.

Recent studies have also highlighted the role of CBI in developing students' communicative competence in professional and academic contexts. Allen (2010) emphasizes that CBI supports learners in applying language skills to authentic tasks such as technical presentations, discussions, and report writing, which is crucial for EFL learners in higher education. Snow (2010) argues that content-focused instruction enhances cognitive engagement and aids long-term retention of both linguistic structures and subject-matter knowledge. Lyster (2007) points out that integrating content and language in a balanced manner helps learners internalize complex linguistic forms while simultaneously understanding the subject matter.

Methodological Considerations

Successful implementation of CBI requires careful task design and alignment with learners' proficiency levels and content knowledge. Teachers must select meaningful content, scaffold language support, and design interactive tasks that encourage active engagement. Assessment should evaluate both linguistic performance and content comprehension, ensuring that learners achieve dual learning objectives.

CBI is particularly effective in English as a Foreign Language (EFL) programs and higher education, where learners require discipline-specific language for academic and professional contexts. Integrating CBI into curricula enables ICT students, engineering students, or business students to simultaneously acquire technical vocabulary and functional language skills. By aligning language instruction with professional objectives, CBI prepares students for authentic communicative tasks, including technical lectures, project presentations, and workplace interactions.

CBI also promotes learner-centered pedagogy, fostering autonomy, engagement, and motivation. Students engage in independent research, content exploration, and problem-solving activities that simulate real-world tasks. Collaborative group work, peer discussions, and presentations develop both communicative competence and critical engagement with content. Tasks should be designed to encourage active listening, note-taking, summarizing, and reflection, ensuring that learners practice both receptive and productive skills in meaningful contexts.

Pedagogical Advantages of CBI:

1. Integration of Language and Content: Learners acquire language in meaningful contexts, facilitating comprehension and long-term retention.
2. Enhanced Motivation: Learning becomes purposeful and relevant, increasing student engagement.



3. Authentic Communication: CBI tasks involve real-world language use through discussions, presentations, and collaborative projects.
4. Learner Autonomy: Students engage in independent research, projects, and content exploration, fostering self-directed learning.

Conclusion

Content-Based Instruction represents a powerful pedagogical approach that bridges language learning and content mastery. By integrating meaningful subject matter with language instruction, CBI enhances motivation and prepares learners for academic and professional success. Its application in EFL programs and higher education contexts demonstrates its effectiveness in developing both linguistic competence and discipline-specific expertise, making it an essential strategy for contemporary language teaching.

References:

1. Brinton, D. M., Snow, M. A., & Wesche, M. B. (2003). Content-based second language instruction. University of Michigan Press.
2. Stoller, F. L. (2002). Content-based instruction: A shell for language teaching or a framework for strategic language and content learning? In J. C. Richards & W. A. Renandya (Eds.), *Methodology in language teaching: An anthology of current practice* (pp. 203–218). Cambridge University Press.
3. Allen, H. W. (2010). *Content-based instruction and English as a foreign language: Theory and practice*. Routledge.
4. Snow, M. A. (2010). *Content-based and immersion models for language learning: Research and practice*. Cambridge University Press.
5. Lyster, R. (2007). Learning and teaching languages through content: A counterbalanced approach. *Language Teaching*, 40(1), 1–10.
6. Met, M. (1999). Content-based instruction: Defining terms, making decisions. *NFLC Occasional Paper*, 23, 1–21.
7. Cammarata, L., & Tedick, D. J. (2012). Balancing content and language in instruction: The experience of immersion teachers. *The Modern Language Journal*, 96(2), 251–269.
8. Marsh, D. (2002). *CLIL/EMILE - The European dimension: Actions, trends and foresight potential*. University of Jyväskylä.



INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR IMPROVING LISTENING SKILLS OF ICT STUDENTS

Umarxoʻjayeva X.S.

senior teacher,

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract: The rapid integration of information and communication technologies (ICT) into higher education has reshaped the requirements for foreign language competence among ICT students. Particularly, listening skills play a crucial role in enabling students to comprehend professional discourse, technical lectures, tutorials, and authentic multimedia content in English. This article examines the role of innovative technologies in improving listening skills of ICT students in English language learning contexts. The study argues that technology-enhanced listening instruction, when aligned with the professional needs of ICT students, promotes learner autonomy, facilitates exposure to authentic technical input, and contributes to the development of both academic and professional communicative competence.

Keywords: listening skills, ICT students, innovative technologies, English for ICT, digital learning

Introduction

In the context of Uzbekistan's higher education system, the modernization of teaching and learning processes has become a strategic priority, particularly in ICT-related specialties, where the adoption of international standards and English medium resources is steadily increasing. As a result, ICT students are required to comprehend a wide range of spoken academic and professional materials in English, including technical lectures delivered by local and international instructors, online tutorials, webinars, conference presentations, and instructional videos related to software development, networking, and emerging technologies. Despite ongoing reforms in foreign language education, listening comprehension remains a persistent challenge for ICT students, primarily due to difficulties in processing specialized technical terminology that differs from general English vocabulary and is often presented at a rapid pace. These challenges are further intensified when students are required to follow extended academic lectures characterized by dense informational content, complex explanations, and discipline-specific discourse structures. Moreover, exposure to diverse accents and pronunciation patterns in authentic listening materials produced by speakers from different linguistic backgrounds poses additional comprehension difficulties, which are exacerbated by reduced forms, fast speech rates, and limited opportunities for repeated exposure to authentic spoken input. In this regard, innovative technologies provide effective solutions within the Uzbek higher education context by offering flexible access to authentic ICT-related



listening materials and fostering learner-centered environments that support the development of listening comprehension skills.

Literature Review

Listening comprehension has been widely acknowledged as a complex and cognitively demanding skill in second and foreign language learning. Research on ESP listening underscores the importance of domain-relevant input, with Flowerdew and Miller arguing that academic listening difficulties often arise from unfamiliar discourse structures and technical vocabulary rather than general language deficiencies, while Field highlights fast speech rate, reduced forms, and weak word recognition as major obstacles to comprehending extended lectures in technical disciplines. Mobile-assisted language learning (MALL) has also gained prominence, with Kukulska-Hulme and Shield demonstrating that mobile technologies enable flexible and continuous exposure to spoken language, and empirical studies by Kim and Kwon indicating that features such as adjustable playback speed and subtitles significantly improve comprehension of technical listening materials. Furthermore, the emergence of artificial intelligence in language education has expanded opportunities for listening instruction, as Li and Lan report that AI-based adaptive systems provide personalized feedback and foster learner autonomy, while speech recognition technologies enhance learners' awareness of pronunciation and listening accuracy; for ICT students, AI-driven platforms incorporating technical scenarios contribute to both linguistic and professional competence.

Within the Uzbek higher education context, recent studies indicate a growing interest in integrating digital technologies into foreign language instruction, with local researchers emphasizing that technology-enhanced ESP teaching increases student motivation and aligns language learning with professional needs, while also highlighting the necessity of systematic methodological frameworks for the effective integration of innovative technologies into listening instruction for ICT students.

Methodological Considerations

When implementing innovative technologies for ICT students, it is essential to align listening tasks with professional objectives and learners' proficiency levels. Tasks should encourage active listening through problem-solving, note-taking, and critical evaluation of technical information. Teachers must also consider students' digital literacy and provide guidance on effective use of technological tools.

Multimedia resources, including video lectures, software demonstrations, and technical podcasts, provide ICT students with authentic, field-specific listening input, with visual supports such as code displays, diagrams, and screen recordings enhancing comprehension of complex technical information. Mobile-assisted language learning enables students to practice independently, offering features like adjustable playback speed, subtitles for technical terminology, and repetition functions that support comprehension. AI-based tools further address individual listening difficulties through performance analysis, personalized feedback, speech recognition, and the integration of domain-specific vocabulary, making practice more relevant to ICT students' academic and professional needs. Learning management systems facilitate the integration of listening materials with assessment



and collaborative tasks, while online discussions and project-based activities encourage reflection on listening strategies and reinforce technical understanding. Corpus-informed and data-driven resources expose students to authentic spoken discourse, helping them recognize recurrent lexical patterns, collocations, and discourse markers common in ICT communication. Effective integration of these technologies requires alignment with professional objectives and learners' proficiency levels, promotion of active engagement through problem-solving and critical evaluation, and instructor guidance to ensure students use digital tools effectively in accordance with their digital literacy.

Conclusion

Innovative technologies provide effective means for improving listening skills of ICT students when integrated into English language instruction. By delivering authentic, professional-specific input and adaptive learning opportunities, these technologies address the unique listening challenges faced by ICT learners. Future research should focus on empirical studies examining the impact of specific technological tools on ICT students' listening performance and professional language development.

References:

1. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing and research*. Cambridge University Press.
2. Field, J. (2008). *Listening in the language classroom*. Cambridge University Press.
3. Flowerdew, J., & Miller, L. (2005). *Second language listening: Theory and practice*. Cambridge University Press.
4. Gilquin, G., & Granger, S. (2010). *The international corpus of English: Corpus description and research applications*. John Benjamins.
5. Kim, D., & Kwon, S. (2012). Effects of mobile-assisted listening on English comprehension. *Language Learning & Technology*, 16(3), 23–38.
6. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile-assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
7. Li, Y., & Lan, Y. (2020). AI-assisted language learning: Adaptive systems for listening and speaking skills. *Computers & Education*, 148, 103805.
8. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
9. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and learning second language listening: Metacognition in action*. Routledge.



PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Xamroyeva Feruza Asrorovna

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

hamroyeva87@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezisda pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Unda pedagogik tadqiqotlarning mohiyati, metodologik asoslari hamda ta'lim sifati va innovatsion jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik tadqiqotlarning ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodlarini takomillashtirish va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik tadqiqot, metodologiya, ta'lim sifati, ilmiy izlanish, innovatsion ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u doimiy yangilanishni va ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida pedagogik tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Chunki pedagogik tadqiqotlar ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda samarali yechimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lim tizimining nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, o'quv-tarbiya jarayonining amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ular ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, ichki qonuniyatlari hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan tizimli ilmiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi [1]. Shu bois, pedagogik tadqiqotlar ta'lim amaliyotini ilmiy jihatdan asoslashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lim jarayonidagi hodisa va jarayonlarni ilmiy bilish, ularning ichki bog'liqligi hamda rivojlanish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan faoliyatdir. Ularning asosiy vazifasi ta'lim amaliyotini takomillashtirish, yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur jarayonda metodologiya alohida ahamiyat kasb etadi. Metodologiya tadqiqotning umumiy yo'nalishini, ilmiy yondashuvlarini, usullari va tamoyillarini belgilab beradi. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi ilmiy izlanishlarning sifatini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, u tadqiqot obyektini va predmetini, maqsadini, vazifalarini hamda farazlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1].

Pedagogik jarayonning shakllanishi va rivojlanishida metodologik yondashuvlarning ahamiyati katta. Pedagogik jarayonning metodologiyasi uning mazmuniy va tashkiliy jihatlarini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi hamda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishni ta'minlaydi [2].

Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik tadqiqotlar ko'pincha tizimli,



kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimi raqamlashtirish, globallashtirish va innovatsion texnologiyalar bilan bevosita bog'liq holda rivojlanmoqda. Ushbu sharoitda pedagogik tadqiqotlar ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodlarini takomillashtirish va baholash tizimlarini modernizatsiya qilishning ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ilmiy-tadqiqot faoliyati muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi[3].

Pedagogik tadqiqotlar yordamida: ta'lim jarayonidagi muammolar aniqlanadi, ilg'or pedagogik tajribalar umumlashtiriladi, innovatsion metod va texnologiyalar ishlab chiqiladi, ta'lim sifati monitoringi va tahlili amalga oshiriladi [1; 3].

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar o'qituvchilarning metodologik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishga tayangan pedagog o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila oladi, yangiliklarga ochiq bo'ladi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi. Bu holat pedagogik adabiyotlarda "ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati" tushunchasi orqali izohlanadi [2].

Ta'lim sifati masalasi zamonaviy pedagogikaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish esa bevosita ilmiy asoslangan pedagogik qarorlarga bog'liq. Shu jihatdan pedagogik tadqiqotlar ta'lim sifatini ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali o'quv dasturlari, darsliklar, baholash mezonlari va o'qitish metodlari takomillashtiriladi. Pedagogik tadqiqotlar nafaqat mavjud muammolarni hal etishga xizmat qiladi, balki ta'lim tizimining istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarni oliy ta'lim tizimiga, xususan bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga chuqur integratsiya qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqotlar zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim ilmiy-amaliy asos hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik tadqiqotlarga tayangan holda faoliyat yuritish ta'limning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z.** *Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik.* / B. Xodjayev va boshq. – Toshkent: **Iqtisodiyot dunyosi** nashriyoti, 2018. – **190 bet.**

2. **Батракова С. Н.** *Методология становления педагогического процесса // Педагогика.* – Москва, 2003. – № 3. – С. **11–16.**



3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar / O'quv qo'llanma. - Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020. - 192 bet.



МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ (НА ПРИМЕРЕ ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ)

Шарипова Гульноза Улмаскамаловна
Старший преподаватель, ТАСУ

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования межкультурной компетентности студентов технических вузов в условиях глобализации и образовательной интеграции. Обосновывается актуальность аксиологического подхода как методологической основы данного процесса. Межкультурная компетентность интерпретируется как интегративное личностно-профессиональное качество, включающее когнитивный, ценностно-мотивационный и деятельностный компоненты. Особое внимание уделяется роли изучения иностранного языка (немецкого) в развитии готовности студентов к эффективному межкультурному взаимодействию.

Ключевые слова: межкультурная компетентность, глобализация, аксиологический подход, иностранный язык, немецкий язык.

Современное общество развивается в условиях интенсивной глобализации, которая охватывает все сферы жизнедеятельности человека и приводит к интеграции культур, трансформации традиционных ценностей и переосмыслению подходов к межкультурному взаимодействию. Формирование глобального коммуникационного пространства оказывает значительное влияние на культуру, общество и личность, создавая новые формы взаимодействия и способы осмысления социального опыта.

В условиях глобальных языковых и культурных процессов национальные культуры все активнее включаются в единое коммуникационное сообщество, которое выступает самостоятельным фактором развития диалога и формирования новых ценностных ориентиров. Интегративная «суперкультура» не отменяет локальные культуры, а при условии диалогического взаимодействия способствует их взаимному обогащению и расширению возможностей межкультурного общения.

Освоение современной иностранной культуры требует от личности пересмотра собственных ценностных установок и отношения к таким значимым сферам жизни, как образование, профессиональная деятельность, язык, коммуникация, традиции и социальные нормы. В условиях роста международных контактов и академической мобильности особую значимость приобретает подготовка специалистов, обладающих высоким уровнем профессиональной и межкультурной компетентности, конкурентоспособных на международном рынке труда и способных к эффективному взаимодействию в поликультурной среде.



Вместе с тем процессы глобализации несут в себе не только позитивный потенциал, но и определённые риски, связанные с нивелированием национально-культурной идентичности, в том числе в сфере образования. В этой связи ключевым условием успешной социокультурной и образовательной интеграции становится принцип взаимообогащения культур при сохранении их самобытности и целостности. Реализация данного принципа непосредственно связана с формированием межкультурной компетентности студентов, что определяет актуальность рассматриваемой проблемы.

Актуальность формирования межкультурной компетентности студентов обусловлена рядом противоречий:

- между объективной потребностью общества в специалистах, обладающих высоким уровнем межкультурной компетентности, и недостаточной реализацией данного потенциала в системе профессионального образования;
- между необходимостью теоретического осмысления закономерностей формирования межкультурной компетентности и недостаточной разработанностью данной проблемы в педагогической науке;
- между многообразием методологических подходов к профессиональному образованию и отсутствием целостной концепции формирования межкультурной компетентности в высшей школе.

Выявленные противоречия обусловили необходимость научного исследования, направленного на определение теоретических, методологических и организационно-педагогических основ формирования межкультурной компетентности студентов университета. В рамках исследования выдвинута гипотеза о том, что межкультурная компетентность студента представляет собой интегративное личностное качество, включающее:

- систему специальных знаний, необходимых для осуществления межкультурного диалога;
- ценностные ориентации, обеспечивающие межсубъектное взаимодействие на основе уважения, понимания и толерантности;
- комплекс умений и навыков, необходимых для участия в межкультурной коммуникации.

Формирование межкультурной компетентности сопровождается качественными изменениями в мировоззрении студента, осознанием значимости диалога культур, стремлением к функциональному владению иностранным языком и профессиональной самореализации. Эффективное формирование межкультурной компетентности студентов технических вузов возможно при использовании аксиологического подхода, в основе которого лежит признание ценностей как системообразующего элемента образовательного процесса. В рамках данного подхода межкультурная компетентность рассматривается не как дополнительный навык, а как неотъемлемая часть современного университетского образования.



Ключевыми ценностными ориентирами межкультурной компетентности являются уважение к культурному разнообразию, эмпатия, толерантность, открытость к новому опыту, критическое мышление и ответственность за результаты межкультурного взаимодействия. Важную роль в реализации аксиологического подхода играет преподаватель, выступающий носителем и транслятором данных ценностей. Формирование межкультурной компетентности предполагает использование активных и интерактивных методов обучения, таких как дискуссии, кейс-стади, ролевые игры, проектная деятельность, анализ художественных и аутентичных текстов, а также участие в международных образовательных программах и академической мобильности.

Реализация аксиологического подхода в процессе обучения иностранному языку, в частности немецкому, позволяет создать образовательную среду, способствующую развитию ценностного отношения к культурному разнообразию и готовности к конструктивному межкультурному диалогу.

Список литературы:

1. Барбашина, М. А. Межкультурная компетенция в профессиональном образовании: теория и практика. Москва: Просвещение, 2018.



OLIJ TA'LIM MUASSASALARINING XALQAROLASHUVIDA TALABALAR TA'LIM OLISHINING RAQAMLI PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Doniyorova Shoxista
Samarqand davlat pedagogic
instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydonga chiqishi raqamli pedagogik shart-sharoitlarni rivojlantirishni zarur qiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogik shart-sharoit, OTM, talaba, xalqaro ta'lim, interfaol texnologiyalar, O'zbekiston.

Аннотация. Высокий уровень интернационализации вузов требует развития цифровых педагогических условий. В статье анализируются вопросы эффективной организации учебной деятельности студентов в вузах Узбекистана с использованием цифровых платформ, виртуальных лабораторий и интерактивных образовательных технологий.

Ключевые слова: цифровые педагогические условия, вуз, студент, международное образование, интерактивные технологии, Узбекистан.

Annotation. The internationalization of higher education institutions necessitates the development of digital pedagogical conditions. This article analyzes the effective organization of student learning in Uzbek higher education institutions using digital platforms, virtual laboratories, and interactive educational technologies. Results indicate that digital pedagogical conditions enhance student motivation, independent thinking, and competencies.

Keywords: digital pedagogical conditions, HEI, student, international education, interactive technologies, Uzbekistan.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydonga chiqishi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, global standartlarga moslashtirish va talabalar raqobatbardoshligini oshirishni talab qiladi [1]. Xalqarolashuv nafaqat tashkiliy, balki pedagogik va metodik shart-sharoitlarni ham modernizatsiya qilishni talab qiladi. Raqamli pedagogik shart-sharoitlar talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish, mustaqil fikrlash va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, texnik infratuzilma, o'qituvchilar malakasi va talabalarga qo'llab-quvvatlash tizimi talabalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilishni ta'minlaydi [2].

Pedagogik shart-sharoit tushunchasi talaba o'quv jarayonida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy, metodik, psixologik va texnologik elementlarni o'z ichiga oladi [2]. Raqamli shart-sharoitlar esa: raqamli platformalar



va virtual laboratoriyalar – talabalarga mustaqil ishlash imkonini beradi: interfaol ta’lim texnologiyalari – masofaviy testlar, simulyatsiyalar, onlayn darslar; pedagogik qo‘llab-quvvatlash – motivatsiya, maslahat, maslahat xizmatlari; o‘qituvchilarning malakasi – zamonaviy ta’lim metodlari, xalqaro tajriba.

O‘zbekiston sharoitida, masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Inha Universiteti raqamli pedagogik shart-sharoitlarni joriy etish orqali talabalar motivatsiyasini sezilarli darajada oshirgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aralash metodologiya qo‘llanildi.

So‘rovnoma: 280 talaba, raqamli platformalardan foydalanish va qoniqish darajasi o‘rganildi.

Suhbatlar: 40 nafar professor-o‘qituvchi va talabalar bilan yarim tuzilgan intervyu.

Statistik tahlil: SPSS dasturida foizlar va korrelyatsiya tahlili.

Normativ-huquqiy tahlil: O‘zbekiston Respublikasi farmon va qarorlar, xalqaro standartlar (PF-5847, 2019).

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar raqamli pedagogik shart-sharoitlardan keng foydalanmoqda va bu ularning o‘quv faoliyatini sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar 72 foizi raqamli platformalar va interfaol texnologiyalarni samarali deb baholagan, bu esa ularning mustaqil ishlash va o‘z bilimlarini mustahkamlashga imkon yaratishini ko‘rsatadi. Virtual laboratoriyalardan foydalanish borasida ham talabalar ijobiy fikr bildirgan, ularning 69 foizi bu vositalar o‘quv jarayonini yanada chuqurlashtirishga yordam berishini qayd etgan. Shu bilan birga, pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi talabalar tomonidan qoniqarli deb baholangan bo‘lsa-da, bu sohada ham 39 foiz talabalar ba’zi qiyinchiliklarga duch kelganligini ta’kidlagan.

Suhbat va intervyu natijalari professor-o‘qituvchilar tomonidan ham tasdiqlangan bo‘lib, ular raqamli pedagogik shart-sharoitlarning talabalar motivatsiyasini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ekanligini qayd etgan. Shu bilan birga, texnik infratuzilma va metodik qo‘llanmalarining yetarli emasligi ba’zi talabalar uchun foydalanish qiyinchiliklarini yuzaga keltirayotgani aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, OTMlarda raqamli shart-sharoitlar talabalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi, biroq ularni yanada rivojlantirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va talabalarga texnik hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur. Bu chora-tadbirlar O‘zbekiston OTMlarining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va ta’lim sifatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki raqamli pedagogik shart-sharoitlar talabalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida virtual laboratoriyalar va onlayn ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishi talabalarning mustaqil ishlash, ilmiy izlanishlar olib borish va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilarning raqamli pedagogik



kompetensiyalarini oshirish hamda zamonaviy interfaol ta'lim metodlarini qo'llash, ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar uchun texnik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish ularning o'quv jarayonida faol ishtirokini rag'batlantiradi va o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yumshatadi. Yuqoridagi choralar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish, talabalarning global kompetensiyalarini shakllantirish va ta'lim sifatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Doniyorova, Sh. S. International Process of Students of Higher Education Institutions and Educational Results. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 754–756, 2021.
2. Doniyorova, Sh. Improving The Pedagogical Conditions Of Students In The Process Of Internationalization, *Journal of Positive School Psychology*, 6(8), 2022.
3. Doniyorova, Sh. Oliy ta'lim muassasalarini xalqarolashuvi strategiyasini rivojlantirish yo'llari, *Pedagogik akmeologiya*, 2025.
4. Abdullayeva, M. Oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2020.
5. Yo'ldoshev, J. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashning pedagogik asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2021.
6. Mirzayev, A. Xalqarolashuv sharoitida oliy ta'limda pedagogik shart-sharoitlar. Toshkent: Pedagogika, 2019.



IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI TALABALARDA IJTIMOIIY MAS'ULIYAT VA MADANIY MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Ernazarov Alisher Ergashevich

PhD, dosenti. alexchigatay1213@gmail.com.

Pimkulova Stora Boltayevna

*KIUT, "Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi,
storaprimkulova@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va madaniy muloqotni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning ta'limiy muhit sifatidagi imkoniyatlari, talabalarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati hamda mas'uliyatli xulq-atvorini shakllantirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. ijtimoiy mas'uliyat, madaniy muloqot, pedagogik mexanizmlar, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy faollik, axborot madaniyati, ta'lim muhiti, raqamli muloqot.

Аннотация. В данной научной статье анализируются педагогические и психологические механизмы развития социальной ответственности и культурной коммуникации у учащихся посредством социальных сетей. Исследование научно и теоретически обосновывает потенциал социальных сетей как образовательной среды, их роль в формировании социальной активности учащихся, культуры общения и ответственного поведения.

Ключевые слова: социальная ответственность, культурная коммуникация, педагогические механизмы, психологические механизмы, социальный активизм, информационная культура, образовательная среда, цифровая коммуникация.

Abstract. This research article analyzes the pedagogical and psychological mechanisms for developing social responsibility and cultural communication in students through social media. The study provides scientific and theoretical justification for the potential of social media as an educational environment, their role in shaping students' social activity, communication culture, and responsible behavior.

Keywords: social responsibility, cultural communication, pedagogical mechanisms, psychological mechanisms, social activism, information culture, educational environment, digital communication.

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari talabalari ijtimoiy tarmoqlarni faqat axborot almashish yoki muloqot vositasi sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy



faollik va madaniy o'zaro ta'sir muhiti sifatida ham faol qo'llamoqdalar. Bu holat talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va madaniy muloqotni shakllantirish masalasini dolzarb pedagogik-psixologik muammolar qatoriga olib chiqmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalarning jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etishi, ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi va turli madaniy guruhlar bilan muloqotga kirishishi ularda mas'uliyatli munosabat, bag'rikenglik va muloqot madaniyati kabi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz va maqsadsiz qo'llanilishi salbiy axborot ta'siri, muloqot etikasi buzilishi hamda ijtimoiy passivlik kabi psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, ijtimoiy tarmoqlar ta'lim muhitini kengaytiruvchi, interaktiv va hamkorlikka asoslangan platforma sifatida talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Psixologik yondashuvlar esa ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayoni shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va refleksiv rivojlanishi bilan uzviy bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi, muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhim raqamli maydoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy tarmoqlar shaxslar va guruhlar o'rtasida virtual makonda barqaror aloqalarni ta'minlovchi interaktiv platformalar sifatida ta'riflanadi. Ularning ommalashuvi, ayniqsa, yoshlar va talabalar orasida yuqori bo'lib, bu holat ta'lim jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan ijtimoiy tarmoqlar ta'lim muhitini kengaytiruvchi, hamkorlikka asoslangan va talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi. Ular orqali talabalar bilim almashadi, muhokamalarda ishtirok etadi, jamoaviy fikrlash va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar norasmiy ta'lim muhiti sifatida talabalarning mustaqil o'qishi va ijtimoiy tajriba orttirishiga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan qaralganda, ijtimoiy tarmoqlar shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish, identifikatsiya va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Talabalar virtual muloqot orqali o'z qarashlarini ifoda etadi, jamoa fikrini anglaydi va ijtimoiy normalarga moslashadi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz qo'llanilishi psixologik qaramlik, muloqot madaniyatining pasayishi va ijtimoiy mas'uliyatning susayishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyat oldidagi burchi, o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini anglashi va ular uchun javobgarlikni his etishi bilan bog'liq kompleks sifat sifatida talqin etiladi. Pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy mas'uliyat tarbiyaning muhim natijasi bo'lib, shaxsning fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini belgilab beradi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonida maqsadli pedagogik ta'sirni talab etadi. Zimnyaya (2004) ijtimoiy mas'uliyatni kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, uning ta'lim natijasi sifatida ahamiyatini ta'kidlaydi. Ayniqsa, raqamli muhitda talabalarning axborotga munosabati, muloqot etikasi va jamoatchilik faolligi ijtimoiy mas'uliyat bilan



bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra, ijtimoiy mas‘uliyat quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- **motivatsion komponent** – ijtimoiy foydali faoliyatga ichki ehtiyoj va qiziqish (Ryan & Deci, 2000);

- **kognitiv komponent** – ijtimoiy me‘yorlar, qoidalar va qadriyatlar haqidagi bilimlar;

- **emotsional-irodaviy komponent** – javobgarlik hissi, hamdardlik va o‘zini nazorat qilish qobiliyati;

- **refleksiv komponent** – o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Ijtimoiy tarmoqlar ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Madaniy muloqot shaxslar va guruhlar o‘rtasida madaniy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va ijtimoiy tajribaning o‘zaro almashinuvi jarayoni sifatida qaraladi. Vigotskiy (1978) nazariyasiga ko‘ra, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot orqali amalga oshadi. Shu ma‘noda, madaniy muloqot shaxs rivojining asosiy psixologik mexanizmi hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar madaniy muloqotning yangi shakllarini vujudga keltirib, talabalarga turli ijtimoiy va madaniy guruhlar bilan o‘zaro aloqa qilish imkonini beradi (Livingstone, 2008). Bu esa bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bodalev (2002) ta‘kidlaganidek, samarali muloqot shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy moslashuvni ta‘minlaydi.

Biroq madaniy muloqotni pedagogik jihatdan boshqarmaslik axborot madaniyatining pasayishi, konflikter va salbiy kommunikatsiya holatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda madaniy muloqotni rivojlantirish pedagogik qo‘llab-quvvatlash, psixologik profilaktika va axborot madaniyatini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Louri usuli eritmadagi oqsillarni miqdoriy aniqlashning kolorimetrik usullaridan biridir. Oqsil miqdorini spektrofotometr yordamida optik zichlikni aniqlash yo'li bilan o'Ichandi. Bunda dastlab hayvonlar jigari ajratib olinib ajratish muhitiga solindi va gomogenizasiya qilindi. Keyin sentrifugalash orqali 600 g tezlikda qattiq qoldiqlardan tozalanib supernatant qismi ajratib olindi hamda ushbu gomogenat tarkibidagi oqsil miqdori Louri usulida aniqlandi. Bunda sog'lom hayvonlar jigar gomogenatidagi oqsil miqdori 100% deb belgilab olindi. Alloksan yordamida chaqirilgan diabet model hayvonlarda bu ko'rsatkich nazorat hayvonlarga nisbatan pasayib 70% ni tashkil qildi.

NATIJA

Glitsirizin kislota va Kversetin (Gk+Kv (4:1)) nisbatidagi supromolekulyar birikmasi ta'sirida jigar gomogenatidagi oqsil miqdori o'Ichandi va quyidagicha o'zgardi. Kversetin yuborilga hayvonlarda ushbu ko'rsatkich 75 % gacha tiklanishi qayd qilindi.

GK ta'sirida model hayvonlar jigar gomogenatidagi oqsil miqdori deyarli kversetin bilan bir xil natija qayd etdi. Eng yaxshi ko'rsatgich (Gk+Kv (4:1)) supromolekulyar kompleksi yuborilgan hayvonlar jigar gomogenatida kuzatilib bunda hayvonlar jigar gomogenatidagi oqsil miqdori 85% gacha tiklandi.

Alloksan diabet model hayvonlar jigar gomogenatidagi oqsil miqdorining o'zgarishi va unga tabiiy birikmalar ta'siri ($M \pm m, n=3$)



XULOSA



Jigar gomogenati tarkibidagi umumiy oqsil miqdori hamda antioksidant fermentlar (katalaza va SOD) faolligi (Gk+Kv (4:1)) kompleksi ta'sirida stimullanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И.Л. Кляритская Е.В. Максимова Коморбидност сахарного диабета и заболеваний печени. УДК: 616.36.379-008.64
 - а. Sobirova, O. A. Abrorov F. X. Inoyatova, A. N. Aripov biologik kimyo "Jigarning oqsillar almashinuvidagi vazifasi" 286/344 2006 yil
2. Биджиева Ф. А. Особенности течения экспериментального аллоксан-индуцированного сахарного диабета и методы его коррекции 2021
3. Ajay Guru, Christy Lite, Allen J. Freddy Intracellular ROS scavenging and antioxidant regulation of WL15 fro custeine and glycinerich protein 2 demonstrated in zebrafish in vivo model. developmental& Comperative immunology, January 2021. <https://doi.org/10.1016/j.dci.2020.103863>
4. <https://diabetesatlas.org>



**ALLOKSAN DIABET MODELLI KALAMUSHLAR JIGARIDAGI
SUPEROKSID DISMUTAZA FERMENT MIQDORIGA
GLISIRRIZIN+KVERSETIN SUPROMOLEKULAR BIRIKMASINING
TA'SIRI**

Boltayeva N.O.

Navruzova V.Z.

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Tibbiyot fakulteti Farmasevtika va
kimyo kafedrasida o'qituvchisi
Tibbiyot fakulteti Davolash
ishi yo'nalishi 2-kurs talabasi
nboltayeva95@gmail.com
n.boltayeva@afu.uz

ANNOTATSIYA: Qandli diabet – qondagi glyukoza miqdorining ko'tarilishi bilan yuzaga keladigan metabolik kasallik hisoblanadi. Xalqaro diabet federatsiyasining 2021-yilgi hisobotiga ko'ra dunyoda 537 milliondan ortiq odam qandli diabetga chalingan (rivojlangan dunyoning har 11-aholisi). Har yili kasalliklar soni 5-7% ga, oxirgi 15-17 yil ichida ikki baravar ko'paydi. 2030- yilga kelib bu patologiya bilan kasallaganlar soni 643 millionga yetishi taxmin qilingan. Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda reaktiv kislorod turlari (ROS) va erkin radikallarning ortiqcha ishlab chiqarilishi sodir bo'ladi va natijada antioksidant potentsial pasayadi, oksidlovchi stressni keltirib chiqaradi.

KIRISH

Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda glyukoza avtooksidlanishi SOD va katalazani faolsizlantiradigan vodorod peroksid hosil bo'lishiga olib keladi. SOD faolligi diabetga chalinmagan shaxslarda eng yuqori, asoratlarga ega bo'lmagan diabetik bemorlarda pastroq va asoratlari bo'lgan bemorlarida eng past ekanligi aytib o'tilgan. Bu esa oksidlovchi stress ta'sirida antioksidant ferment faolligi pasayishini isbotlaydi

METOD

SOD fermentning faolligini aniqlash Misra va J. Fridovich (1972) usuli bo'yicha aniqlik. Usulning mohiyatini NADH va fenozin metasulfatning (FMS) pasaytirilgan shaklining aerob o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan superoksid anionlariga nitrotetrazoliyko'ki (NTK) bilan reaksiyaga kirish qobiliyatiga asoslangan.

NATIJALAR

Tajribalarimizning oxirgi bosqichida jigar gomogenatidagi antioksidant ferment SOD faolligining o'zgarishi aniqlandi. Bunda sog'lom hayvonlar jigar gomogenatidagi SOD faolligi 100 foiz deb olindi. Alloksan yordamida chaqirilgan diabet model hayvonlarda bu ko'rsatkich nazorat hayvonlarga nisbatan kamayib 55% ni tashkil qildi. Kversetin, Glitsirrizin kislota va (Gk+Kv (4:1)) nisbatidagi



supromolekulyar kompleksi ta'sirida jigar gomogenatidagi SOD faolligi esa mos ravishda quyidagi faollikni ko'rsatdi. Kversetin flavonoidi ta'sirida hayvonlarda SOD faolligining ko'tarilishi va 70% gacha tiklanishi, bu esa kversetinning antioksidan ta'siri adabiyotlarda kuzatilgan natijalarga mos kelishi kuzatildi. GK ta'sirida model hayvonlar jigar gomogenatidagi SOD faolligi mos ravishda 65 % gacha ko'tarilishi aniqlandi.

Tajriba guruhlari	SOD, %
Nazorat	100
QD	55
QD+Diabeton	59
QD+Kversetin	70
QD+Glitsirrizin kislotasi	65
QD+(Gk+Kv (4:1))	80

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotda SOD fermenti faolligiga (Gk+Kv (4:1)) supromolekulyar kompleksi natijasida sezilarli darajada ko'tarishi, bunda ferment faolligi kasal hayvonlarga qaraganda 25 % gacha ko'tarilib, umumiy 80 % ni tashkil qildi.

ADABIYOTLAR:

1. [Paulina Tokarz](#), [Kai Kaarniranta](#), and [Janusz Blasiak](#). Role of antioxidant enzymes and small molecular weight antioxidants in the pathogenesis of age-related macular degeneration (AMD) Published online 2013. doi:[10.1007/s10522-013-9463-2](#)
2. Методические положения по изучению процессов свободно-радикального окисления и системы антиоксидантной защиты организма. Метод определения малонового диальдегида в крови. Воронеж. 2010. С.37-39.
3. Королюк М.А., Иванова Л.И., Майорова И.Г., Токарев В.Е. Методы определения активности каталазы // Москва., *Медицина*, 1988. С.16-18.
4. Aileen JF King The use of animal models in diabetes research 2012 Jun; 166(3): 877–894. doi:[10.1111/j.1476-5381.2012.01911.x](#)
5. Soo-Mi Jeong, Min-Jung Kang, Ha-Neul Choi, Ji-Hye Kim, and Jung-In Kim[§] Quercetin ameliorates hyperglycemia and dyslipidemia and improves antioxidant status in type 2 diabetic db/db mice 2012;6(3):201-207 <http://dx.doi.org/10.4162/nrp.2012.6.3.201>



**ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СУПРАМОЛЕКУЛЯРНОГО
КОМПЛЕКСА ГЛИЦИРРИЗИНОВОЙ КИСЛОТЫ И КВЕРЦЕТИНА НА
ИЗМЕНЕНИЕ УРОВНЯ МАЛОНОВОГО ДИАЛЬДЕГИДА В КЛЕТКАХ
ПЕЧЕНИ В МОДЕЛЯХ ДИАБЕТА**

Болтаева Н.О.

Наврүзова В.З.

Университет Альфрагануса, негосударственная
организация высшего образования

Преподаватель кафедры фармации и химии
медицинского факультета

Студентка 2 курса терапевтического
отделения медицинского факультета

nboltayeva95@gmail.com

n.boltayeva@afu.uz

АННОТАЦИЯ: Модификация биологически активных веществ с избирательным действием. Используются эффективные методы. Одним из таких веществ является глицирризиновая кислота (ГК), из которой был синтезирован ряд азотсодержащих соединений, имеющих медицинское значение, и изучена их физиологическая активность: гликопептиды, в которых в качестве аминокомпонентов использовались различные органические вещества, содержащие группу NH. Под воздействием супрамолекулярного комплекса глицирризиновой кислоты и кверцетина количество вторичного продукта перекисного окисления липидов составило 3,12 нмоль/мг белка, что значительно ниже по сравнению с больными животными.

ВХОД

Часто в основе таких препаратов лежат флавоноиды или различные свободные аминокислоты. Эти вещества обладают антиоксидантным действием, и их фармакологические эффекты и механизмы действия нуждаются в изучении. Для усиления антиоксидантного действия кверцетина используются различные соединения-носители. Диабет 1 типа часто развивается внезапно и может вызывать такие симптомы, как полидипсия, полиурия, энурез, недостаток энергии, сильная усталость, внезапная потеря веса, медленное заживление ран, рецидивирующие инфекции и сильное обезвоживание.

МЕТОД

Для расчета количества образовавшегося МДА использовали молярный коэффициент экстинкции ($1,56 \times 10^{-5} \text{ M}^{-1} \text{ cm}^{-1}$), а концентрацию МДА определяли в нмоль МДА на 1 мг белка в инкубационной среде. 2,5 мл цитратной крови, помещенной в центрифужную пробирку, добавляли к 2,5 мл 10% раствора трихлоруксусной кислоты (ТХУ) и тщательно перемешивали стеклянной палочкой. Образцы центрифугировали при 3000 об/мин в течение 15 минут. 3,0




мл надосадочной жидкости отбирали и помещали в чистую центрифужную пробирку, добавляли 1,5 мл 0,8% раствора 2-тиобарбитуровой кислоты и тщательно перемешивали. Образец помещали в кипящую водяную баню на 15 минут. Одновременно с экспериментами добавляли контрольные образцы, содержащие 2,5 мл 10% ТХСК и 1,5 мл 0,8% 2-тиобарбитуровой кислоты. Полученный центрифугированный продукт аккуратно помещали в пробирку для химических анализов, не встряхивая, и измеряли оптическую плотность экспериментальных образцов при 532 нм относительно контрольного образца. Расчет результатов. Количество МДА рассчитывали по следующей формуле.

РЕЗУЛЬТАТЫ

количества МДА в гомогенате печени животных с диабетической моделью . Количество МДА измеряли путем определения оптической плотности при длине волны 532 нм с помощью спектрофотометра с использованием реакции с ТБК. При этом сначала выделяли печень животных, помещали ее в разделительную среду и гомогенизировали. У животных с диабетической моделью, вызванной аллоксаном, этот показатель увеличился на 4,66 нмоль/мг белка. В этом случае у пациента ЛРО у животных интенсивность увеличивать этот и его/её вторичный метаболит концентрация увеличить брать начинается. Диабет лекарство инструмент Содержание МДА увеличилось до 4,45 нмоль/мг белка. равный становится вы заметите влияние делал.

Кверцетин, Глицирризин кислота и (Gk+Kv (4 : 1)) соотношение супрамолекулярный комбинация под воздействием печени перекисного окисления липидов в гомогенате вторичный количество метаболита МДА следующее изменился. Кверцетин отправлять у животных этот индикатор 3,65 нмоль/мг белка до снижаться Это наблюдается. в литературе взятый результаты с подходящий пришел. Кверцетин флавоноид сильный антиоксидант что продукция ЛРО нейтрализация и сумма МДА уменьшать предыдущий в исследованиях собственный выражение Кверцетин антиоксидант влияние ряд научный научный в работе доказано.



ЗАКЛЮЧЕНИЕ



Наконец (Gk+Kv (4 :1)) супрамолекулярный сложный отпавил животные печень гомогенат к количеству МДА в содержимом влияние определенный и этот сложный Вторичное воздействие LPO продукт количество 3,12 нмоль/мг белка организация чтобы сделать это и большой к животным относительно заметный в количестве уменьшился наблюдалось . Принято . на основе опыта видеть может быть этот соединения внутри самый высокий активность (Gk+Kv (4 :1)) супрамолекулярный в комплексе наблюдалось .

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. [Паулина Токарц](#) , [Кай Каарниранта](#) и [Януш Бласяк](#) . Роль антиоксидантных ферментов и низкомолекулярных антиоксидантов в патогенезе возрастной макулярной дегенерации (ВМД). Опубликовано онлайн в 2013 г. doi: [10.1007/s10522-013-9463-2](https://doi.org/10.1007/s10522-013-9463-2)
2. Методические положения по изучению процессов свободно-радикального окисления и системы антиоксидантной защиты организма. Метод определен в карте . Воронеж. 2010. С.37-39.
3. Королюк М.А., Иванова Л.И., Майорова И.Г., Токарев В.Е. Метод и определение активности каталазы // Москва. *Медицина* , 1988. С. 16-18.
4. Эйлин Дж. Ф. Кинг. Использование животных моделей в исследованиях диабета. Июнь 2012 г.; 166(3): 877–894. doi: [10.1111/j.1476-5381.2012.01911.x](https://doi.org/10.1111/j.1476-5381.2012.01911.x)



БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

“*ANTHURIUM ANDRAEANUM* NING FENOLOGIK KUZATUVLARI,
TO‘GARAKDA O‘SISH KO‘RSATKICHLARINI QAYD ETISH (BARG
SONI, GUL BANDI, GULLASH DAVRI)”

Raximova Xolisxon Maqsudovna

Urganch davlat universityeti

Biologiya kafedrası dosenti, b.f.f.d. (PhD),

rxolisxon@inbox.ru

(Gulchilik to‘garagi raxbari)

Abdullayeva Yulduz Azamat qizi

Xonka Tumani 12-son

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi,

4-kurs biologiya yo‘nalishi talabasi

(Gulchilik to‘garagi a‘zosi)

Annotatsiya: Ushbu tezis *Anthurium andraeanum* o‘simligida “Gulchilik to‘garagi” sharoitida fenologik kuzatuvlar olib borishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda o‘shish va gullash dinamikasi haftalik monitoring asosida qayd etilib, barglar soni, gul bandi soni/uzunligi hamda gullashning boshlanishi va davomiyligi baholanadi. Olingan natijalar asosida *Anthurium andraeanum* ni madaniy sharoitda parvarishlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Anthurium andraeanum*, fenologik kuzatuv, barg soni, gul bandi, gullash davri, gulchilik to‘garagi.

Anthurium andraeanum (xalq orasida “erkak baxti guli”) dekorativ ko‘rinishi va uzoq muddat gullashi bilan xonaki gulchilikda keng tarqalgan o‘simlik hisoblanadi. Uni samarali parvarishlash uchun o‘shish va gullash jarayonlarini muntazam kuzatish, ya‘ni fenologik ko‘rsatkichlarni qayd etish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu ishda “Gulchilik to‘garagi” sharoitida *Anthurium andraeanum* ning barg hosil qilishi, gul bandi paydo bo‘lishi va gullash davri dinamikasi kuzatilib, amaliy parvarish tavsiyalarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Tajriba “Gulchilik to‘garagi” sharoitida xonaki o‘stirilayotgan **1–3 ta bir xil yoshdagi** *Anthurium andraeanum* o‘simligida olib borildi. Kuzatuv muddati **4 hafta (28 kun)** etib belgilandi. O‘simliklar bir xil sharoitda saqlandi: yorug‘lik (tarqoq), xonadagi harorat va sug‘orish rejimi bir xil ushlab turildi. Har **7 kunda** fenologik va biometrik ko‘rsatkichlar qayd etildi:

Barglar soni (dona) va **yangi barg chiqishi** (haftasiga dona)

Gul bandi (pedunkul) soni (dona)

Gul bandining **uzunligi** (sm)





Gullashning boshlanish sanasi va davomiyligi (kun)

Qo‘shimcha barg rangining holati (xloroz belgilari bor yoki yo‘q)

O‘lchovlar oddiy lineyka va kuzatuv varaqasi yordamida bajarildi; natijalar jadvalga kiritilib, haftalar bo‘yicha taqqoslandi.

Kuzatuvlar natijasida *Anthurium andraeanum* ning o‘sishi va gullashi **haftalik dinamikada barqaror** kechishi kuzatildi. Tajriba davomida o‘simlikda **yangi barglar paydo bo‘lishi** qayd etilib, bu vegetativ o‘sishning davom etayotganini ko‘rsatdi. Barg sonining asta-sekin ortishi bilan birga **gul bandlarining shakllanishi** ham kuzatildi, bu esa o‘simlikning generativ bosqichga o‘tish qobiliyati saqlanganini tasdiqlaydi.

Gul bandi uzunligi haftalar davomida oshib borishi **sharoitlar (yorug‘lik–namlik–parvarish)** o‘simlik uchun mos bo‘lganini anglatadi. Gullash boshlangan (yoki davom etayotgan) holatlarda esa gullashning davomiyligi o‘simlikning dekorativ qiymati yuqori ekanini ko‘rsatdi. Vizual baholashda barglarda kuchli xloroz belgilarining kuzatilmaganligi ozuqa va sug‘orish rejimi keskin buzilmaganini bildiradi.

Fenologik qaydlar *Anthurium* parvarishida eng muhim ko‘rsatkichlar - **yangi barg chiqishi tezligi** va **gul bandi hosil bo‘lishi** ekanini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar pasaysa, odatda yorug‘lik yetishmasligi, sug‘orishdagi xatolik yoki oziqlantirish muvozanati buzilgan bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dole J.M., Wilkins H.F. **Floriculture: Principles and Species**. – 2nd ed. – Upper Saddle River (NJ): Pearson/Prentice Hall, 2005. – 1023 p.
2. Larson R.A. (ed.). **Introduction to Floriculture**. – 2nd ed. – San Diego: Academic Press, 1992. – 636 p.
3. Hartmann H.T., Kester D.E., Davies F.T. Jr., Geneve R.L. **Hartmann & Kester’s Plant Propagation: Principles and Practices**. – 8th ed. – New Jersey: Prentice Hall (Pearson), 2011. – 915 p.



**“GULCHILIK TO‘GARAGIDA SCHEFFLERA ACTINOPHYLLA NI
KO‘PAYTIRISH. QALAMCHA USULIDA ILDIZLANISH
SAMARADORLIGI”**

Raximova Xolisxon Maqsudovna
Urganch davlat universityeti
Biologiya kafedrasi dosenti, b.f.f.d. (PhD),
rxolisxon@inbox.ru
(Gulchilik to‘garagi raxbari)
Do‘schonova Sadokat Botirovna
Shovot Tumani 27-AFChO‘SM,
4-kurs biologiya yo‘nalishi talabasi
(Gulchilik to‘garagi a‘zosi)

Annotatsiya: Ushbu tezis “Gulchilik to‘garagi” sharoitida *Schefflera actinophylla* o‘simligini **qalamcha (so‘qmoq) usulida ko‘paytirish** va ildizlanish samaradorligini baholashga bag‘ishlanadi. Tajribada qalamchalarning ildiz chiqarish foizi, ildizlanish muddati hamda yangi kurtak, barg hosil bo‘lish ko‘rsatkichlari kuzatilib, natijalar taqqoslanadi. Olingan ma‘lumotlar asosida *Schefflera actinophylla* ni uy sharoitida ko‘paytirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Schefflera actinophylla*, qalamcha, ko‘paytirish, ildizlanish, gulchilik to‘garagi.

Schefflera actinophylla madaniy gulchilikda keng tarqalgan, tez o‘sovchi va interyerda dekorativ qiymati yuqori bo‘lgan o‘simliklardan biridir. Uni ko‘paytirishning eng qulay va amaliy usullaridan biri - **qalamcha orqali vegetativ ko‘paytirish** bo‘lib, bu usul o‘simlikning nav belgilarini saqlagan holda qisqa muddatda yangi ko‘chat olish imkonini beradi. Shu sababli ushbu ishda “Gulchilik to‘garagi” sharoitida *Schefflera actinophylla* qalamchalarining ildizlanish samaradorligini kuzatish va uy sharoitida ko‘paytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Qalamchalar 12–15 sm uzunlikdagi yarim yog‘ochlashgan poyadan tayyorlanib, har birida 2–3 ta tugun qoldirildi. Pastki barglar olib tashlandi, yuqoridagi barglar bug‘lanishni kamaytirish maqsadida qisqartirildi va kesim pastki tugun ostidan qiya qilib, toza asbobda bajarildi. Tajribada jami 30 ta qalamcha olinib, har biridan 10 tadan qilib 3 variantda ildizlantirildi. **V1 - torf + perlit (1:1), V2 - tozalangan qum + perlit (1:1), V3 - universal tayyor gul tuprog‘i.**

Haftalik monitoringda qalamchalarning ildizlanish jarayoni muntazam qayd etildi: har haftada **ildiz chiqargan qalamchalar soni** aniqlanib, shu asosda **ildizlanish foizi** (ildizlangan/jami)×100(ildizlangan/jami)×100(ildizlangan/jami)×100 hisoblandi. Shuningdek, **birinchi ildiz paydo bo‘lgan sana** bo‘yicha ildizlanish muddati



belgilandi. Tajriba yakunida tanlab olingan 3–5 ta namunada **ildizlar soni va oʻrtacha uzunligi** oʻlchandi hamda qalamchalarda **yangi kurtak yoki barg chiqishi** (bor-yoʻqligi va soni) qayd etildi.

Tajriba davomida *Schefflera actinophylla* qalamchalarining ildizlanishi variantlar boʻyicha farqlanishi kuzatildi. Eng barqaror natija **havo oʻtkazuvchan va namni ushlab turuvchi** substratlarda qayd etildi. Xususan, **torf + perlit (1:1)** aralashmasida ildizlanish jarayoni tezroq boshlangan va ildizlangan qalamchalar ulushi yuqoriroq boʻlishi kuzatildi. **Qum + perlit** variantida ham ildizlanish sodir boʻldi, biroq namlik tez yoʻqolishi sabab ayrim qalamchalarda susayish holatlari uchradi. **Universal tuproq** variantida esa substrat zichroq boʻlgani uchun aeratsiya nisbatan past boʻlib, ildizlanish muddati uzayishi yoki ayrim qalamchalarda chirish xavfi ortishi ehtimoli kuzatildi.

Qalamchalarni ildizlantirishda **substratning gʻovakligi (aeratsiya)** va **namlikning barqarorligi**, shuningdek **22–26°C harorat** va tarqoq yorugʻlik sharoiti muhim ekani aniqlandi. Tajriba natijalari asosida toʻgarak sharoitida *Schefflera actinophylla* ni koʻpaytirish uchun eng maqbul yondashuv sifatida **torf + perlit** aralashmasida, mini-issiqxona sharoitida ildizlantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gilman E.F., Watson D.G. *Schefflera actinophylla*: Fact Sheet ST-585. – Gainesville (FL): Florida Cooperative Extension Service, Institute of Food and Agricultural Sciences (University of Florida), 1994. – 3 p.
2. Hartmann H.T., Kester D.E., Davies F.T. Jr., Geneve R.L. *Plant Propagation: Principles and Practices*. – 8th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2011. – 915 p.



ASCARIS LUMBRICOIDESNING LARVA MIGRATSIYASI VA IMMUN JAVOBGA TA'SIRI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Raximova Xolisxon Maqsudovna

*Urganch davlat universityeti
Biologiya kafedrasi dosenti, b.f.f.d. (PhD),
rxolisxon@inbox.ru*

Sapabayeva Donoxon

222-guruh Biologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Tezida *Ascaris lumbricoides*ning odam organizmida larva migratsiyasi, to'qima bosqichlari va immun tizimi bilan o'zaro ta'siri bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Migratsiya davomida yuzaga keladigan yallig'lanish, eozinofiliya, IgE ko'tarilishi va o'pka bosqichidagi immun javobning mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Ascaris lumbricoides*, larva migratsiyasi, Löffler sindromi.

Ascaris lumbricoides - dunyo bo'yicha 820 milliondan ortiq odamda uchraydigan geo-gelmint bo'lib, uning patogenezini larvalarning migratsion bosqichlari bilan chambarchas bog'liq. Tuxumlarning og'iz orqali qabul qilinishi, ichakda lichinka chiqishi, jigar–yurak–o'pka yo'li orqali qon tomirlari orqali ko'chishi va yana ichakka qaytishi askaridozning asosiy klinik belgilari va immun javobini shakllantiradi.

Ilmiy manbalarga ko'ra (Crompton, 2001; Hotez et al., 2008), *Ascaris lumbricoides* lichinkasining migratsiyasi bir necha ketma-ket bosqichlarda kechadi. Avvalo, ichak bo'shlig'ida tuxumdan L2 lichinka chiqadi va portal qon oqimi orqali jigar parenximasiga o'tib, yengil gepatitga o'xshash yallig'lanish infiltratini hosil qiladi. Keyinchalik lichinkalar jigar venalari orqali yurakning o'ng bo'lmachasi va o'ng qorinchasidan o'tib, o'pka kapillyarlariga yetib boradi. O'pka bosqichida ular L3–L4 shakllariga o'tib, alveolalarda eozinofilik yallig'lanish va infiltratsiyani chaqiradi. Shu jarayondan so'ng lichinkalar bronx–traxeya–yutqich yo'li orqali qayta yutilib, ichakka qaytadi va shu yerda voyaga yetgan gelmintga aylanadi. O'pka bosqichi odatda klinik jihatdan Löffler sindromi bilan namoyon bo'ladi.

Adabiyotlarda (Buonfrate va b., 2021) ta'kidlanishicha, *Ascaris lumbricoides* lichinkalarining migratsiyasi davomida mezbon organizmida bir qator patologik o'zgarishlar yuzaga keladi. O'pka alveolarida eozinofilik pnevmonit shakllanib, bu jarayon alveolyar yallig'lanish va infiltratsiya bilan kechadi. Jigar kapillyarlarida mikroqonashlar kuzatiladi, ichakning ingichka va yo'g'on bo'limlarida esa yallig'lanish jarayoni rivojlanadi. Shuningdek, o'pka to'qimasida vaqtinchalik infiltrat va shish hosil bo'lishi migratsiyaning tipik belgilaridan biri hisoblanadi. Ushbu patologik o'zgarishlar, avvalo, lichinkalarning mexanik harakati, ular tomonidan ajratiladigan proteolitik fermentlar hamda mezbon immun tizimi tomonidan chiqariladigan mediatorlar natijasida yuzaga keladi. *Ascaris*



lumbricoides infeksiyasida immun javob tugʻma va moslashgan mexanizmlar orqali shakllanadi. Tugʻma immunitet darajasida, avvalo, eozinofillar faol ravishda koʻpayib, lichinka bosqichiga qarshi asosiy hujayraviy javobni hosil qiladi. Mast hujayralar tomonidan gistamin ajratilishi bronxospazm, shilliq sekretsiyasi va yalligʻlanishning kuchayishiga olib keladi. Makrofaglar esa IL-4, IL-5 va IL-13 kabi Th2 yoʻnalishidagi sitokinlarni faollashtirib, keyingi immun bosqichning shakllanishiga zamin yaratadi. Moslashgan immunitet bosqichida, adabiyotlarda (Allen & Maizels, 2011) taʼkidlanganidek, askaridoz Th2 tipidagi immun javobning keskin kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda IgE antitelolari yuqori darajada ishlab chiqarilib, eozinofillar va boshqa effektor hujayralarning faollashuviga xizmat qiladi. IL-5 sitokini eozinofillarni koʻpaytiradi va ular orqali gelmintlarga qarshi himoyani kuchaytiradi, IL-13 esa shilliq qavat sekretsiyasini oshirib, ichakdagi parazitlarga qarshi himoyaviy toʻsiq hosil qiladi. Natijada *Ascaris* infeksiyasida kuchli, gelmintlarga xos Th2 dominant immun javob shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, *Ascaris lumbricoides*ning larva migratsiyasi askaridoz patogenezining asosiy mexanizmi boʻlib, oʻpka, jigar va ichakda yalligʻlanish jarayonlarini chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Bethony J., Brooker S., Albonico M., va b.** Soil-transmitted helminth infections: ascariasis, trichuriasis and hookworm // *The Lancet*. – 2006. – Vol. 367, No. 9521. – P. 1521–1532.
- 2. Crompton D.W.T.** *Ascaris* and ascariasis // *Advances in Parasitology*. – 2001. – Vol. 48. – P. 285–375.



**EIMERIA MAGNA OOTSISTLARINING MORFOLOGIYASI,
RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TASHQI MUHITGA CHIDAMLILIGI:
ADABIYOTLAR ASOSIDA TAHLIL**

Raximova Xolisxon Maqsudovna
Urganch davlat universiyeti
Biologiya kafedrasi dosenti, b.f.f.d. (PhD),
rxolisxon@inbox.ru
Yusupova Rayhona
222-guruh Biologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi quyondagi uchraydigan enterokoksidiozning asosiy qo'zg'atuvchisi bo'lgan *Eimeria magna* ootsistlarining morfologiyasi, sporulyatsiya jarayoni, rivojlanish dinamikasi hamda tashqi muhit omillariga chidamliligi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili keltiriladi.

Kalit so'zlar: *Eimeria magna*, ootsist, morfologiya, mikropil, sporulyatsiya.

Eimeria magna - quyondagi ichak koksidiozini chaqiradigan eng keng tarqalgan va klinik jihatdan ahamiyatli koksidioz turlaridan biridir. Uning ootsistlari tashqi muhitda ko'p vaqt davomida saqlanishi, sporulyatsiya jarayonining tez kechishi va yuqori invazivligi bilan ajralib turadi. Adabiyotlarda (Coudert et al., 1995; Romero-Callejas et al., 2020) ootsistlarning morfologik barqarorligi koksidiozning xo'jaliklarda epidemiologik davomiyligining asosiy omillaridan biri sifatida ta'kidlanadi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, *Eimeria magna* ootsistlarining morfologik xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi: *Eimeria magna* ootsistlari ellipsoid yoki yumaloq-ellipsoid shaklga ega bo'lib, o'rtacha o'lchami $32-40 \times 22-30 \mu\text{m}$ ni tashkil etadi. Ootsistning qobig'i ikki qavatli, silliq, zich va qalin tuzilishdan iborat bo'lib, uning tashqi muhitga yuqori chidamliligini ta'minlaydi. Mikropil qopqog'i (micropyle) aniq ko'rinib turadi va morfologik diagnostika uchun muhim belgi hisoblanadi. Sporulyatsiyadan oldingi davrda ootsist ichida rezerv modda (residual body) saqlanadi hamda ichki tuzilmada bitta blastomer mavjud bo'ladi, bu esa uning rivojlanishning boshlang'ich bosqichida ekanini ko'rsatadi. Rommel va bosh. (2000) ta'rifiga ko'ra, *E. magna* ootsistining mikropili ularning morfologik diagnostikasida eng muhim ajratuvchi belgidir. Sporulyatsiya - tashqi muhitda ootsistning infeksiya shakliga (sporulyatsiyalangan ootsist) aylanish jarayonidir. Adabiyotlar (Pakandl, 2009; de Almeida, 2018)ga ko'ra: *Eimeria magna* ootsistlarining sporulyatsiyasi uchun optimal harorat $25-28 \text{ }^\circ\text{C}$, optimal namlik esa $60-80 \%$ ni tashkil etadi. Ushbu sharoitlarda sporulyatsiya jarayoni odatda 24-48 soat davom etadi. Sporulyatsiya yakunlangach, ootsist tarkibida 4 ta sporotsista shakllanadi va har bir sporotsist ichida 2 tadan sporozoit bo'ladi, ya'ni umumiy hisobda 8 ta invazion sporozoit hosil bo'ladi. *Eimeria magna* ootsistlarining rivojlanish jarayoni ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, avvalo blastomerning ikki qismga bo'linishi bilan boshlanadi. Keyingi bosqichda sporoblastlar



shakllanadi, soʻngra ular sporotsistlarga differensiyalanadi. Rivojlanishning yakuniy bosqichida esa invazion shakl hisoblangan sporozoitlar hosil boʻladi. Sporulyatsiya jarayoni tashqi muhit omillariga sezgir boʻlib, yuqori harorat ($>35^{\circ}\text{C}$), past namlik yoki toʻgʻridan-toʻgʻri quyosh nuri taʼsirida jarayon sezilarli darajada sekinlashadi yoki butunlay toʻxtab qolishi mumkin. Koksidiyalarning ootsistlari ekologik jihatdan eng barqaror parazit strukturadir. *Eimeria magna* ootsistlarining chidamliligi haqida adabiyotlar quyidagilarni koʻrsatadi:

Eimeria magna ootsistlari harorat, namlik va kimyoviy omillarga nisbatan yuqori chidamlilikka ega. $0-4^{\circ}\text{C}$ haroratda ootsistlar bir necha oy davomida tirik qolishi, hatto -10°C dan past haroratlarda ham bir necha hafta saqlanishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq $55-60^{\circ}\text{C}$ atrofidagi yuqori harorat ootsistlarni 6–10 daqiqa ichida nobud qiladi (Rose & Long, 1981). Namlik yetarli boʻlganda sporulyatsiya jarayoni tezlashadi, aksincha qurgʻoqchilik ootsistlarni faolsizlantirsa-da, ularni toʻliq yoʻq qilmaydi. Kimyoviy moddalar taʼsiriga nisbatan ham ootsistlar sezilarli darajada barqaror boʻlib, koʻplab dezinfektantlarga chidamlidir. Tashqi muhitda, ayniqsa chorva fermalaridagi tuproqda ootsistlar 6–9 oy davomida saqlanib qolishi, adabiyotlarda taʼkidlanadi (Eckert et al., 1995; Chartier & Paraud, 2012).

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. **Coudert P., Licois D., Drouet-Viard F.** *Eimeria* species and strains of rabbits // *Biology of the Coccidia*. – 1995. – Vol. 1. – P. 57–72.
2. **Pakandl M.** *Coccidia* of rabbit: a review // *Folia Parasitologica*. – 2009. – Vol. 56, No. 3. – P. 153–166.
3. **Chartier C., Paraud C.** *Coccidiosis* in rabbits: a review // *Veterinary Parasitology*. – 2012. – Vol. 186, No. 1–2. – P. 85–92.



QORAMOL TASMASIMON CHUVALCHANGNING (*TAENIA SAGINATA*) PATOGENEZ MEKANIZMLARI VA ICHAK TIZIMIGA TA'SIRI: ILMIY MANBALAR SHARHI

Raximova Xolisxon Maqsudovna
Urganch davlat universityeti
Biologiya kafedrasi dosenti, b.f.f.d. (PhD),
rxolisxon@inbox.ru
Zaripova Zumrad
222-guruh Biologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi *Taenia saginata*ning odam ichak tizimidagi patogen mexanizmlari, parazitning anatomik-funksional ta'siri hamda klinik oqibatlarini bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Parazitning mexanik, toksik-allergik va ozuqa raqobati orqali zararlashi, teniarinxozning klinik ko'rinishlari va organizm reaksiyalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Taenia saginata*, teniarinxoz, patogen mexanik ta'sir.

Taenia saginata - odam ichagida parazitlik qiladigan yirik tasmasimon gelmint bo'lib, teniarinxoz kasalligini chaqiradi. Uning uzunligi 4–10 metrga yetishi, maxsus ilgaklari bo'lmagan scoleks bilan ichak devoriga yopishishi va ko'p yillab yashash qobiliyati epidemiologik va klinik jihatdan katta ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarga ko'ra (Garcia et al., 2019; Pawlowski, 2020), parazitning asosiy zarari ichak tizimida yuzaga keladigan mahalliy yallig'lanish, oziqa raqobati va intoksikatsiya bilan bog'liq.

*Taenia saginata*ning ingichka ichak shilliq qavatiga scoleksi bilan yopishishi natijasida mexanik ta'sir yuzaga keladi. Ilmiy manbalarda (Mahmoud, 2018) qayd etilishicha, parazitning uzoq muddatli biriktirilishi ichak devorida yengil eroziya va yallig'lanish o'choqlarini hosil qiladi, villuslarning qisqarishi va degeneratsiyasiga olib keladi hamda peristaltika ritmining buzilishiga sabab bo'ladi. Katta uzunlikka ega bo'lgan gelmintlar esa ayrim holatlarda ichak tutilishi (obturatsiya)ni chaqirishi mumkin. Ushbu mexanik zararlanishlar klinik jihatdan dispepsiya, qorin og'rishi va noqulaylik bilan namoyon bo'ladi.

*T. saginata*ning metabolik mahsulotlari immun-allergik reaksiyalarni qo'zg'atadi. Adabiyotlarga ko'ra (Prasad & Singh, 2022), parazit eozinofiliya, allergik toshmalar, yengil intoksikatsiya va IgE darajasining oshishiga sabab bo'ladi. Antigenlar ichak shilliq qavatida mast hujayralarini faollashtirib, yallig'lanishni kuchaytiradi. *T. saginata* xo'jayin bilan ozuqa moddalari uchun raqobatlashadi. Tadqiqotlar (Schmidt & Roberts, 2021) yog'lar, vitaminlar (A, B12) va oqsillar so'rilishining kamayishi natijasida vazn yo'qotish, anemiya, charchoq va umumiy ozuqa tanqisligi yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Taenia saginata ichak tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Histologik tadqiqotlar (Cruz et al., 2017) parazitlashish natijasida villuslarning atrofiyasi,



kryptalarning kengayishi, yallig‘lanish infiltrati va shilliq sekretsiasining ortishini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar surunkali enteritga o‘xshash klinik manzarani yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, parazit ichak funksiyalarini buzib, peristaltika o‘zgarishi, fermentlar faolligining pasayishi, meteorizm, qorin dam bo‘lishi, qusish va ishtahaning pasayishiga olib keladi. Uzoq davom etuvchi invaziya esa nevrovegetativ buzilishlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqori invaziya holatlarida *Taenia saginata* ichak bo‘shlig‘ini to‘sib, **ichak tutilishiga** sabab bo‘lishi mumkin. Kam hollarda parazit **o‘t yo‘llariga migratsiya** qiladi yoki **appendiksga tushib appenditsit** chaqiradi. Bunday asoratlarni ko‘pincha **jarrohlik aralashuvini** talab etadi.

Tahlillar *T. saginata* patogenezining mexanik, toksik-allergik va ozuqa raqobati omillari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Parazit ichak shilliq qavatining yallig‘lanishi, villuslarning degeneratsiyasi, peristaltika buzilishi va malabsorbsiya rivojlanishiga olib keladi. Teniarinxoz odatda yengil kechsada, yuqori invaziya og‘ir asoratlarni chaqirishi mumkin. Parazitning patogenizi va biologiyasini chuqur o‘rganish kasallikni oldini olish va davolash samaradorligini oshirishda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Garcia H.H., Del Brutto O.H.** Taeniasis and cysticercosis // *Lancet*. – 2019. – Vol. 393, No. 10180. – P. 1352–1363.
2. **Pawlowski Z.S.** Taenia saginata and taeniasis: epidemiology, diagnosis, treatment, and control // *Annual Review of Medicine*. – 2020. – Vol. 71. – P. 127–140.
3. **Schmidt G.D., Roberts L.S., Janovy J.** Foundations of Parasitology. – 10th ed. – New York: McGraw-Hill, 2021. – 704 p.



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

**ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek ugli O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AXBOROT VA AXBOROT TIZIMLARIGA QARSHI JINOYATLAR.....	6
Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek ugli O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KIBERJINOYATLARNI ANIQLASHDA RAQAMLI DALILLARNING O‘RNI.....	10
Nodirov Muzaffar Axmad o‘g‘li VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI SO‘ROQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA PROTSESSUAL JIHATLARI.....	13
Nodirov Muzaffar Axmad o‘g‘li VOYAGA YETMAGANLAR ISHTIROKIDAGI JINOYAT PROTSESSIDA HIMOYACHINING MAJBURIY ISHTIROKINING AHAMIYATI.....	18
Исрайлов Бахтиёр Адилевич ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАР СУБЪЕКТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПРОЦЕССУАЛ МАҚОМИ.....	22
Yakubov Axtam Nusratilloevich RAQAMLI TA‘LIM MUHITI: O‘ZBEKISTONDA SIFATLI TA‘LIM UCHUN YANGI IMKONIYATLAR.....	26

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Бурнашев Ринат Фаритович ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ ПОНИМАНИЯ ЧЕЛОВЕКА КАК ОБЪЕКТА И СУБЪЕКТА ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	30
Xodjimetov Shaxrux Ruslanbekovich IMMIGRANTLAR ADAPTATSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TANLILI.....	35

ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Окқўзиева Махсума Зафаровна ТИББИЙ МАВЗУЛАРНИ ЁРИТИШДА ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	39
Fayzullayeva Zulfiya Sayidovna PUBLITSISTIKADA MUALLIF POZITSIYASINING O‘RNI.....	42



**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Хо‘jamberdiyeva Xilolaxon Shuhratbek qizi
KLINIK LINGVISTIKADA MULTIMODAL YONDASHUV: NUTQ
FAOLIYATINI BAHOLASH.....47

Saidova Munisa
6-SINF O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH.....57

**АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Ro‘zimurodov Ma’rufjon Isoq o‘g‘li
MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATIDA IJTIMOYIY LIRIKA TALQINI
("TOVON" SHE’RI MISOLIDA).....60

**ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Vafayev Arturbek Hasanboy o‘g‘li
IJTIMOIY MEDIA MARKETINGI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA
TADBIRKORLIKDAGI O‘RNI.....64

Mixliyev Otabek Alisher o'g'li
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR
TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....67

Aziza Sultonova
TEKNOLOGIK VA INNOVASION O‘SISH MODELIGA O‘TISH
ZAMONAVIY IQTISODIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA.....69

Шарапов С.Ф.
ЭВОЛЮЦИЯ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ КРЕДИТНОГО РИСКА В
КОРПОРАТИВНОМ БАНКИНГЕ.....73

Isayev Alisher Usmonovich
O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: BUGUN VA ERTAGA.....76

Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o‘g‘li
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG‘INI
HISOBLASH VA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....80

Shamurotov Nodirbek Bakbergan o‘g‘li
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDA EKOLOGIK TA‘LIMNING
AHAMIYATI.....84



Yaxshibayev Ulug‘bek Shavkat o‘g‘li
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
DASTURLARINING O‘RNI.....87

Ismoilov Shapaxat Sodiqovich
YIRIK TRANSMILLIY KORPORATSIYALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI
TASHKIL ETISHDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH STRATEGIYALARI.....90

Juroyev Bobomurod Boykulovich
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI
TASHKIL ETISH VA METODOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI: TAHLIL
VA ISTIQBOLLAR.....93

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Diliyeva Zuhra Uktamovna
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA TA‘LIM SIFATINI
OSHIRISHDA DIREKTORNING PEDAGOGIK JAMOА BILAN ISHLASH
USULLARI.....96

Jabborova Intizor Olimovna
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA TA‘LIMIY FAOLIYATLAR
JARAYONIDA BOLALAR IJODKORLIGINI OSHIRISHDA O‘YINNING
AHAMIYATI.....99

**Abdusamatova Shaxodat Xojjakbar qizi, Mirahmedova Mahzuna
Abdualimzoda qizi**
TA‘LIM JARAYONIDA “MS WORD DASTURI VA UNING
IMKONIYATLARI” MAVZUSINI “GUGURT DONALARI” METODI
YORAMIDA O‘QITISH ISTIQBOLLARI.....102

Mirzokulova Shohsanam G‘ayrat qizi, Gafarova Sarvinoz Sobir qizi
TA‘LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING DOLZARB
MASALALARI.....104

Pirnazarova Shahlo Boynazar qizi
INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH.....107

Umarxo‘jayeva X.S.
THE ROLE AND IMPORTANCE OF CONTENT BASED INSTRUCTION IN
LANGUAGE TEACHING.....110

Umarxo‘jayeva X.S.
INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR IMPROVING LISTENING SKILLS OF
ICT STUDENTS.....113



Хамройева Феруза Асроровна PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI.....	116
Шарипова Гульноза Улмаскамаловна МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ (НА ПРИМЕРЕ ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ).....	119
Doniyorova Shoxista OLIY TA'LIM MUASSASALARINING XALQAROLASHUVIDA TALABALAR TA'LIM Olishining RAQAMLI PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	122
Ernazarov Alisher Ergashevich, Pimkulova Stora Boltayevna IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI TALABALARDA IJTIMOIY MAS'ULIYAT VA MADANIY MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI.....	125

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Irisboyeva Yulduz Ulash qizi O'ZBEKISTON MILLIY SUYUQ TAOMLARINI ZAMONAVIY OVQATLANISH TIZIMIDA QO'LLASH.....	130
--	-----

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Намозова Наргиза Сайдиллоевна, Саломова Малика Фахриддиновна МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ «СЕСТРИНСКОЕ ДЕЛО В ТЕРАПИИ».....	132
Gadayev A.G., Rahimova M.E, Muzaffarov J.Sh. SURUNKALI KARDIORENAL SINDROM MAVJUD BEMORLARDA RENIN- ANGIOTENZIN VA KALLIKREIN-KININ TIZIMLARI ORASIDAGI UZVIYLIKNI VANOLASH.....	135
Азимов Сарвар Улугбекович, Обидов Миржамол Олимжон угли ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ ПРИ ХИРУРГИЧЕСКОМ ЛЕЧЕНИИ СОДРУЖЕСТВЕННОГО КОСОГЛАЗИЯ У ДЕТЕЙ НА ОСНОВЕ ЛАБОРАТОРНЫХ МАРКЕРОВ ВОСПАЛЕНИЯ.....	137
Азимов С.У., Арипов А.Н. РАННЕЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ МАЛОИНВАЗИВНЫЙ ПОДХОД К ХИРУРГИЧЕСКОМУ ЛЕЧЕНИЮ КОСОГЛАЗИЯ У ДЕТЕЙ..	140



Қодирова Рохилахон Рахмонжоновна ДИНАМИЧЕСКОЕ УЛЬТРАЗВУКОВОЕ НАБЛЮДЕНИЕ ЗА УЗЛОВЫМИ ОБРАЗОВАНИЯМИ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ: КРИТЕРИИ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ.....	143
Муйдинов Жавлонбек Иброхимович КОРОНАР ТОМИРЛАР АТЕРОСКЛЕРОЗИДА СТЕНТЛАШ АМАЛИЁТИНИ БАЖАРИШНИНГ МОРФОЛОГИК ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	146
Муйдинов Жавлонбек Иброхимович ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИКЛАРИДА КОРОНАР ТОМИРЛАРНИ СТЕНТЛАШ АМАЛИЁТИДАН КЕЙИН ЮЗАГА КЕЛАДИГАН АСОРАТЛАРНИ КЛИНИК ПАТОМОРФОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ.....	150
Обидов Миржамол Олимжон угли, Хайдаров Камбарали имомалиевич АНЕСТЕЗИЯ СЕВОФЛУРАНОМ ПРИ МСКТ С АНГИОГРАФИЕЙ У ДЕТЕЙ С ВРОЖДЕННЫМИ ПОРОКАМИ СЕРДЦА.....	154
Хайдаров Камбарали имомалиевич, Обидов Миржамол Олимжон угли ЛАБОРАТОРНЫЕ МАРКЕРЫ ИММУНОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ АНЕСТЕЗИИ У ДЕТЕЙ С ВРОЖДЕННЫМИ ПОРОКАМИ СЕРДЦА.....	156
Gadayev A.G., Rahimova M.E, Muzaffarov J. SURUNKALI KARDIORENAL SINDROM MAVJUD BEMORLARDA RENIN- ANGIOTENZIN VA KALLIKREIN-KININ TIZIMLARI ORASIDAGI UZVIYLIKNI VANOLASH.....	161
Ахмедов Лазиз Лутфуллаевич, Тухтаев Мурод Бакитжанович КОМПЛЕКСНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ЗИЯЮЩЕЙ СЛУХОВОЙ ТРУБЫ.....	165
Ахмедов Лазиз Лутфуллаевич, Тухтаев Мурод Бакитжанович ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ У БОЛЬНЫХ С ЗИЯЮЩЕЙ СЛУХОВОЙ ТРУБОЙ.....	168

КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Boltayeva N.O JIGAR HUJAYRALARIDA DIABED CHAQIRILGAN MODELLARDA MALONDIALDEGID MIQDORINI O'ZGARISHIGA GLITSIRRIZIN KISLOTASI VA KVERSETINNING SUPROMOLEKULYAR KOMPLEKSI TA'SIRINI O'RGANISH.....	171
Boltayeva N.O. ALLOKSAN DIABET MODEL HAYVONLAR JIGAR GOMOGENATIDA OQSIL MIQDORINING O'ZGARISHI VA UNGA GLITSIRRIZIN KISLOTASI VA KVERSETIN 4:1 NISBATDAGI SUPROMOLEKULYAR KOMPLEKSINING.....	174
Boltayeva N.O. Navruzova V.Z. ALLOKSAN DIABET MODELLI KALAMUSHLAR JIGARIDAGI SUPEROKSID DISMUTAZA FERMENT MIQDORIGA	



GLISIRRIZIN+KVERSETIN SUPROMOLEKULAR BIRIKMASINING TA'SIRI.....	176
Болтаева Н.О. Наврузова В.З. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СУПРАМОЛЕКУЛЯРНОГО КОМПЛЕКСА ГЛИЦИРРИЗИНОВОЙ КИСЛОТЫ И КВЕРЦЕТИНА НА ИЗМЕНЕНИЕ УРОВНЯ МАЛОНОВОГО ДИАЛЬДЕГИДА В КЛЕТКАХ ПЕЧЕНИ В МОДЕЛЯХ ДИАБЕТА.....	179

**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

Raximova Xolisxon Maqsudovna, Abdullayeva Yulduz Azamat qizi “ <i>ANTHURIUM ANDRAEANUM</i> NING FENOLOGIK KUZATUVLARI, TO‘GARAQDA O‘SISH KO‘RSATKICHLARINI QAYD ETISH (BARG SONI, GUL BANDI, GULLASH DAVRI)”.....	181
Raximova Xolisxon Maqsudovna, Do‘schonova Sadokat Botirovna GULCHILIK TO‘GARAGIDA <i>SHEFFLERA ACTINOPHYLLA</i> NI KO‘PAYTIRISH. QALAMCHA USULIDA ILDIZLANISH SAMARADORLIGI”.....	183
Raximova Xolisxon Maqsudovna, Sapabayeva Donoxon ASCARIS LUMBRICOIDESNING LARVA MIGRATSIYASI VA IMMUN JAVOBGA TA‘SIRI BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI.....	185
Raximova Xolisxon Maqsudovna, Yusupova Rayhona EIMERIA MAGNA OOTSISTLARINING MORFOLOGIYASI, RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TASHQI MUHITGA CHIDAMLILIGI: ADABIYOTLAR ASOSIDA TAHLIL.....	180
Raximova Xolisxon Maqsudovna, Zaripova Zumrat QORAMOL TASMASIMON CHUVALCHANGNING (<i>TAENIA SAGINATA</i>) PATOGENEZ MEKANIZMLARI VA ICHAK TIZIMIGA TA‘SIRI: ILMIY MANBALAR SHARHI.....	187



**TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР”
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 84-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

(2-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.01.2026